O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

MATEMATIKA KAFEDRASI

«XUSUSIY HOSILALI TENGLAMALARI » fanidan o‘quv-uslubiy

M A J M U A

«5130100 - matematika »

ta’lim yo‘nalishi bakalavr talabalari uchun

GULISTON-2021

Raxmonov Jamshidbek Turdaliyevich «Xususiy hosilali tenglamalar» fanidan o‘quv – uslubiy majmua («5130100 - matematika» ta’lim yo‘nalishi bakalavr talabalari uchun). O‘quv-uslubiy majmua. – Guliston: GulduDU nashri, 2021. – 479 bet.

« **Xususiy hosilali tenglamalar** » fanidan ushbu o‘quv – uslubiy majmua Guliston davlat universitetining «Differentsial tenglamalar» kafedrasida tayyorlangan.

Majmua « Xususiy hosilali tenglamalar » fanini o‘rganish jarayonida talabaning mustaqil ishlashini ta’minlovchi o‘quv-uslubiy materiallarni o‘z ichiga oladi hamda talaba olgan bilimining sifatini doimo nazorat qilishni ta’minlaydi.

MUNDARIJA

XUSUSIY HOSILALI TENGLAMALAR FANINIG NAMUNAVIY FAN DASTURIGA MOS ISHCHI DASTURI

1.**KIRISh**

Matematik fizika masalalarining doirasi nixoyatda keng, ular turli fizik, mexanik, texnik, biologik va boshqa jaranlarni oʻrganish bilan uzviy bogʻliqdir.

Oliy ta’lim tizimda yuksak malakali ijodkorlik va tashabuskorlik qobiliyatga ega, kelajakda kasbiy va hayotiy muammolarni mustaqil hal qiladigan, ya’ni texnika va texnologiyalarga tez moslanishi layoqatli kadrlarni tayyorlashda ta’lim jarayonini zamonaviy oʻquv metodik muammolar bilan ta’minlash muhim axamiyatga ega.

Xususiy xosilali differentsial tenglamalari fanidan oʻquv-uslubiy (metodik) majuma (OʻMM) davlat ta’lim standarti va fan dasturida belgilangan talabalar tomonidan egallanishi lozim boʻlgan bilim, koʻnikma, malaka va kompetentsiyalarni shaklantirishni, oʻquv jarayonini kompleks loyixalash asosida kafolatlangan natijalarni olishni mustaqil bilim olish va oʻrganishni hamda nazoratni amalga oshirishni taminlaydigan talabaning ijodiy qobiliyatini rivojliantirishga yoʻnaltirilgan oʻquv uslubiy manbalar, didaktik vositalar va materiallar, elektron ta’lim resurslari, oʻqitish taxnologiyasi, baxolash metodlari va mezonlari oʻz ichiga oladi.

1.1. Fanning maqsadi va vazifalari

Xususiy xosilali differentsial tenglamalari fanning oʻqitishda maqsad, bakalavr yoʻnalishi malakaviy tavsifnoma talabalarga binoan talaba oʻzi tanlagan soha tadbiqiy matematika boʻyicha etuk mutaxassis boʻlishligi uchun talaba turli fizik jarayonlarni matematik masala koʻrinishda modellashtira olishi, hisob kitob qila olishi nazariy bilimlarni amaliyotga tadbiq qilaolishi, standart va nostandart masalalarni echa olishi oliy matematikaning soʻngi yutuqlaridan biri umulashgan funktsiyalar nazariyasini chegaraviy masalalarni yechishga qoʻllashni bila oladigan bilim va koʻnikmalar oʻrganishdir.

1.2. Fanni oʻzlashtirgan talabaning malakaviy darajalari

Fanni oʻzlashtirgan talaba.

- oddiy differentsial tenglamalar hamda xususiy xosilali differentsial tenglamalar ularning yechimi haqida mustaqil fikr yuritish,

- ikkiinchi tartibli xususiy xosilali differentsial tenglamalarni tiplariga ajratish klassifikatsiyalash bilishi,

-tenglamalarning tipiga va sohaning koʻrinishga qarab korrekt qoʻyilgan chegaraviy masalalarni ajratib olishi,

-koshi masalasi, Dirixle va Neyman masalalari shuningdek boshqa chegaraviy masalalarning yechimi mavjudligi va yagonaligi koʻrsata olishi,

-chegaraviy masalalarni yechishning zamonaviy usullari toʻliq boʻlishini toʻliq oʻrganadi.

- statsionar va nostatsionar jarayonlarni farqlay oladi va tegishli muloxazalarga yuritib chegaraviy masala koʻrinishda modellashtira oladi.

Fanning oʻquv rejasidagi fanlar bilan bogʻliqligi

Xususiy xosilali differentsial tenglamalari matematik analiz, funktsional analiz oddiy differentsial tenglamalar, analitik geometriya komplek analiz kabi fanlar bilan oʻzaro bogʻliqligini va bir birlarining rivojlanishiga faol ta’sir koʻrsatishini shaklantirish lozim boʻladi.

1.4. Fanni o‘qitishda pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish

Fanni o‘qitishda talabalarning bilimini reyting nazorati tizimini qo‘llab aniqlashga asoslangan zamonaviy pedagogik texnologiyalar qo‘llaniladi Talabalarga ushbu fanni o‘qitishda kompyuter texnologiyasidan, Internet ma’lumotlaridan ma’ruza materiallari sifatida, amaliy mashg‘ulotlarda hamda test savollari to‘plamidan foydalanish tavsiya etiladi.

Fandan o‘tiladigan mavzular va ular bo‘yicha mashg‘ulot turlariga ajratilgan soatlarning taqsimoti

TG ’r	Fanning bo‘limi va mavzusi, ma’ruza mazmuni	Jami	Ma’ruza	Amaliy mashg‘ulot
1	Xususiy hosilali differentsial tenglamalar (x.h.d.t) va ularning yechimi to‘g‘risida tushunchalar. Xarakteristik forma tushunchasi ikkinchi tartibli differentsial tenglarining klassifikatsiyasi va kanonik ko‘rinishi.	**4**	2	2
2	Yuqori tartibli differentsial tenglamalar va sistemalarining klassifikatsiyasi.Ikkinchi tartibli ikki o‘zgaruvchili differetsial tenglamalarni kanonik ko‘rinishga keltirish	**4**	2	2
3	Matematik fizikaning asosiy tenglamalarini keltirib chiqarish: Tor tebranishi tenglamasi.Issiqlik tarqalishi tenglamasi. Statsionar tenglamalar: Moddiy nuqtaning og‘irlik kuchi ta’siridagi harakati	**4**	2	2
4	Matematik fizika tenglamalari uchun asosiy masalalarni qo‘yilishi. Koshi masalasi.	**4**	2	2
5	Chegaraviy masalalar va boshlang‘ich chegaraviy masalalar. Koshi masalasi va uni qo‘yilishida xarakteristikalarning roli. Korrekt qo‘yilgan masala tushunchasi.	**4**	2	2
6	**Giperbolik tipdagi tenglamalar**. Tor tebranish tenglamasi. Dalamber formulasi. Dalamber formulasi bilan aniqlangan yyechimning fizik ma’nosi. Chegaralangan tor.	**4**	2	2
7	To‘lqin tenglamasi uchun Koshi masalasi yechimining yagonaligi. Koshi masalasi yechimini beradigan formulalar va ularni tekshirish. Gyugens printsipi.	**4**	2	2
8	To‘lqinlarning diffuziyasi.Bir jinsli bo‘lmagan to‘lqin tenglamasi. Kyechikuvchan potentsial. Gursa masalasi.Asgeyrson printsipi.	**4**	2	2
9	*Qo‘shma differentsial operatorlar. Riman usuli. Aralash*	**4**	2	2

	masalalar			
10	*Tor tebranish tenglamasi uchun birinchi chegaraviy masalani Fure usuli bilan yechish.* Xos sonlar va xos funktsiyalar masala yechiimining yagonaligi	**4**	2	2
11	Bir jinsli bo‘lmagan tenglama. To‘g‘ri to‘rtburchakli membrana tebranish tenglamasi uchun aralash masalani yechish	**4**	2	2
12	Parabolik tipdagi tenglamalar. Issiqlik tarqalish tenglamasi. Ekstremum printsipi.	**4**	2	2
13	Birinchi chegaraviy masala yechimining yagonaligi. Koshi masalasi va uning yechimi yagonaligi va turg‘unligi.	**4**	2	2
14	Fundamental yyechim.Koshi masalasi yechimining mavjudligi. Bir jinsli bo‘lmagan tenglama uchun Koshi masalasi.	**4**	2	2
15	Bir o‘lchovli isssiqlik tarqalish tenglamasi uchun birinchi chegaraviy masalani Fure usuli bilan yechish. Bir jinsli bo‘lgan va bir jinsli bo‘lmagan hol. Koshi masalasini Fure usuli bilan yechish.	**4**	2	2
16	Elliptik tipdagi tenglamalar Garmonik funktsiyalar.Laplas tenglamasining fundamental yechimi. Grin formulalari. S^2 sinf funktsiyalari va garmonik funktsiyalarning integral ifodasi.	**4**	2	2
17	O‘rta qiymat haqida teorema. Ekstremum printsipi va undan kelib chiqadigan ayrim natijalar. Kelvin teoremasi. Kelvin almashtirishi	**4**	2	2
18	Laplas tenglamasi uchun Dirixle va Neyman masalalari qo‘yilishi va ular yyechimlarining yagonaligi. Dirixle masalasining Grin funktsiyasi va uning xossalari.	**4**	2	2
19	Dirixle masalasining shar uchun yechilishi. Sharning tashqarishi uchun Dirixle masalasi	**4**	2	2
20	O‘rta qiymat haqidagi teoremaga teskari teorema.Chetlashtiriladigan maxsuslik haqidagi teorema. Garnak tengsizligi. Liuvall va Garnak teoremalari. Doira uchun Drixle masalasini Fure usuli bilan yechish.	**4**	2	2
21	**Potentsiallar nazariyasi.** Potentsiallar tushunchasi va ularning fizik ma’nosi. Parametrga bog‘liq bo‘lgan xosmas integrallar.Hajm potentsiali. Lyapunov sirtlari va egri chiziqlari. Teles burchak. Gauss integrali.	**6**	2	2
22	Ikkilangan qatlam potentsiali. Oddiy qatlam potentsiali va uning normal xosilasi.	**4**	2	2
23	Chegaraviy masalalarni potentsiallar yordamida integral tenglamalarga keltirishi. Xususiy hosilali differentsial tenglamalar yechimining silliqligining xususiyati to‘g‘risida.	**4**	2	2
	Jami	**94**	**46**	**46**

Amaliy mashg‘ulotlar (48 soat)

T/r	Mazular nomlanishi	Jami soati

1	**Xususiy hosilali differentsial tenglamalar va ularning klassifikatsiyasi**	**2**
2	**Ikki o‘zgaruvchili ikkinchi tartibli xususiy hosilali differentsial tenglamalarni klassifikatsiyalash va kanonik ko‘rinishga keltirish.**	**4**
3	**Giperbolik tipdagi tenglamalarning umumiy yyechimlarini topish**	**4**
4	**To‘lqin tenglamasi uchun Koshi masalasi**	**4**
5	**Giperbolik tipdagi tenglamalar uchun chegaraviy masalalar yechish usullari: berilganlarni davom ettirish usuli.**	**2**
6	**Riman funksiyasi**	**2**
7	**Chegaraviy masalalarni Fur’ye usuli bilan yechish.**	**4**
8	**Giperbolik tipdagi tenglama yechimining xossalarini tekshirish**	**2**
9	**To‘lqin tarqalish tenglamasi uchun ba’zi masalalarning korrektligi.**	**2**
10	**Parabolik tipdagi tenglamalar uchun Koshi masalasi.**	**2**
11	**Asosiy chegaraviy masalalarni berilganlarni davom ettirish usuli bilan yechish.**	**2**
12	**Chegaraviy masalalarni Fure usuli bilan yechish.(Parabolik tipdagi tenglamalar bo‘lgan hol.).**	**4**
13	**Garmonik funktsiyalar va ularning xossalariga oid masalalar.**	**2**
14	**Laplas tenlamasi uchun doirada Dirixle va Neyman masalalari.**	**2**
15	**Laplas va Puasson tenlamalari uchun sharda Dirixle va Neyman masalalarini yechish.**	**2**
16	**Garmonik funktsiyalar uchun ba’zi masalalar.**	**2**
17	**Potentsiallar.**	**2**
18	**Elliptik tenglama yechimining xossalari.**	**2**
	Jami	**46**

2. O‘quv materiallari mazmuni

2.1. Ma’ruza mashg‘ulotlari mazmuni (jami 46 soat)

2.1.1. Xususiy hosilali differentsial tenglamalar (x.h.d.t) va ularning yechimi to‘g‘risida tushuncha. **(2 soat)** [A1, 7-12; Q2, 3-18; A3,3-16]

2.1.2. Xarakteristik forma tushunchasi ikkinchi tartibli differentsial tenglarining klassifikatsiyasi va kanonik ko‘rinishi **(2 soat).**
[A1, 13-30; A2.16-45; Q3.16-48; A6, 15-35; A3.13-25].

2.1.3. Ikkinchi tartibli ikki o‘zgaruvchili differetsial tenglamalarni kanonik ko‘rinishga keltirish **(2 soat).**
[A1, 13-30; A2.16-45; Q3.16-48; A6, 15-35; A3.70-82].

2.1.4. Matematik fizika tenglamalari uchun asosiy masalalarni qo‘yilishi. Koshi masalasi. Top tebranishi tenglamasi.
Issiqlik tarqalishi tenglamasi. **(2 soat)** [A1, 24-34; Q3.45-55].

2.1.5. Ikkinchi tartibli x.h.d.t.lar uchun chegaraviy masalalarning qo‘yilishi. **(2 soat).** [A1, 44-50; Q3.70-82;].

2.1.6. Elliptik tipdagi tenglamalar uchun chegaraviy masalalar. **(2 soat).** [A1, 51-58, Q3.86-89].

2.1.7. To‘lqin tenglamasi uchun Koshi masalasi yechimining yagonaligi. Koshi masalasi yechimini beradigan formulalar va ularni tekshirish. Gyugens printsipi. **(2 soat).**
[A1, 55-58 ; Q4.65-68;].

2.1.8. To‘lqinlarning diffuziyasi.Bir jinsli bo‘lmagan to‘lqin tenglamasi. Kyechikuvchan potentsial. Gursa masalasi.Asgeyrson printsipi.

To‘lqinlarning diffuziyasi.Bir jinsli bo‘lmagan to‘lqin tenglamasi. Kyechikuvchan potentsial. Gursa masalasi.Asgeyrson printsipi.

. **(2 soat).** [A1, 58-61; Q3.102-128].

2.1.9. *Qo‘shma differentsial operatorlar. Riman usuli. Aralash masalalar* **(2 soat).**

[A1.144-122; Q3.118-128;].

2.1.10. *Tor tebranish tenglamasi uchun birinchi chegaraviy masalani Fure usuli bilan yechish.* Xos sonlar va xos funktsiyalar masala yechimining yagonaligi. **(2 soat).**

[A1, 125-130, Q3.129-132;].

2.1.11. Bir jinsli bo‘lmagan tenglama. To‘g‘ri to‘rtburchakli membrana tebranish tenglamasi uchun aralash masalani yechish. **(2 soat).**

[A1,139-142, Q.3. 133-140].

2.1.12. Parabolik tipdagi tenglamalar. Issiqlik tarqalish tenglamasi. Ekstremum printsipi. **(2 soat).** [A.1, 145-148. Q.3. 142-146].

2.1.13. Birinchi chegaraviy masala yechimining yagonaligi. Koshi masalasi va uning yechimi yagonaligi va turg‘unligi.. **(2 soat).**

[A.1, 148-155. Q.3. 152-156].

2.1.14. O‘rta qiymat haqida teorema. Ekstremum printsipi. **(1soat).**

[A1, 159-161. Q.3. 156-158].

2.1.15. Kelvin teoremasi. Kelvin almashtirish. **(1 soat).**

[A1, 161-166, Q.3.164-168].

2.1.16. Laplas tenglamasi uchun Dirixle va Neyman masalalari. Grin funktsiyasi. **(1 soat)** . [A1,167-170. Q.3. 169-172]

2.1.17. Grin fkutsiyasining xossalari. **(1 soat)**

[A1,170-174. Q.3.173-176]

2.1.18. Laplas tenglamasi uchun Dirixle va Neyman masalalari qo‘yilishi va ular yyechimlarining yagonaligi. Dirixle masalasining Grin funktsiyasi va uning xossalari.. **(2 soat)**

[A1, 174-179. Q.3.178-182]

2.1.19. Dirixle masalasining shar uchun yechilishi. Sharning tashqarishi uchun Dirixle masalasi **(2 soat)** .

[A1, 179-181. Q.3.184-190]

2.1.20. O‘rta qiymat haqidagi teoremaga teskari teorema.Chetlashtiriladigan maxsuslik haqidagi teorema. Garnak tengsizligi. Liuvall va Garnak teoremalari. Doira uchun Drixle masalasini Fure usuli bilan yechish.. **(2 soat)**.

[A1, 181-187. Q.3. 184-193]

2.1.21. Potentsiallar nazariyasi. Potentsiallar tushunchasi va ularning fizik ma’nosi. Parametrga bog‘liq bo‘lgan xosmas integrallar.Hajm potentsiali. Lyapunov sirtlari va egri chiziqlari. Teles burchak. Gauss integrali. **(2 soat)** .

[A1,187-188. Q.3. 191-193]

2.1.22. Potentsiallar nazariyasi. Potentsiallar tushunchasi va ularning fizik ma’nosi. **(1 soat)** . [A1, 188-192. Q. 3. 196-199]

2.1.23. Chegaraviy masalalarni potentsiallar yordamida integral tenglamalarga keltirishi.

(2 soat).[A1, 195-199. Q. 3. 200-202].

2.2. Amaliy mashg‘ulotlar mazmuni (jami 48 soat)

2.2.1. Xususiy hosilali differentsial tenglamalar (x.h.d.t) va ularning yechimi to‘g‘risida tushuncha. **(2 soat)** [A.3. 5-9. Q.4. 3-7]

2.2.2. Xarakteristik forma tushunchasi ikkinchi tartibli differentsial tenglarining klassifikatsiyasi va kanonik ko‘rinishi **(2 soat).**

[A.3. 25-30. Q.4.13-15].

2.2.3. Ikkinchi tartibli ikki o‘zgaruvchili differetsial tenglamalarni kanonik ko‘rinishga keltirish **(2 soat).**

[A3.31-33. Q.4.16-17].

2.2.4. Matematik fizikaning asosiy tenglamalariga keladigan kizika va mexanikaning ayrim masalalari

Tor tebranishi tenglamasi.

Issiqlik tarqalishi tenglamasi. **(2 soat)**

[A.3.35-36. Q.4. 18-19;].

2.2.5. Ikkinchi tartibli x.h.d.t.lar uchun chegaraviy masalalarning qo‘yilishi. **(2 soat).** [A.3.37-39. Q.4.22-24;].

2.2.6. . Elliptik tipdagi tenglamalar uchun chegaraviy masalalar. **(2 soat).**

[A.3.41-42. Q.25-26].

2.2.7. To‘lqin tenglamasi uchun Koshi masalasi yechimining yagonaligi. Koshi masalasi yechimini beradigan formulalar va ularni tekshirish. Gyugens printsipi. **(2 soat).**

[A.3. 43-44.Q.27-29;].

2.2.8. Korrekt qo‘yilgan masala tushunchasi. Korrekt qo‘yilmagan masalalarga misollar. Adamar misoli. **(2 soat).** [A.3.45-47. Q.4.30-31].

2.2.9. Giperbolik tipdagi tenglamalar. Tor tebranishning tenglamasiga qo‘yilgan Koshi masalasi. Dalamber formulasi. **(2 soat).**

[A.3.48-49. Q4. 30-31].

2.2.10. To‘liq tenglamasiuchun Koshi masalasi yechimining yagonaligi. Koshi masalasi yechimini beradigan formulalar. Tushinish metodi. **(2 soat).**

[A.3.51-53. Q.4.34-35].

2.2.11. Bir jinsli bo‘lmagan to‘lqin tenglamasi. Fazoviy, o‘zgaruvchilar uchga teng bo‘lgan hol. Kyechikuvchan potentsial. **(2 soat).**

[A.3.54-55. Q.4.35-37].

2.2.12. Koshi va Gursa masalalari umumiy qo‘yilgan Koshi masalasining yechilishi. **(2 soat).** [A3, 355-573. Q.4.38-39].

2.2.13. Elleptik tipdagi tenglamalar Garmonik funktsiyalarning va garmonik funktsiyalarning integral ifodasi. **(2 soat).** [A1, 118-125; A4.40-45; A7.56-60; Q1.292-294; Q3.262-264; Q4.85-88; A13.109-112].

2.2.14. O‘rta qiymat haqida teorema. Ekstremum printsipi. **(2 soat).**

[A.3.60-62. Q.4.46-48].

2.2.15. Kelvin teoremasi. Kelvin almashtirish. **(2 soat).**

[A.3.60-62. Q4-46-48].

2.2.16. Laplas tenglamasi uchun Dirixle va Neyman masalalari. Grin funktsiyasi. **(2 soat)** . [A363-64. Q.4.49-51]

2.2.17. Grin fkutsiyasining xossalari. **(2 soat)**

(A3.65-66. Q. 4. 52-53]

2..18. Dirixle masalasining shar uchun yechilishi. **(2 soat)**

[A3,66-67. Q4.56-58]

2.2.19. Sharning tashqarishi uchun Direxle masalasi **(2 soat)** .

[A3,68-69. Q.4.57-58]

2.2.20. Yarim fazo uchun Drixle masalasini yechish. **(2 soat)** .

[A.3.70-72. Q.4. 60-62]

2.2.21. Garnak tengsizligi. Liuvall va Garnak teoremalari **(2 soat)** .

[A3. 73-75. Q4. 63-64]

2.2.22. Potentsiallar nazariyasi. Potentsiallar tushunchasi va ularning fizik ma'nosi. **(2 soat)** . [A.3.84-86. Q.4.66-68]

2.2.23. Parametrga bog'liq bo'lgan xosmas integral. **(2 soat)** .

[A.3. 88-89. Q.4. 70-71].

2.2.24..Xususiy hosilali differentsial tenglamalar yechimining silliqligining xususiyati to'g'risida [A.3. 124-126. Q.4. 75-77]. **(2 soat)**

2.3.Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakli va mazmuni

Mustaqil fan bo'yicha jami 94 soat ajratilgan ushbu soatlar taxminan qo'yilgan tartibda taqsimlangan.

-ma'ruza konspektini o'qib tayyorlash 58 soat

-amaliy mashg'ulotlar bo'yicha uy vazifalarni yechish 36 soat.

Amaliy mashg'ulotlarda nazariy bilimlar mavzuga oid masalalar yechish orqali mustaxkamlanadi.

Qoldirilgan darslarni topshirish uchun talaba dars materialini tayyorlab kelish va o'qituvchining suhbatidan o'tishi zarur. Qoldirilgan ON va JN lar tartib bilan topshiriladi.

Talabalar mustaqil ta'limining mazmuni va hajmi

(Ma'ruza va amaliy mashg'ulot)

Ishchi o'quv dasturining mustaqil ta'limga oid bo'lim va mavzulari	Mustaqil ta'limga oid topshiriq va tavsiyalar	Bajarilish muddatlari	Hajmi (soatda)
Koshi-Gursaning birinchi va ikkinchi masalalari	Koshi-Gursaning birinchi va ikkinchi masalalari oid teoremalar isbotini o'rganish	2-4-haftalar	8
Doiraviy membrana tebranish tenglamasi uchun birinchi aralash masalani Fure metodi bilan yechish	Doiraviy membrana tebranish tenglamasi uchun birinchi aralash masalani Fure metodi bilan yechish masalasi yagonaligini o'rganish	2-3 haftalar	8
Koshi masalasining umumiy qo'yilishi va uni tor tebranish tenglamasi uchun yechish	Echimning yagonaligini o'rganish	4-hafta	8
Statsionar va nostatsionar fizik jarayonlar, balans tenglamalari.	Impuls saqlash qonuni va boshqa saqlash qonuni	4-5 haftalar	8
Xususiy xosilali differentsial tenglamalarning xarakteristik formusi (tenglamasi)	Yuqori tartibli x.h.d.t.lar uchun xarakteristik tenglama	6-7-haftalar	8
Matematik fizikaning asosiy tenglamalari, ularning tiplari.	Ikki o'zgaruvchili 2-tartibli x.h.d.t	8-9haftalar	8
X.h.d.tlarning umumiy va umumlashgan yechimi to'g'risida	Klassik yyechim va umumlashgan yyechim haqida	10-hafta	8

Korrekt qo‘yilgan masalalar haqida	Nokorrekt qo‘yilgan masalalarga misollar.	11-12 haftalar	6
Geperbolik tipdagi tenglamalar va ularga qo‘yiladigan asosiy chegaraviy masalalar.	Tebranish va to‘lqin tenglamasi	19 hafta	6
Parabolik tipdagi tenglamar va ularga qo‘yiladigan asosiy chegaraviy masalalar.	Issiqlik tarqalishi texnologiyasi	20-21 haftalar	6
Elliptik tipdagi tenglamalar va ularga qo‘yilgan asosiy chegaraviy masalalar	Laplas va Puassan tenglamlari	22-26 haftalar	6
Potentsiallar nazariyasi va ularning chegaraviy masalalarni o‘rganishdagi o‘rni.	Oddiy qatlamli ikkilangan qatlamli, hajmi potentsiallari	26-32 haftalar	6
Xususiy hosilali differentsial tenglamalarni chekli ayirmalar bilan almashtirib yechish		33-35 haftalar	4
Jami			**90**

Izoh. Qoldirilgan darslarni topshirish uchun talaba dars materialini tayyorlab kelishi va o‘qituvchining og‘zaki suhbatidan o‘tishi zarur. Qoldirilgan ON va YaN lar belgilangan tartib bo‘yicha topshiriladi.

4. Reyting nazoratlari grafigi

Fan bir o‘quv yilida va bir semestrda o‘qitiladi. Elektron ta’lim tizimi talablaridan kelib chiqqan holda bitta blok-moduldan iborat va quyidagi reyting nazoratlari grafigi belgilandi:

№	**Reyting nazorat G’shakli, maksimal ballari**	**1-ON**	**2-ON**	**YaN**
1.	**Maksimal baho**	**5**	**5**	**5**
2.	**Shakli: (og‘zaki, test, yozma)**	Og‘zaki(3 tadan uslubiy topshiriq berladi. Har bir top-shiriq 5 baho)	Og‘zaki (3 tadan uslubiy topshiriq berladi. Har bir topshiriq 5 baho)	Yozma (3 savol, xar bittasi 5 baho)
3.	**Muddati (haftalarda)**	**7(24)**	**12(30)**	**21(37)**

KUZGI SEMESTR

№	Sentyabr	Oktyabr	Noyabr	Dekabr	Yanvar	

			2-5	7-12	14-19	21-26	28-3	5-10	12-17	19-24	26-31	2-7	9-14	16-21	23-28	30-5	7-12	14-19	21-26	28-2	4-9	11-16	18-23	25-30	
			1	**2**	**3**	**4**	**5**	**6**	**7**	**8**	**9**	**10**	**11**	**12**	**13**	**14**	**15**	**16**	**17**	**18**	**19**	**20**	**21**	**22**	
1	ON	Yozma ish									5								5						**5**
		Mustaqil ta'lim																							
2	YaN																								**5**
	Jami																								

Baholash mezonlari:

1. Laboratoriya mashg'ulotlarini bajarishda olingan baholar oraliq nazoratda inobatga olinadi.
2. Oraliq nazorat yozma (3 savol, xar bittasi 5 bahodan baholanadi) shaklda o'tkaziladi. Barcha sovollarga to'g'ri javob yozilsa 5 baho bilan baholanadi.
3. Yakuniy nazorat variantlari ma'ruza va laboratoriya mashg'ulotlar mavzularini qamrab olgan holda shakllantiriladi. 3 ta savoldan iborat variantlar asosida yozma ish o'tkazilib, har bir savol 5 baho bilan baholanadi va 3 ta savol bo'yicha o'rtacha chiqqan baho bilan baholanadi.

Talabalarni o'zlashtirishini baholash:

5 baho "a'lo"

- fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtira olish;
- fanga oid asosiy ko'rsatgichlarni bilish va baholash;
- berilgan savolarga batavsil javob berish va mazmunini to'la yoritish;
- fikrni ilmiy-nazariy adabiyotlar yordamida asoslash;
- barcha amaliy ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish;
- nazariy bilimlarni turli vaziyatda qo'llay olish;
- tizimli yondoshish, uzviylikka amal qilish.

4 baho "yaxshi"

- fanga oid asosiy ko'rsatgichlarni bilish va baholash;
- fanga oid asosiy ko'rsatgichlarni bilish va baholash;
- tizimli yondoshish, uzviylika amal qilish;
- asosiy amaliy ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish;
- nazariy bilimlarni turli vaziyatda u yoki bu qo'llay olish darajada.

3 baho "qoniqarli".

- fanga oid asosiy ko'rsatgichlarni bilish va baholash;
- fanda tizimli yondosha olmaslik;
- ayrim amaliy ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish;
- nazariy bilimlarni turli vaziyatda u yoki bu qo'llay olish darajada.

2 baho "qoniqarsiz".

- O'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil fikr yurita olmaslik;
- fanda tizimli yondosha olmaslik;
- asosiy amaliy ko'nikma va malakalarni o'zlashtira olmaslik.

5. INFORMATsION-USLUBIY TA’MINOT

5.1. ASOSIY ADABIYoTLAR

№	Muallif, adabiyot nomi, turi, nashriyot, yili, xajmi	Kutubxonada mavjud nusxasi
1.	Wolter. A. Stranss. Partial differential equations. An introduction Birkhaazer. Germany, 2005.	Elektron nusha
2.	Saloxitdinov M.S. Matematik fizik tenglamalari. T. O‘zbekiston, 2002, 448 bet	50
3.	Bitsadze A. V., Kalinichenko D. F., Sbornik zadach po uravneniyam matematicheskoy fiziki M. Izd-vo MGU. 2004.	4
4	Saloxitdinov M.S. Islomov B. “Matematik fizik tenglamalari” fanidan masalalar to‘plami. Toshkent. O‘zbekiston, 2010, 3728 bet	16

5.2. QO‘ShIMChA ADABIYoTLAR

№	Muallif, adabiyot nomi, turi, nashriyot, yili, xajmi	Kutub-xonada mavjud nusxasi
1.	Tixonov A.N. Samarskiy A.A. Uravneniya matematicheskoy fiziki. M. 1968. 708 str.	14
2.	Vladimirov V.S. Uravneniya matematicheskoy fiziki. M. 1981 g. 540 str.	16
3.	Urinov A va boshqalar. Matematik fizik tenglamalari fanidan masalalar to‘plami. Farg‘ona 2008 yil. 180 bet	2
4.	Smirnov M. M., Sbornik zadach po uravneniyam matematicheskoy fiziki	4
5.	http:G’G’www.nsu.ruG’icemG’grantsG’etfmG’ ;	
6.	http:G’G’www.lib .homelinex.orgG’mathG’;	
7.	http:G’G’www.eknigu.comG’libG’mathematicsG’;	
8.	http:G’G’www.eknigu.comG’infoG’M_MathematicsG’MC	
9.	http:G’G’www.rsl.ruG’ - Rossiyskaya gosudarstvennaya biblioteka;	
10.	http:G’G’www.msu.ruG’ - Moskovskiy gosudarstvenno‘y universitet;	
11.	http:G’G’www.nlr.ruG’ - Rossiyskaya natsionalnaya biblioteka;	
12.	http:G’G’www.el.tfi.uzG’pdfG’enmcoq22.uzk.pdf ;	
13.	http:G’G’www.el.tfi.uzG’pdfG’enmcoq22.uzl.pdf ;	

“Tasdiqlayman”
matematika kafedrasi
mudiri
___________D.Turdiboy
ev
«____» __________ 2020
y.

Fan dasturi bajariliishining kalendar rejasi

Ma’ruza mashg‘ulotlari 2020-2021 o‘quv yili
Fakultet: Fizika-matematika *Yo‘nalish:5130100*- matematika
Guruhlar: 5-18, 6-18,7-18, 1-semestri.
Fanning nomi**: Xususiy hosilali differentsial tenglamalar**.
Ma’ruza mashg‘ulotlari: J.Raxmanov
Amaliy mashg‘ulotlari o‘qituvchisi:Rahmonov J.T.,Xidirova Sh.

№	Mavzular nomi	Reja bo‘yicha ajratil gan hajm	Amalda bajarilishi		O‘qituvchi imzosi
		soat	soat	sana	
1	Xususiy hosilali differentsial tenglamalar (x.h.d.t) va ularning yechimi to‘g‘risida tushunchalar.	2			
2	Xarakteristik forma tushunchasi ikkinchi tartibli differentsial tenglarining klassifikatsiyasi va kanonik ko‘rinishi.	2			
3	Yuqori tartibli differentsial tenglamalar va sistemalarining klassifikatsiyasi.Ikkinchi tartibli ikki o‘zgaruvchili differetsial tenglamalarni kanonik ko‘rinishga keltirish	2			
4	Matematik fizikaning asosiy tenglamalariga keladigan kizika va mexanikaning ayrim masalalari.Tor tebranishi tenglamasi.Issiqlik tarqalishi tenglamasi. Statsionar tenglamalar: Moddiy nuqtaning og‘irlik kuchi ta’siridagi harakati	2			
5	Matematik fizika tenglamalari uchun asosiy masalalarni qo‘yilishi. Koshi masalasi. Chegaraviy masalalar va boshlang‘ich chegaraviy masalalar. Koshi masalasi va uni qo‘yilishida xarakteristikalarning roli. Korrekt qo‘yilgan masala tushunchasi.	2			
6	Giperbolik tipdagi tenglamalar. Tor tebranishning tenglamasiga qo‘yilgan Koshi masalasi. Dalamber formulasi. Dalamber formulasi bilan topilgan yechimning fizik ma’nosi. Chegaralangan tor.	2			
7	To‘lqin tenglamasi uchun Koshi masalasi yechimining yagonaligi. Koshi masalasi yechimini beradigan formulalar va ularni tekshirish. Gyugens printsipi.	2			
8	To‘lqinlarning diffuziyasi.Bir jinsli bo‘lmagan to‘lqin tenglamasi. Kechikuvchan potentsial. Gursa masalasi.Asgeyrson printsipi.	2			
	Jami	**16**			

Kafedra mudiri ____________ D.Turdibayev.

Tuzuvchi: ____________ J.Raxmanov
Kalendar reja bajarilishi haqida kafedra mudiri xulosasi.

____

____

____(imzo) F.I.Sh

«Tasdiqlayman»
Matematika kafedrasi mudiri
____________D. Turdiboyev
«____» ___________ 2020y.

Fan dasturi bajariliishining kalendar rejasi

Amaliy mashg‘ulotlari 2020-2020 o‘quv yili
Fakultet: Fizika-matematika *Yo‘nalish:5130100*- matematika
Guruhlar: 5-18, 6-18,7-18, 1-semestri.
Fanning nomi**: Xususiy hosilali differentsial tenglamalar**.
Ma’ruza mashg‘ulotlari: J. Raxmanov
Amaliy mashg‘ulotlari o‘qituvchisi:Rahmonov J.T.,Xidirova Sh.,

№	Mavzular nomi	Reja bo‘yicha ajratilgan hajm	Amalda bajarilishi		O‘qituvchi imzosi
		Soat	soat	sana	
1	Xususiy hosilali differentsial tenglamalar va ularning klassifikatsiyasi	2			
2	Ikki o‘zgaruvchili ikkinchi tartibli xususiy hosilali differentsial tenglamalarni klassifikatsiyalash va kanonik ko‘rinishga keltirish.	2			
3	Uch o‘zgaruvchili ikkinchi tartibli xususiy hosilali differentsial tenglamalarni klassifikatsiyalash va kanonik ko‘rinishga keltirish.	2			
4	Giperbolik tipdagi tenglamalarning umumiy yechimlarini topish.Xarakteristikalar usuli	2			
5	Giperbolik tipdagi tenglamalarning umumiy yechimlarini topish	2			
6	To‘lqin tenglamasi uchun Koshi masalasi	2			
7	To‘lqin tenglamasi uchun Koshi masalasi. Bir jinsli bo‘lmagan tenglama yechimi	2			
8	Giperbolik tipdagi tenglamalar uchun chegaraviy masalalar echish usullari: berilganlarni davom ettirish usuli.	2			
	Jami	**16**			

Kafedra mudiri ____________ D.Turdibayev.

Tuzuvchi: ____________ J.Raxmanov
Kalendar reja bajarilishi haqida kafedra mudiri xulosasi.
____
____
____(imzo) F.I.Sh

«Tasdiqlayman»
Matematika kafedrasi mudiri
___________D. Turdiboyev
«____» __________ 2020 y.

Fan dasturi bajariliishining kalendar rejasi

Ma’ruza mashg‘ulotlari 2020-21 o‘quv yili

Fakultet: Fizika-matematika *Yo‘nalish:5130100*- matematika
Guruhlar: 5-18, 6-18,7-18, 2-semestri.
Fanning nomi**: Xususiy hosilali differentsial tenglamalar**.
Ma’ruza mashg‘ulotlari: J.Raxmanov
Amaliy mashg‘ulotlari o‘qituvchisi:Rahmonov J.T.,Xidirova Sh.

№	Mavzular nomi	Reja bo‘yicha ajratilgan hajm	Amalda bajarilishi		O‘qituvchi imzosi
		soat	soat	sana	
1	*Qo‘shma differentsial operatorlar. Riman usuli. Aralash masalalar*	2			
2	*Tor tebranish tenglamasi uchun birinchi chegaraviy masalani Furye metodi bilan yechish.* Xos sonlar va xos funktsiyalar masala yechimining yagonaligi	2			
3	Bir jinsli bo‘lmagan tenglama. To‘g‘ri to‘rtburchakli membrana tebranish tenglamasi uchun aralash masalani yechish.	2			
4	Parabolik tipdagi tenglamalar. Issiqlik tarqalish tenglamasi. Ekstremum printsipi.	2			
5	Birinchi chegaraviy masala yechimining yagonaligi. Koshi masalasi va uning yechimi yagonaligi va turg‘unligi.	2			
6	Fundamental yechim.Koshi masalasi yechimining mavjudligi. Bir jinsli bo‘lmagan tenglama uchun Koshi masalasi.	2			
7	Bir o‘lchovli isssiqlik tarqalish tenglamasi uchun birinchi chegaraviy masalani Fure usuli bilan echish. Bir jinsli bo‘lgan va bir jinsli bo‘lmagan hol. Koshi masalasini Fure usuli bilan echish.	2			
8	Elliptik tipdagi tenglamalar Garmonik funktsiyalar.Laplas tenglamasining fundamental yechimi. Grin formulalari. S^2 sinf funktsiyalari va garmonik funktsiyalarning integral ifodasi.	2			
9	O‘rta qiymat haqida teorema. Ekstremum printsipi va undan kelib chiqadigan ayrim natijalar. Kelvin teoremasi. Kelvin almashtirishi	2			

10	Laplas tenglamasi uchun Dirixle va Neyman masalalari qo‘yilishi va ular yechimlarining yagonaligi. Dirixle masalasining Grin funktsiyasi va uning xossalari.	2			
11	Dirixle masalasining shar uchun echilishi. Sharning tashqarishi uchun Dirixle masalasi	2			
12	O‘rta qiymat haqidagi teoremaga teskari teorema.Chetlashtiriladigan maxsuslik haqidagi teorema. Garnak tengsizligi. Liuvall va Garnak teoremalari. Doira uchun Drixle masalasini Fure usuli bilan echish.	2			
13	Potentsiallar nazariyasi. Potentsiallar tushunchasi va ularning fizik ma’nosi. Parametrga bog‘liq bo‘lgan xosmas integrallar.Hajm potentsiali. Lyapunov sirtlari va egri chiziqlari. Teles burchak. Gauss integrali.	2			
14	Ikkilangan qatlam potentsiali .Oddiy qatlam potentsiali va uning normal xosilasi.	2			
15	Chegaraviy masalalarni potentsiallar yordamida integral tenglamalarga keltirishi. Xususiy hosilali differensial tenglamalar yechimining yagonaligi.	2			
	Jami	**30**			

Kafedra mudiri ___________ D.Turdibayev.

Tuzuvchi: ___________ J.Raxmanov .
Kalendar reja bajarilishi haqida kafedra mudiri xulosasi.

____
____
____(imzo) F.I.Sh

«Tasdiqlayman»
Matematika kafedrasi mudiri
___________D. Turdiboyev
«____» __________ 2020 y.

Fan dasturi bajariliishining kalendar r ejasi

Amaliy mashg‘ulotlar 2020-21 o‘quv yili.
Fakultet: Fizika-matematika *Yo‘nalish:5130100*- matematika
Guruhlar: 5-18, 6-18,7-18, 2-semestri.
Fanning nomi**: Xususiy hosilali differentsial tenglamalar**.
Ma’ruza mashg‘ulotlari: J.Raxmanov
Amaliy mashg‘ulotlari o‘qituvchisi:Rahmonov J.T.,Xidirova Sh.

№	Mavzular nomi	Reja bo‘yicha ajratil gan hajm	Amalda bajarilishi		O‘qituvchi imzosi
		Soat	soat	sana	

1	Riman funktsiyasi	**2**			
2	Chegaraviy masalalarni Fure usuli bilan yechish.	**2**			
3	Chegaraviy masalalarni Fure usuli bilan yechish. Xos sonlar va xos funksiyalar	**2**			
4	Giperbolik tipdagi tenglama yechimining xossalarini tekshirish	**2**			
5	To‘lqin tarqalish tenglamasi uchun ba’zi masalalarning korrektligi.	**2**			
6	Parabolik tipdagi tenglamalar uchun Koshi masalasi.	**2**			
7	Asosiy chegaraviy masalalarni berilganlarni davom ettirish usuli bilan echish.	**2**			
8	Chegaraviy masalalarni Furye usuli bilan yechish.	**2**			
9	Chegaraviy masalalarni Fure usuli bilan yechish.(Parabolik tipdagi tenglamalar bo‘lgan hol.).	**2**			
10	Garmonik funktsiyalar va ularning xossalariga oid masalalar yechish	**2**			
11	Laplas tenlamasi uchun ichki Dirixle va Neyman masalalari.	**2**			
12	Laplas tenlamasi uchun tashqii Dirixle va Neyman masalalari.				
13	Laplas va Puasson tenlamalari uchun sharda Dirixle va Neyman masalasini echish.	**2**			
14	Laplas va Puasson tenlamalari uchun sharda Neyman masalasinini yechish.	**2**			
15	Garmonik funktsiyalar uchun ba’zi masalalar. Potentsiallar. Elliptik tenglama yechimining xossalari.	**2**			
	Jami	**30**			

Kafedra mudiri ____________ D.Turdibayev.

<u>1-MAVZU</u> O‘ZGARMAS KOEFFISIYENTLI IKKINCHI TARTIBLI CHIZIQLI TENGLAMALAR

Ma`ruzaga reja-topshiriqlar

Fan: Matematik fizika tenglamalari

O‘quv soati: 2 soat (ma`ruza);

O‘quv mashg’uloti turi: ma`ruza; yangi bilimlarni mustahkamlash va o‘rganish.

Ma`ruza rejasi:

1. Asosiy ta’riflar.
2. 1-tartibli kvazichiziqli tenglamalar.
3. Misollar.
4. Ta’rif.
5. Kanonik ko‘rinishga keltirish.

O‘quv mashg’uloti maqsadi:

O‘quv fani to‘g’risida umumiy ta`surotlar berish, Xususiy hosilali tenglamalarva keyinchalik kasbiy faoliyatidagi roli.

O‘quv mashg’uloti masalalari:

- *O‘rgatuvchi*: talabalarda qabul qilish faoliyatini tashkil qilish, yangi materialni boshlang’ich esda qoldirish va anglash; Matematik fizika tenglamalarining terminlari, iboralarini xarakterlovchi elementlar; talabalarning matematik firlashini rivojlantirish muammoli masalalarni yechimini mahoratini oshirish; matematik masalalarni yechishda matematik simvollarning hususiyatlari bilan tanishtirish;
- *Rivojlantiruvchi*: kitob matni bilan ishlay bilishligi – mag’zlarini tanlab olish, tahlil qilish; gaplar tuzish, hulosa chiqarish, materialni talabalarning izlash faoliyatini stimullashtirish; hususiydan umumiy holga o‘tish usuli bilan tekshirish; tekshirish natijalarini tahlil qilib va uni umumlashtira olishini rivojlantirish; analitik-sintetik faoliyatning mantiqiy fikrlashini qo‘llash; talabalarning ijodiy mahoratini shakillantirish;
- *Tarbiyalovchi:* aktiv faoliyatga, mustaqil ishga jalb qilish; guruhlarda ishlash qoidalariga rioya qila olish; fanni o‘rganishga qiziqishni rivojlantirish; Matematik fizika tenglamalarini matematik-komunikativ kursni bir qismi sifatida tassavur berish; javobgarlik tuyg’ularini tarbiyalash, mehnatsevarlik, individual ishni jamoaviy ish bilan biriktirish, intizomlashtirish.

O‘qitish texnologiyasi:

- *O‘qutish usullari*: instruktaj; Ma`ruza, aqliy hujum, “Insert” texnikasi;
- *O‘qitish shakillari*: frontal; jamoaviy;
- *O‘qitish vositalari*: Ma`ruza matni; jadvallar, multimediya;
- *O‘qitish sharoitlari*: texnik jihozlashtirilgan auditoriya;
- *Baholash va monitoring*: o‘g’zaki savol-javob, blits-so‘rov.

Pedagogik masalalar:

- Fanning masalalari va uning o‘quv fanlar sistemasidagi o‘rni va roli bilan tanishtirish;
- O‘quv fanning tuzulmasi va tavsiya etiladigan o‘quv-metodik adabiyotlarni tasvirlash;

- Fan sohasida metodik va tashkiliy xususiyatlarini ochib berish, baholash shakli va muddatlari;
- Fan ma`ruzasi paytida o‘qitish jarayonini tashkil qilishning umumiy bosqichlarini xarakterlab berish va umumiy sxemasini tushuntirish.
- O‘qitish texnologiyasi rivojlanishi perspektivasini xarakterlab berish;

O‘quv faoliyati natijalari:

- Fan ma`ruzasi masalalari, maqsadlari va nomlari shakillanadi;
- Xususiy hosilali tenglamalardoirasidagi yutuqlar yoritiladi;
- Fan sohasida metodik va tashkiliy xususiyatlari hamda baholash shakli va muddatlari aytiladi
- Fan ma`ruzasida o‘qitish jarayonini tashkil qilishning umumiy sxemasini kengaytirib xatakterlab beradi;
- Fanning asosiy ta`riflarini beradi, Xususiy hosilali tenglamalarfani ma`ruzalarining asosiy yo‘nalishlari beriladi;
- Nazariy bilimlarning to‘liqligi, sistemaliyligi va harakatliyligi;
- Amaliy mag’ulotlarni bajarishda o‘rganilgan iboralarbilan ishlay olishligi;

- **1.2. Ma`ruzaning xronologik xaritasi**

- **1 bosqich. O‘quv mashg’ulotiga kirish (10 daqiqa):**

- *O‘qituvchining faoliyati*: tayyorgarlikni tekshirish (davomat, konspektning borligi; o‘ziga ishonch, aniqligi,); kerakli materiallarni tarqatish (konspekt, tarqatma materiallar); ma`ruzaning mavzusi va maqsadini bayon qilish; o‘quv mashg’ulotning rajasi bilan tanishtirish; kalit iboralar va so‘zlar, kategoriyalar; internet saytlari va adabiyotlar ro‘yhati; o‘quv natijalari haqida aytish;
- *Talabalar faoliyati*: o‘quv joyini tayyorlash (talabalar borligi; tashqi ko‘rinish; o‘quv materiallar va qo‘llanmalar); ma`ruzaning mavzusi va maqsadi bilan tanishish; o‘quv materialini qabul qilishga tayyorgarlik ko‘rish;
- *Shakillar, usular, uslublar*: instruktaj; frontal so‘rov; mustahkamlovchi so‘rov.

2 bosqich. Asosiy qism (60 daqiqa):

- *O‘qituvchining faoliyati*: mavzuga kiritadi; yangi mavzuga doir o‘tgan fanlar va mashg’ulotlarning mavzularini eslashga chorlaydi; ma`ruza matnini tarqatadi, tanishishni taklif etadi, “Insert” usuli bilan belgilar qo‘yishni taklif etadi; birinchi savol bo‘yicha matn o‘qiladi; qo‘shimcha o‘quv materiallarini aytib boorish va tushuncha berish; natural obektlarni namnoyon qilish va izohlash; tushunarsiz savollarni aniqlash va tushintirish; birinchi savol bo‘yicha nazar (shunday qilib qolgan savollarga ham);
- *Talabalar faoliyati*: yangi mavzuda doir oldingi mashg’ulotlarda va fanlarda olgan bilimlarni mustahkamlaydi,; har bir kalit ibora va terminlarni eshitib, yozib borib, konspekt qilib aytib borishadi; “Insert” usuli bilan belgilan o‘qiydilar, aniqlik kiritadilar, savollar beradilar va o‘zaro;
- *Shakllar, usular, uslublar*: frontav so‘rov blits-so‘rov; aqliy hujum, “Insert” texnikasi.

3 bosqich. Yakunlovchi qism (10 daqiqa)

- *O‘qituvchining faoliyati:* mavzu bo‘yicha hulosa qilish, talabalarning e`tiborlarini asosiylarda jalb qilish; qilingan ishning muhimligini aytib o‘tish; alohida talabalarning bajarilgan ishlarini baholash; o‘zaro baholashning natijalarini chiqarish; o‘quv mashg’ulotning yutuqlik darajasini baholash va tahlil qilish; mustaqil ish uchun topshiriqlar; baho ko‘rsatgichlari va me`zonlari;

- *Talabalar faoliyati: ishning* tahlili; natijalarni olish; texnologik bilimlarni qo‘llash; o‘zaro baholashni o‘tkazish, yo‘l qo‘yilgan hatolar bo‘yicha tahlil va aniqlik kiritish; mustaqil ish topshiriqlarini yozib olish;
- *Shakillar*, *usular*, *uslublar*: guruhlarda ishlash, kartochkalarda topshiriqlar.

1.3. O‘quv-metodik materiallar

Ma`ruza rejasi:

1. Asosiy ta’riflar.
2. 1-tartibli kvazichiziqli tenglamalar.
3. Misollar.
4. Ta’rif.
5. Kanonik ko‘rinishga keltirish.

Kalit so‘zlar: Xususiy xosilali differensial tenglama, tenglamaning tarbibi, kvazichiziqli tenglamalar, yechim, Koshi masalasi, ikkinchi tartibli xususiy xosilali tenglama

1.3.1. Ma`ruza matni

1. Asosiy ta’riflar

Xususiy xosilali differensial tenglama deb bir nechta o‘zgaruvchili noma’lum funksiyaga , uning argumentlari va turli tartibli xususiy xosilalariga nisbatan tenglamalarga aytiladi. Agar noma’lum funksiya n o‘zgaruvchiga bog’lik bo‘lsa, ya’ni $u = u(x_1, x_2, ..., x_n)$ bo‘lsa u xolda, xususiy xosilali differensial tenglama

$$F\left(x_1, x_2, ..., u, \frac{\partial u}{\partial x_1}, \frac{\partial u}{\partial x_2}, ..., \frac{\partial u}{\partial x_n}, ..., \frac{\partial^m u}{\partial x_1^{k_1} ... \partial x_n^{k_n}}\right) = 0$$

ko‘rinishga ega, bu yerda $k_1 + \ldots + k_n = m$, F – berilgan funksiyalar. Xususiy xosilali differensial tenglamaning **tartibi** deb bu tenglamaga kiruvchi xosilalarning eng yuqori tartibiga aytiladi . n -tartibli tenglama tartibi n dan katta bo‘lmagan xususiy xosilalarga ega bo‘ladi. Xususiy xosilali chiziqli tenglama

$$a_1(x_1, ..., x_n)\frac{\partial u}{\partial x_1} + ... + a_n(x_1, ..., x_n)_1 \frac{\partial u}{\partial x_n} +$$

$$+ b_1(x_1, ..., x_n)\frac{\partial^2 u}{\partial x^2} + ... + b_n(x_1, ..., x_n)\frac{\partial^2 u}{\partial x_n^2} = f(x_1, ..., x_n, u).$$

ko‘rinishga ega.   Masalan

$$x\frac{\partial z}{\partial x}+y\frac{\partial z}{\partial y}+xyz=1,$$

$$\frac{\partial^2 z}{\partial x\partial y}=0,$$

$$(x+\frac{\partial z}{\partial y})\frac{\partial^2 z}{\partial x\partial y}+\frac{\partial z}{\partial y}+z=0$$

tenglamalar chiziqli bo‘ladi.

2. Birinchi tartibli kvazichiziqli tenglamalar

Kvazichiziqli tenglamalar

$$a_1\left(x_1,...,x_n,u\right)\frac{\partial u}{\partial x_1}+...+a_n\left(x_1,...,x_n,u\right)_1\frac{\partial u}{\partial x_n}=f\left(x_1,...,x_n,u\right). \quad (1.1)$$

ko‘rinishga ega. Agar $f\left(x_1,...,x_n,u\right)\neq 0$ bo‘lsa u xolda tenglama bir jinsli tenglama bo‘lmaydi, aks xolda $f\left(x_1,...,x_n,u\right)$=0 bo‘lsa, tenglama bir jinsli tenglama bo‘ladi. (1.1) tenglama yechish uchun

$$\frac{dx_1}{a_1}=\frac{dx_2}{a_2}=...=\frac{dx_n}{a_n}=\frac{du}{f} \quad (1.2)$$

sistemani tuzamiz. (1.2) sistemani yechish jarayonida n ta birinchi integrallar xosil qilamiz: $\varphi_i(x_1,...,x_n,u)=C_i, i=1,...,n$.

Tenglamani yechimini quyidagi $F(\varphi_1,...,\varphi_n)=0$ funksiya beradi, bu yerda $F(\varphi_1,...,\varphi_n)$ ixtiyoriy o‘z argumentlari bo‘yicha differensiallanuvchi funksiya.

Teorema 1. (1) tenglama yechimi (2) oddiy differensial tenglamalar sistemasining yechimga teng kuchli, uning n ta birinchi integrallari har bittasi aloxida berilgan tenglamani yechimini beradi. Shunda $F(\varphi_1,...,\varphi_n)=0$ umumiy yechim bo‘ladi.

Teorema 2. $a_1\left(x_1,...,x_n\right)\frac{\partial u}{\partial x_1}+...+a_n\left(x_1,...,x_n,u\right)_1\frac{\partial u}{\partial x_n}=0$ bir jinsli tenglama yechish uchun oddiy differensial tenglamalar sistemasi tuziladi.

Bu sistemaning yechimlari (n-1)-ta birinchi integrallardan iborat bo‘ladi. Quyidagi tasdiq o‘rinli: agar

$\frac{a_1}{b_1}=\frac{a_2}{b_2}=...=\frac{a_n}{b_n}=t$ bo‘lsa, shunda ixtiyoriy k uchun

$$\frac{k_1a_1+...+k_na_n}{k_1b_1+...+k_nb_n}=t \qquad (3)$$

o'rinli.

3. Misollar

1-Misol. $y\frac{\partial z}{\partial x}-x\frac{\partial z}{\partial x}=0$ tenglamani yeching.

$\frac{dx}{y}=-\frac{dy}{x}$ sistemani tuzamiz. So'ngra

$$xdx+ydy=0,\frac{1}{2}x^2+\frac{1}{2}y^2=C,x^2+y^2=C$$

Umumiy yechimi $z=F(x^2+y^2)$ bo'ladi.

2-Misol. $xz\frac{\partial x}{\partial x}+yz\frac{\partial z}{xy}=-xy$ tenglamani yeching.

$\frac{dx}{xz}=\frac{dy}{yz}=-\frac{dx}{xy}$ sistemani tuzamiz.

$\frac{dx}{x}=\frac{dy}{y},\ln|x|=\ln|y|+\ln C_1$ tenglamani yechamiz,

undan $C_1=\frac{x}{y}$ ni topamiz.

(3) ayniyatdan foydalanib $\frac{k_1dx+k_2dy+k_3dz}{k_1xz+k_2yz-k_3xy}=\frac{dz}{-xy}$ ni olamiz.

Faraz qilaylik, masalan, $k_1=y,k_2=x,k_3=0$ bo'lsin, bu xolda

$$\frac{ydx+xdy}{yxz+xyz}=\frac{dz}{-xy},\frac{d(xy)}{2xyz}=-\frac{dz}{xy}.$$

So'ngra $d(xy)=-2zdz,xy=-z^2+C,C=xy+z^2$.

$F(x^2+y^2,xy+z^2)=0$ umumiy yechimni xosil qilamiz.

Chiziqli tenglamalar uchun Koshi masalasini yechimini qaraymiz

$$\begin{cases}x=x_0(t),\\ y=y_0(t),\\ z=z_0(t).\end{cases}$$

Farz qilaylik, $\varphi_1(x,y,z)=C_1$, $\varphi_2(x,y,z)=C_2$

ikkita birinchi integral topilgan bo'lsin. U xolda

$$\begin{cases}\Phi_1(t) = C_1, \\ \Phi_2(t) = C_2; \end{cases} \Leftrightarrow \quad \Phi(C_1, C_2) = 0$$

va izlanayotgan yechim $\Phi(\varphi_1, \varphi_2) = 0$ bo‘ladi.

3-Misol. $x = 2$ da $x\dfrac{\partial z}{\partial x} + y\dfrac{\partial z}{\partial y} = z - xy, z = y^2 + 1$ Koshi masalani yeching.

$\dfrac{dx}{x} = \dfrac{dy}{y} = \dfrac{dz}{z - xy}$ sistemani tuzamiz.

$\dfrac{dx}{x} = \dfrac{dy}{y}$ tenglamani yechimini izlasak, quyidagilarni xosil qilamiz:

$\ln|x| = \ln|y| + \ln C_1, \quad C_1 = \dfrac{x}{y}.$

Endi $\dfrac{dx}{x} = \dfrac{dz}{z - xy}$ tenglamani qaraymiz.

$\dfrac{k_1 dx + k_2 dy + k_3 dz}{k_1 xz + k_2 yz - k_3(z - xy)} = \dfrac{dz}{z - xy}$ ayniyatni tuzamiz.

$k_1 = y, k_2 = x, k_3 = 0$ bo‘lsin, u xolda

$$\frac{ydx + xdy}{2xy} = \frac{dz}{z - xy}, \frac{d(xy)}{2xy} = \frac{dz}{z - xy}, \frac{1}{2}\ln|xy| = \frac{dz}{z - xy}.$$

$xy = t, dt = xdy + ydx$ almashtirish kiritamiz.

$\dfrac{1}{2}\ln|t| = \dfrac{dz}{z - t}, \dfrac{1}{2}\ln|t| = \ln|z - t| + \ln C_2$ ni xosil qilamiz,

bundan $C_2 = \dfrac{t^2}{z - t} = \dfrac{x^2 y^2}{z - xy}$ ni topamiz. $F\left(\dfrac{x}{y}, \dfrac{x^2 y^2}{z - xy}\right) = 0$ umumiy yechimni xosil bo‘ladi.

$x = 2$ da

$z = y^2 + 1$ Koshi masalani qaraymiz

$$\begin{cases} 2y = C_1, \\ \dfrac{4y^2}{y^2 - 2y + 1} = C_2; \end{cases} \qquad \begin{cases} 2y = C_1, \\ \dfrac{4y^2}{(y - 1)^2} = C_2. \end{cases}$$

4. Ikkinchi tartibli o‘zgarmas koeffisiyentli chiziqli tenglamalar

Ikkinchi tartibli xususiy xosilali tenglama yuqori tartibli xosilalarga nisbatan chiziqli deyiladi, agar bu tenglama faqat birinchi tartibli xosilalarni o‘z ichida saqlasa.

$u = u(x.y)$ funksiyaga nisbatan ikkinchi tartibli xususiy xosilali differensial tenglama quyidagi umumiy ko‘rinishga ega:

$$a(x,y)\frac{\partial^2 u}{\partial x^2} + 2b(x,y)\frac{\partial^2 u}{\partial x \partial y} + c(x,y)\frac{\partial^2 u}{\partial y^2} + F(x,y,u,\frac{\partial u}{\partial x},\frac{\partial u}{\partial y}) = 0. \quad (1)$$

Agar $b^2 - ac > 0$ bo‘lsa , (1) tenglama giperbolik tipdagi tenglama (to‘lqin tenglama) , $b^2 - ac = 0$ bo‘lsa, parabolik tipdagi tenglama (issiqlik o‘tkazuvchanlik tenglamasi), $b^2 - ac < 0$ bo‘lsa, elliptik tipdagi tenglama (starsionar tenglama). (1) tenglamani yangi ξ va η o‘zgaruvchilarga formulalar bo‘yicha o‘tish yo‘li bilan kanonik ko‘rinishga keltirish mumkin.

x va y o‘zgaruvchilari bo‘yicha beriglan xosilalarni, ξ va η o‘zgaruvchilar bo‘yicha xosilalarga almashtiramiz. Matematik fizik tenglamalar kursi uchun xarakterli belgilashlarni kiritamiz:

$$u_x = \frac{\partial u}{\partial x}, u_y = \frac{\partial u}{\partial y}, u_{xx} = \frac{\partial^2 u}{\partial x^2}, u_{xy} = \frac{\partial^2 u}{\partial x \partial y}, u_{yy} = \frac{\partial^2 u}{\partial y^2}.$$

U xolda

$$\begin{aligned}
u_x &= u_\xi \xi_x + u_\eta \eta_x, \\
u_y &= u_\xi \xi_y + u_\eta \eta_y \\
u_{xx} &= u_{\xi\xi}\xi_x^2 + 2u_{\xi\eta}\xi_x\eta_x + u_{\eta\eta}\eta_x^2 + u_\xi \xi_{xx} + u_\eta \eta_{xx,} \\
u_{xy} &= u_{\xi\xi}\xi_x\xi_y + u_{\xi\eta}(\xi_x\eta_y + \xi_y\eta_x) + u_{\eta\eta}\eta_x\eta_y + u_\xi\xi_{xy} + u_\eta\eta_{xy} \\
u_{yy} &= u_{\xi\xi}\xi_y^2 + 2u_{\xi\eta}\xi_y\eta_y + u_{\eta\eta}\eta_y^2 + u_\xi\xi_{yy} + u_\eta\eta_{yy}
\end{aligned}$$

larni olamiz.

$\xi(x,y)$ va $\eta(x,y)$ funksiyalarni topish uchun

$$a(d\ \ y)^2 - 2bdxdy + c(dx)^2 + 0, \quad (2)$$

xarakteristik tegnlama qaraladi, u ikkita tenglamalar sistemaga teng kuchli:

$$\begin{cases} \dfrac{dy}{dx} = \dfrac{b + \sqrt{b^2 - ac}}{a} \\ \dfrac{dy}{dx} = \dfrac{b - \sqrt{b^2 - ac}}{a} \end{cases}. \quad (3)$$

(2) egri chiziqli integral tenglamalar (1) tenglamaning xarakteristik tenglamalari deb ataladi. Giperbolik, parabolik va eliptik tipdagi tenglamalarni kanonik ko‘rinishga keltirishni qaraymiz.

1.Agar (1) tenglama giperbolik tipda bo‘lsa, (3) tenglamalarning birinchi integrallari

$$\varphi_1(x.y) = C_1, \varphi_2(x,y) = C_2$$

xaqiqiy va har xil. Ular (1) tenglamaning xaqiqiy xarakteristikalari ikkita turli oilasini aniqlaydi .

$$\xi = \varphi_1(x.y), \eta = \varphi_2(x, y)$$

o‘garuvchilarni almashtirish yordamida, (1) tenglama giperbolik tipdagi tenglamani quyidagi kanonik ko‘rinishiga keltiriladi.

$$u_{\xi\eta} = \Phi(\xi, \eta, u, u_{\xi}, u_{\eta})$$

$$\xi = \mu + \nu, \eta = \mu + \nu$$

o‘zgaruvchilarni almashtirish yerdamida boshqa

$$u_{\mu\mu} - u_{\nu\nu} = \Phi(\mu, \nu, u, u_{\mu}, u_{\nu})$$

kanonik ko‘rinishga keltiriladi.

1-misol. $a^2u_{xx} - y^2u_{yy} = 0$ tenglamani kanonik ko‘rinishga keltiring.

$b^2 - ac = 0 + x^2y^2 = x^2y^2 > 0$ bo‘lgani uchun, bu giperbolik tipdagi tenglama ekanligini aniqlaymiz.

Xarakteristik tenglama tuzamiz:

$$x^2(dy)^2 y\ (dx)^2 = 0 \Leftrightarrow (xdy + ydx)(xdy - ydx) = 0$$

Ikkita $(xdy + ydx) = 0, (xdy - ydx) = 0$ difrensal tenglama xosil qilamiz.

O‘zgaruvchilarni ajratib va interallab quyidagi ko‘rinishga kelamiz:

$$\frac{dy}{y} + \frac{dx}{x} = 0, \ln|y| + \ln|y| = \ln C_1$$

$$\frac{dy}{y} - \frac{dx}{x} = 0, \ln|y| - \ln|y| = \ln C_2$$

Potensiallashtirgandan keyin, ikki oila xarakteristikalar uchun tenglamalarni topamiz:

$$xy = C_1, \frac{y}{x} = C_2.$$

Endi yangi o‘zgaruvchidarni kiritamiz.

$$\xi = xy, \eta = \frac{y}{x}$$

Yuqorida keltirgan fomulalardan foydalanib, eski o‘zgaruvchilar bo‘yicha xususiy xosilalarni yangi o‘zgaruvchilar bo‘yicha xususiy xosilalar orqali ifodalaymiz:

$$u_x = u_\xi \xi_x + u_\eta \eta_x = y u_\xi + \frac{y^2}{x^2} u_\eta$$

$$u_y = u_\xi \xi_y + u_\eta \eta_y = x u_\xi + \frac{1}{x} u_\eta$$

$$u_{xx} = (u_{\xi\xi}\xi_y + u_{\xi\eta}\eta_x)y - (u_{\eta\xi}\xi_x + u_{\eta\eta}\eta_x)\frac{y}{x^2} + \frac{2y}{x^3}u_\eta = (yu_{\xi\xi} - \frac{y}{x^2}u_{\xi\eta})y -$$

$$-(yu_{\xi\eta} - \frac{y}{x^2}u_{\eta\eta})\frac{y}{x^2} + \frac{2y}{x^3}u_\eta = y^2 u_{\xi\xi} - 2\frac{y^2}{x^2}u_{\xi\eta} + \frac{y^2}{x^4}u_{\eta\eta} + 2\frac{y}{x^3}u_\eta.$$

$$u_{yy} = x(u_{\xi\xi}\xi_y + u_{\xi\eta}\eta_y) + \frac{1}{x}(u_{\eta\xi}\xi_y + u_{\eta\eta}\eta_y) = x(xu_{\xi\xi} + \frac{1}{x}u_{\xi\eta}) +$$

$$+\frac{1}{x}(xu_{\xi\eta} + \frac{1}{x}u_{\eta\eta}) = x^2 u_{\xi\xi} + 2u_{\xi\eta} + \frac{1}{x^2}u_{\eta\eta}$$

Berilgan tenglamaga ikkinchi xosila uchun topilgan ifodalarni qo‘yib

$$x^2(y^2 u_{\xi\xi} - 2\frac{y^2}{x^2}u_{\xi\eta} + \frac{y^2}{x^4}u_{\eta\eta} + 2\frac{y}{x^3}u_\eta) - y^2(x^2 u_{\xi\xi} + 2u_{\xi\eta} + \frac{1}{x^2}u_{\eta\eta}) = 0$$

ni olamiz. Oxirgi ifodani soddalashtirib,

$$u_{\xi\eta} - \frac{1}{2\xi}u_\eta = 0$$

kanonik ko‘rinishga kelamiz.

2. Agar (1) parabolik tipdagi tenglama bo‘lsa, u xolda (3) tenglamalar ustma-ust tushadi. Bu xolda (3) sistema uchun bitta $\varphi(x, y) = C$ birinchi integralini xosil qilamiz.U xolda o‘zgaruvchilarni

$$\xi = \varphi(x, y), \eta = \psi(x, y)$$

formula bo‘yicha amalshtirib olamiz, bu yerda $\psi(x, y)$ -ni

$$\begin{vmatrix} \varphi_x \ \varphi_y \\ \psi_x \psi_y \end{vmatrix} \neq 0$$

shartni qanoatlantiruvchi ixtiyoriy funksiya, ya’ni funksional determinant –yakobian–nolga teng bo‘lmasligi lozim.

2-misol. Tenglamani kanonik ko‘rinishga keltiring**.**

$$z_{xx}\sin^2 x - z_{xy} 2y \sin x + z_{yy} y^2 = 0$$

$b^2 - ac = y^2 \sin^2 x - y^2 \sin^2 x = 0$ bo‘lgani uchun tenglama giperbolik tipga qarashli.

Xarakteristik tenglamasi quyidagicha

$$\sin^2 x(dy)^2 + 2y\sin x dx dy + y^2(dx)^2 = 0$$

yoki

$$(\sin x dy + y dx)^2 = 0$$

ko‘rinishga ega. Yani $xdy + ydx = 0$ tenglamani o‘zgaruvchilarni almashtirib va integrallab

$$\frac{dy}{y} + \frac{dx}{x} = 0, \ln|x| + \ln tg\frac{x}{2} = \ln C, tg\frac{x}{2} = C.$$

tenglamani olamiz.

$$\xi = ytg\frac{x}{2}, \eta = y$$

U $\sum_{n=1}^{\infty}n^2|\phi_n|$ va $\sum_{n=1}^{\infty}n|\psi_n|$ qatorlar uchun hozir isbot qilingan xossalardan kelib chiqadi. Shuning uchun o‘sha mulohazalarni t bo‘yicha hosilalar uchun o‘tkazib, natijada $u(x,t)\in C^2\{[0;l]\times[0;T]\}$ ni hosil qilamiz. Bu holda oson tekshirish mumkinki (1.6) formula bilan belgilanadigan $u(x,t)$ funksiya tebranish tenglamasini qanoatlantiradi (ya’ni (1) shartni). Bunday $u(x,t)$ funksiya (2)-(4) shartlarni qanoatlantirishi uni ko‘rishdan quriladi – chegaraviy va boshlang’ich shartlar hisobga olingan.

Teorema isbotlandi.

Shunday qilib, yechim qurildi. Ba’zi shartlarda bu yechim yagona ekanligini isbotlaymiz.

5. 1–chi chegaraviy masalaning yagonaligi

Qo‘yidagi umumiy 1 – chegaraviy masalani qaraymiz:

$$[1.3]\quad\begin{cases}U_{tt}=a^2U_{xx}+f(x,t), & 0<x<l,\quad 0<t<T\\ U(0,t)=\mu_1(t), & 0\le t\le T;\\ U(l,t)=\mu_2(t), & 0\le t\le T;\\ U(x,0)=\phi(x), & 0\le x\le l;\\ U_t(x,0)=\varphi(x), & 0\le x\le l;\end{cases}$$

Bu chegaraviy masalaning yechimi yagonaligini isbotlaymiz.

Teorema 1.4 (yagonalik). Faraz qilaylik $u_1, u_2(x,t) \in C^2\{[0;l]\times[0;T]\}$ va u_1, u_2 funksiyalar bir hil [1.3] chegaraviy masalaning echimi bo‘lsin, u holda $\{[0;l]\times[0;T]\}$ soxada $u_1(x,t) \equiv u_2(x,t)$

Isbot: $v(x,t) = u_1 - u_2$ ko‘rinib turibdiki funksiya bizning chegaraviy masalaning $f, \varphi, \phi, \mu_1, \mu_2$ funksiyalar aynan 0 ga teng bulgadagi yechim bo‘ladi. Shuday qilib

$$v(x,t) \in C^2\{[0;l]\times[0;T]\}$$

va

$$\begin{cases} v_{tt} = a^2 v_{xx}, \ 0 < x < l, 0 < t < T; \\ v(0,t) \equiv v(l,t) \equiv v(x,o) \equiv v_t(x,0) \equiv 0 \end{cases}.$$

$v(x,t) \equiv 0$ isbotlash talab etiladi. $E(t) = \int\limits_0^l \left[(v_t(x,t))^2 + a^2(v_x(x,t))^2\right]dx$ funksiyani aniqlaymiz va uni **energiya integrali** deb ataymiz. Misol uchun bizning tebranuvchi torimizning o‘zgarmasgacha aniqlik bilan olingan to‘la energiya deb fizikaviy interpretasiya o‘ilish mumkin. Ko‘rinib turibdiki, bizning **v** funksiya shartlarida **E(t)** differensialanuvchi funksiyadir. Demak uning xosilasi quyidagicha hisoblanadi:

$$E'(t) = \int\limits_0^l \left[2v_t(x,t)v_{tt}(x,t) + 2a^2 v_x(x,t)\right]dx$$

Bu integralda ikkinichi qo‘shiluvchini **x** bo‘yicha bo‘laklab integrallab quyidagi ifodaga kelamiz:

$$E'(t) = \int\limits_0^l \left[2v_t(x,t)v_{tt}(x,t) - 2a^2 v_{xx}(x,t)v_{xx}(x,t)\right]dx + 2a^2 v_x(x,t)v_t(x,t)\Big|_0^l$$

v(x, t) tebranish tenglamasini yechimi ekanligini esda tutgan holda, integral ostidagi ifoda aynan 0 ga teng ekanligini aniqlaymiz. Chegaraviy sharlarni **t** bo‘yicha differensiallab $v_t(0,t) \equiv 0 \equiv v_t(l,t)$ ni xosil qilamiz. Bundan xulosa: integral tashqarisidagi qo‘shiluvchisi 0ga teng. Demak $E'(t) \equiv 0$ yoki

$$E(t) = \int\limits_0^l \left[(v_t(x,t))^2 + a^2(v_x(x,t))^2\right]dx \equiv const.$$

Umuman olaganda biz yopiq [1.3] tenglamar bilan ifodalanuvchi sistemada energiya saqlanish qonunininig yana bir ko‘rinishiga ega bo‘ldik — energiya soni doimiydir. Ko‘rinib turibdiki

$$E(t) = E(t) = \int\limits_0^l \left[(v_t(x,t))^2 + a^2(v_x(x,t))^2\right]dx$$

Boshlang’ich shartlardan quyidagiga ega bo‘lamiz. $v_t(x,0) = v_x(x,0) = 0, \quad 0 \ge x \ge l,$

Demak, $E(0)=0 \Rightarrow E(t)\equiv 0$. Integral ostidagi funksiyalarning manfiy bo‘lmaganligi $v_t(x,t)\equiv v_x(x,t)\equiv 0$ ga teng ekanligi aniqlanadi. Bundan $v\equiv const$, boshlang’ich shartlardan esa $v\equiv 0$ ekanligi kelib chiqadi. Teorema isbotlandi.

Eslatma: $\begin{cases} v_x(0,t)=0 \\ v_x(l,t)=0 \end{cases}$ ikkinchi tur chegaraviy shartlargaega bo‘lgan masala uchun ham barcha tasdiqlarimiz o‘rinli. Teoremaning isboti o‘zgarmaydi, faqat integral tashqarisidagi qo‘shiluvchi nolga teng ekanligi boshqa usulda. Bundat tashqari, teoremaning barcha tasdiqlari aralash ko‘rinishdagi chegaraviy shartlar uchun ham o‘rinlidir.

Savollar.

1.3.2-a. Frontal so‘rov uchun savollar

1. Yarim to‘g’ri chiziqdagi bir jinsli chegaraviy shart bilan berilgan ikkinchi chegaraviy masala quyilishini keltiring
2. Ikkinchi chegaraviy masalaning Dalamber formulasi bo‘yicha yechimini keltiring.

1.3.2-b. Blits-so‘rov uchun savollar

1. O‘zgaruvchilarni almashtirish usuli.
2. Umumiy 1 – chegaraviy masalani qo‘yilishini keltiring.
3. Umumiy 1 – chegaraviy masala yagonaligi.

1.3.2-c. Og’zaki so‘rov uchun savollar

1. Bir jinsli chegaraviy shartlar bilan berilgan bir jinsli tebranish tenglamasi uchun birinchi chegaraviy masalani keltiring.
2. Shturm – Liuvill masalasi.
3. Mavjudlik teoremasi.

1.3.3. Mustaqil ish uchun topshiriqlar

- *takrorlash va mashqlar*: takrorlash, o‘z-o‘zini tekshirish, tahlil, qayta ishlash, mustahkamlash, eslab qolish, chuqurlashtirish;
- *yangi materiallarning mustaqil o‘zlashtirish*: yangi adabiy va internet materiallar, konspekt qo‘shimchasi; mustaqil iboralar tuzish;
- *ilmiy xaraktyerdagi ishlar*: muammoli holatlar, testlar, savollar, topshiriqlar tuzish; topshiriqlarni bajarish.

1.3.4. Kartochkalar uchun testlar

1.3.5. ekranga tayanch materiallarni ko‘rsatish(slaydlar)

- Prezentatsiya

1.3.6. Tavsiya etilgan adabiyotlar

Asosiy

6. *Saloxiddinov M.S. Matematik fizika tenglamolari. T., «O‘zbekistan», 2002, 448 b.*
7. *Mixlin S.G. Kurs matematicheskoy fiziki. M, 1968,*

8. *Sobole» SL. Uravneniya matematicheskoy fiziki. M. 1966.*
9. *Bisadzs L.V. Uravneniya matematicheskoy fiziki. M. 1976.*
10. *Bisadze A.V., Kalinichenko D.F. Sbornik zadach po uravneniyam matematicheskoy fiziki. M. 1977.*

Qo'shimcha

10. *Tixonov A.P., Samarskiy A.A. Uravneniya matematicheskoy fiziki. M. 1968.*
11. *Koshlyakov B.C., Glipsr E.B., Smirnov M.M. Osnovnыye differensialnыye uravneniya matematicheskoy fiziki. M. 1962.*
12. *Vladimirov B.C. Uravneniya matematicheskoy fiziki. M. 1981.*
13. *Polojii G.11. Uravneniya matematicheskoy fiziki. M. 1964.*
14. *Petrovskiy I.G. Leksii ob uravneniyax s chastnыmi proizvodnыmi. M., 1961.*
15. *Mixlnn S.G. Leksii po lineynым integralnым uravneniyam. M. 1959.*
16. *Smirnov M.M. Sbornik zadach po uravneniyam matematicheskoy fiziki.*
17. *Budak B.M., Samarskiy A.A., Tixonov A.N. Sbornik zadach po matematicheskoy fizike. M. 1972.*
18. *Vladimirov 13.S, Mixaylov V.P. i dr. Sbornik zadach po uravneniyam matematicheskoy fiziki. M. 1974.*

1.4. O'qitish usullari qoidalari

1.4.1. Aqliy hujum qoidalari

- Hech qanday o'zaro baholash va tanqid;
- Taklif etilayotgan g'oyalarni baholashdan o'zingni tiy, hatto ular fantastic va iloji yo'q bo'lsa ham – hammasi mumkin;
- Tanqid qilma – hamma aytilgan g'oyalar birhirda;
- Bayon qiluvchi gapini bo'lma;
- Izoh berishdan o'zingni tiy;
- Maqsad bu - miqdor;
- Qancha g'oyalar ko'p bo'lsa chuncha yaxshi: yangi va zarur g'oya tug'ulishi imkoniyati ko'proq
- Agar g'oyalar takrorlansa o'ksinma,
- Tasavvo'ringga erk ber;
- Senda yaralgan g'oyalarni tashlama, agal ular sening nazaringda qabul qilingan sxemaga tegishli bo'lmasa ham;
- Bu muammo aniq usullar bilan yechiladi deb o'ylama.

1.4.2. "Insert" texnikasi qoidalari

- Matndi o'qib, ularda savollat tug'dirayotgan joylarni, ularni bilimlariga mos kewlayotgan va mos kelmayotgan joylarni qalam bilan belgilab qo'yiladi;
- "Insert" jadvalini quyidagi belgilashlar bilan to'ldirish:
  Agar «!» bo'lsa siz o'z bilimingizga yoki siz o'ylagan fikrga to'g'ri kelayotganini o'qiyapsiz;
  Agar «–» bo'lsa siz o'z bilimingizga yoki tyo'g'ri deb o'ylaganingizga mutlaqo zid bo'lganini o'qiyapsiz;

Agar «+» bo‘lsa siz o‘qityotganingiz siz uchun yangilik;
Agar «?» bo‘lsa, siz o‘qiyotganingiz siz uchun tushunarsiz yoki siz bu savolga yanada ko‘proq ma`lumotlar olishni istaysiz.

1.4.3. Guruhlarda ishlash qoidalari

- Hamma o‘z do‘stlarini tinglashi kerak, unga yaxshi munosabatda bo‘lib hurmar ko‘rsatishi kerak;
- Hamma aktiv harakat qilishi lozim; berilgan topshiriqqa nisbatan birgalikda va javobgarlik bilan ishlashi kerak;
- Har kim o‘ziga kerak paytda yordam so‘rashi kerak;
- Har kim undan yordam so‘ralganda yordam ko‘rsatishi kerak;
- Guruhning ish natijalarini baholashda ishtirok etishi lozim;
- Biz bir kemadamiz, o‘zgalarga yordam berib o‘zimiz o‘rganamiz, shuni har kim tushunishi lozim;

Mavzu 4. Energiya integralining tebranish tenglamasi uchun chegaraiy masala yechimining yagonaligi

Ma`ruzaga reja-topshiriqlar

Fan: Matematik fizika tenglamalari

O‘quv soati: 2 soat (ma`ruza);

O‘quv mashg’uloti turi: ma`ruza; yangi bilimlarni mustahkamlash va o‘rganish.

Ma`ruza rejasi:

1. Ma’lumotlar xarakteristikalarda berilgan masala. Integral tenglamalarning ekvivalent sistemasi.
2. Xarakteristikalarda berilgan yechimning mavjudligi.
3. Malumotlar xarakteristikalarda berilgan masalaning yagonaligi.

O‘quv mashg’uloti maqsadi:

O‘quv fani to‘g’risida umumiy ta`surotlar berish, Xususiy hosilali tenglamalarva keyinchalik kasbiy faoliyatidagi roli.

O‘quv mashg’uloti masalalari:

- *O‘rgatuvchi*: talabalarda qabul qilish faoliyatini tashkil qilish, yangi materialni boshlang’ich esda qoldirish va anglash; Matematik fizika tenglamalarining terminlari, iboralarini xarakterlovchi elementlar; talabalarning matematik firlashini rivojlantirish muammoli masalalarni yechimini mahoratini oshirish; matematik masalalarni yechishda matematik simvollarning hususiyatlari bilan tanishtirish;
- *Rivojlantiruvchi*: kitob matni bilan ishlay bilishligi – mag’zlarini tanlab olish, tahlil qilish; gaplar tuzish, hulosa chiqarish, materialni talabalarning izlash faoliyatini stimullashtirish; hususiydan umumiy holga o‘tish usuli bilan tekshirish; tekshirish natijalarini tahlil qilib va uni umumlashtira olishini rivojlantirish; analitik-sintetik faoliyatning mantiqiy fikrlashini qo‘llash; talabalarning ijodiy mahoratini shakillantirish;
- *Tarbiyalovchi:* aktiv faoliyatga, mustaqil ishga jalb qilish; guruhlarda ishlash qoidalariga rioya qila olish; fanni o‘rganishga qiziqishni rivojlantirish; Matematik fizika tenglamalarini matematik-komunikativ kursni bir qismi sifatida tassavur berish;

javobgarlik tuyg'ularini tarbiyalash, mehnatsevarlik, individual ishni jamoaviy ish bilan biriktirish, intizomlashtirish.

O'qitish texnologiyasi:

- *O'qutish usullari*: instruktaj; Ma`ruza, aqliy hujum, "Insert" texnikasi;
- *O'qitish shakillari*: frontal; jamoaviy;
- *O'qitish vositalari*: Ma`ruza matni; jadvallar, multimediya;
- *O'qitish sharoitlari*: texnik jihozlashtirilgan auditoriya;
- *Baholash va monitoring*: o'g'zaki savol-javob, blits-so'rov.

Pedagogik masalalar:

- Fanning masalalari va uning o'quv fanlar sistemasidagi o'rni va roli bilan tanishtirish;
- O'quv fanning tuzulmasi va tavsiya etiladigan o'quv-metodik adabiyotlarni tasvirlash;
- Fan sohasida metodik va tashkiliy xususiyatlarini ochib berish, baholash shakli va muddatlari;
- Fan ma`ruzasi paytida o'qitish jarayonini tashkil qilishning umumiy bosqichlarini xarakterlab berish va umumiy sxemasini tushuntirish.
- O'qitish texnologiyasi rivojlanishi perspektivasini xarakterlab berish;

O'quv faoliyati natijalari:

- Fan ma`ruzasi masalalari, maqsadlari va nomlari shakillanadi;
- Xususiy hosilali tenglamalardoirasidagi yutuqlar yoritiladi;
- Fan sohasida metodik va tashkiliy xususiyatlari hamda baholash shakli va muddatlari aytiladi
- Fan ma`ruzasida o'qitish jarayonini tashkil qilishning umumiy sxemasini kengaytirib xatakterlab beradi;
- Fanning asosiy ta`riflarini beradi, Xususiy hosilali tenglamalarfani ma`ruzalarining asosiy yo'nalishlari beriladi;
- Nazariy bilimlarning to'liqligi, sistemaliyligi va harakatliyligi;
- Amaliy mag'ulotlarni bajarishda o'rganilgan iboralarbilan ishlay olishligi;

- **1.2. Ma`ruzaning xronologik xaritasi**

- **1 bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (10 daqiqa):**

- *O'qituvchining faoliyati*: tayyorgarlikni tekshirish (davomat, konspektning borligi; o'ziga ishonch, aniqligi,); kerakli materiallarni tarqatish (konspekt, tarqatma materiallar); ma`ruzaning mavzusi va maqsadini bayon qilish; o'quv mashg'ulotning rajasi bilan tanishtirish; kalit iboralar va so'zlar, kategoriyalar; internet saytlari va adabiyotlar ro'yhati; o'quv natijalari haqida aytish;
- *Talabalar faoliyati*: o'quv joyini tayyorlash (talabalar borligi; tashqi ko'rinish; o'quv materiallar va qo'llanmalar); ma`ruzaning mavzusi va maqsadi bilan tanishish; o'quv materialini qabul qilishga tayyorgarlik ko'rish;
- *Shakillar, usular, uslublar*: instruktaj; frontal so'rov; mustahkamlovchi so'rov.

2 bosqich. Asosiy qism (60 daqiqa):

- *O'qituvchining faoliyati*: mavzuga kiritadi; yangi mavzuga doir o'tgan fanlar va mashg'ulotlarning mavzularini eslashga chorlaydi; ma`ruza matnini tarqatadi, tanishishni taklif etadi, "Insert" usuli bilan belgilar qo'yishni taklif etadi; birinchi savol bo'yicha matn o'qiladi; qo'shimcha o'quv materiallarini aytib boorish va tushuncha berish; natural obektlarni namnoyon qilish va izohlash; tushunarsiz savollarni aniqlash va tushintirish; birinchi savol bo'yicha nazar (shunday qilib qolgan savollarga ham);

- *Talabalar faoliyati*: yangi mavzuda doir oldingi mashg'ulotlarda va fanlarda olgan bilimlarni mustahkamlaydi,; har bir kalit ibora va terminlarni eshitib, yozib borib, konspekt qilib aytib borishadi; "Insert" usuli bilan belgilan o'qiydilar, aniqlik kiritadilar, savollar beradilar va o'zaro;
- *Shakillar, usular, uslublar*: frontav so'rov blits-so'rov; aqliy hujum, "Insert" texnikasi.

3 bosqich. Yakunlovchi qism (10 daqiqa)

- *O'qituvchining faoliyati:* mavzu bo'yicha hulosa qilish, talabalarning e`tiborlarini asosiylarda jalb qilish; qilingan ishning muhimligini aytib o'tish; alohida talabalarning bajarilgan ishlarini baholash; o'zaro baholashning natijalarini chiqarish; o'quv mashg'ulotning yutuqlik darajasini baholash va tahlil qilish; mustaqil ish uchun topshiriqlar; baho ko'rsatgichlari va me`zonlari;
- *Talabalar faoliyati: ishning* tahlili; natijalarni olish; texnologik bilimlarni qo'llash; o'zaro baholashni o'tkazish, yo'l qo'yilgan hatolar bo'yicha tahlil va aniqlik kiritish; mustaqil ish topshiriqlarini yozib olish;
- *Shakillar, usular, uslublar*: guruhlarda ishlash, kartochkalarda topshiriqlar.

1.3. O'quv-metodik materiallar

Ma`ruza rejasi:

1. Ma'lumotlar xarakteristikalarda berilgan masala. Integral tenglamalarning ekvivalent sistemasi.
2. Xarakteristikalarda berilgan yechimning mavjudligi.
3. Malumotlar xarakteristikalarda berilgan masalaning yagonaligi.

Tayanch iboralar: chegaraviy masala, xarakteristika, integral tenglama, tebranish tenglamasi, energiya integrali,

1.3.1. Ma`ruza matni

1. Ma'lumotlar xarakteristikalarda berilgan masala. Integral tenglamalarning ekvivalent sistemasi.

Quyidagi masalani qaraymiz

$$[1.4]\quad \begin{cases} (1)\quad u_{xy}(x,y) = a(x,y)u_x(x,y) + b(x,y)u_y(x,y) + \\ + f(x,y,u(x,y)),\quad 0 < x < l_1,\quad 0 < x < l_2 \\ (2)\quad u(x,0) = \phi(x), \qquad 0 \le x \le l_2; \\ (3)\quad u(0,y) = \varphi(x), \qquad 0 \le y \le l_2; \end{cases}$$

Bu giperbolik tipdagi chiziqli bo'lmagan tenglama uchun berilgan masala **Gursa masala**si deb ataladi. Ilgari berilgan ta'rifga ko'ra (1) tenglamaning xarakteristikalari bu dxdy=0 tenglamani qanoatlantiruvchi funksiyalar bo'ladi. Bu esa x=const, y=const ko'rinishdagi to'g'ri chiziqlar oilasini bildiradi. Shunday qilib, bizning u(x, t) funksiyamizning x=0, y=0 xarakteristikalardagi ma'lumotlar bilan beriladi.

Ta'rif: **u(x,y)** funksiya [1.4] masalaning yechimi deb ataladi, agarda $u(x,y) \in C^2\{[0;l_1]\times[0;l_1]\}$ va (1) – (3) shartlarni qanoatlantirilsa.

Berilgan masalaning yechimi mavjudligi va yagonligini bir necha etaplarda isbotlaymiz. Dastlab biz [1.4] masalani qandaydir chiziqli bo'lmagan integral tenglamalar sistemasiga ekvivalent ekanligini ko'rsatamiz.

Faraz qilaylik, u(x,y) funksiya [1.4] masalaning yechimi bo'lsin. U holda (1) tenglamani dastlab y bo'yicha keyin x bo'yicha integrallab, quyidagini xosil qilamiz:

$$u_x(x,y)=u_x(x,0)+\int_0^y a(x,\eta)u_x(x,\eta)d\eta+\int_0^y b(x,\eta)u_y(x,\eta)d\eta+\int_0^y f(x,\eta,u(x,n))d\eta;$$

$$u(x,y)=u(0,y)+u(x,0)-u(0,0)+\int_0^x\int_0^y a(\xi,\eta)u_x(\xi,\eta)d\eta d\xi+\int_0^x\int_0^y b(\xi,\eta)u_y(\xi,\eta)d\eta d\xi+$$
$$+\int_0^x\int_0^y f(\xi,\eta,u(\xi,\eta))d\eta d\xi \qquad (1.7).$$

Ikkita yangi funkiyalarni kiritamiz $\begin{cases} v(x,y)=u_x(x,y) \\ w(x,y)=u_y(x,y)\end{cases}$

U holda, (2)-(3) boshlang'ich shartlarni qo‘llab, (1.7) tenglamani quyidagi ko‘rinishda yozish mumkin:

$$u(x,y)=\varphi(y)+\phi(x,0)-\phi(0)+$$
$$\int_0^x\int_0^y [a(\xi,\eta)v(\xi,\eta)+b(\xi,\eta)w(\xi,\eta)]\,d\xi d\eta+\int_0^x\int_0^y f(\xi,\eta,u(\xi,\eta))d\xi d\eta \qquad (1.8)$$

Buni x bo‘yicha differensiallab, quyidagini xosil qilamiz:

$$v(x,y)=\phi'(x)+\int_0^y [a(x,\eta)v(x,\eta)+b(x,\eta)w(x,\eta)]d\eta+\int_0^y f(x,\eta,u(x,\eta))d\eta \qquad (1.9)$$

Xuddi shunday y bo‘yicha differensiallaymiz:

$$w(x,y)=\varphi'(y)+\int_0^x [a(\xi,y)v(\xi,y)+b(\xi,y)w(\xi,y)]d\xi+\int_0^x f(\xi,y,u(\xi,y))d\xi$$

(1.10)

Demak, agar u(x,t) [1.4] masalani yechimi bo‘lsa u holda (1.8) – (1.10) tenglamalarini qanoatlantiruvchi v (x, t), w(x, t) funksiyalar mavjud bo‘ladi. Teskarisi: (1.8) – (1.10) tenglamalarning yechimlari bo‘lgan u, v,w- uzluksiz funksiyalarning mavjudligidan $v=u_x$; $w=u_y$ ekanligi kelib chiqadi. Shuningdek bevosita differensiallashdan u(x,t) funksiyalar [1.4] masalani yechimi ekanligini tekshirib ko‘rish mumkin.

2**. Xarakteristikalarda berilgan yechimning mavjudligi.**

Teorema [1.5]: (Mavjudlik teoremasi) Quyidagi to‘rtta shart bajarilgan bo‘lsin:

1. $a(x,y),\quad b(x,y)\in C\{[0;l_1]\times[0;l_2]\}$

2. $f(x,y,p)\in C\{[0;l_1]\times[0;l_2]\times E\}$ ya’ni, bizlar u(x, y) funksiyani p ixtiyoriy qiymat qabul qiluvchi o‘zgaruvchi bilan almashtirdik.

3. $|f(x,y,p_2)-f(x,y,p_2)|\le L|p_1-p_2|,\quad \forall x\in[0;l_1],\quad \forall p_1,p_2\in E$ r o‘zgaruvchi bo‘yicha Lipshis shartidir.

4. $\phi(x)\in C^1[0;l_1],\quad \varphi(y)\in C^1[0;l_2],\quad \phi(0)=\varphi(0)$

U holda [1. 4] masalaning yechimi mavjud.

Isbot. [1.4] masala (1.8)-(1.10) ga ekvivalentligini xisobga olib, (1.8)-(1.10) ni qanoatlantiruvchi u(x,y), v(x,y), w(x,y) uzluksiz funksiyalar mavjudligini isbotlaymiz. Bu funksiyalarni iterasiyalar ketma-ketligi yordamida topamiz. Ketma-ket interasiyalar prosessini quyidagicha ko‘ramiz:

$$
\begin{cases}
u_0(x,y) = v_0(x,y) = w_0(x,y) = 0 \\
u_{n+1}(x,y) = \varphi(y) + \phi(x) - \phi(0) + \int\limits_0^x \int\limits_0^y \left[a(\xi,\eta) v_n(\xi,\eta) + b(\xi,\eta) w_n(\xi,\eta) \right] d\eta d\xi + \\
+ \int\limits_0^x \int\limits_0^y f(\xi,\eta,u_n(\xi,\eta)) d\eta d\xi \\
u_{n+1}(x,y) + \phi'(y) + \int\limits_0^y \left[a(x,\eta) v_n(x,\eta) + b(x,\eta) w_n(x,\eta) \right] d\eta + \int\limits_0^y f(x,\eta,u_n(x,\eta)) d\eta \\
w_{n+1}(x,y) + \varphi'(y) + \int\limits_0^x \left[a(\xi,y) u_n(\xi,y) + b(\xi,\eta) w_n(\xi,y) \right] d\xi + \int\limits_0^x f(\xi,y,u_n(\xi,y)) d\xi
\end{cases}
$$

Bu prosessni yaqinlashuvchi ekanligini isbotlaymiz. Buning uchun u_n, v_n, w_n ketma-ketliklarning hadlari orasidagi farqlarni baholaymiz. u_n uchun iterasiya ta’rifidan va teoremaning (3) shartlaridan quyidagi tengsizlik kelib chiqadi:

$$
|u_{n+1} - u_n| \le \int\limits_0^x \int\limits_0^y \left[|a(\xi,\eta)| |v_n(\xi,\eta) - v_{n-1}(\xi,\eta)| + |b(\xi,\eta)| |w_n(\xi,\eta) - w_{n-1}(\xi,\eta)| \right] d\xi d\eta +
$$
$$
+ \int\limits_0^x \int\limits_0^y L |u_n(\xi,\eta) - u_{n-1}(\xi,\eta)| d\xi d\eta
$$

Faraz qilaylik: $(x,y) \in \{[0;l_1] \times [0;l_2] \times E\} da \ \ M = \max\{\max|a(x,y)| \max|b(x,y)|, L\}$.

Shunda:

$$
|u_{n+1} - u_n| \le M \int\limits_0^x \int\limits_0^y \left[|v_n(\xi,\eta) - v_{n-1}(\xi,\eta)| + |w_n(\xi,\eta) - w_{n-1}(\xi,\eta)| + |u_n(\xi,\eta) - u_{n-1}(\xi,\eta)| \right] d\xi d\eta \qquad (1.11)
$$

v_n, w_n funksiyalar uchun ham xuddi shunday:

$$
|u_{n+1} - u_n| \le M \int\limits_0^y \left[|u_n(x,\eta) - u_{n-1}(x,\eta)| + |w_n(x,\eta) - w_{n-1}(x,\eta)| + |u_n(x,\eta) - u_{n-1}(x,\eta)| \right] d\eta \qquad (1.12)
$$

$$
|u_{n+1} - u_n| \le M \int\limits_0^x \left[|u_n(\xi,y) - u_{n-1}(\xi,y)| + |w_n(\xi,y) - w_{n-1}(\xi,y)| + |u_n(\xi,y) - u_{n-1}(\xi,y)| \right] d\xi \qquad (1.13)
$$

Iterasiya prosessining barcha elementlari uzluksiz funksiyalar bo‘lganligi sababli, bundan $|u_n|, |v_n|, |w_n|$ funksiya qandaydir H o‘zgarmas bilan chegaralanganligi kelib chiqadi. Ketma-ketlikning nolga teng bo‘lgan xadlarning ta’rifidan $|u_1 - u_1| \le M, |v_1 - v_1| \le M, |w_1 - w_1| \le M$ kelib chiqadi. Buni qo‘llab quyidagi ayirmani baholaymiz:

$$
|u_2 - u_1| \le M \int\limits_0^x \int\limits_0^y 3H d\xi d\eta = 3HMxy \le 3HM \frac{(x+y)^2}{2}
$$

$$
|v_2 - v_1| \le M \int\limits_0^y 3H d\eta = 3HMy \le 3HM(x+y)^2
$$

$$
|w_2 - w_1| \le M \int\limits_0^x 3H d\xi = 3HMx \le 3HM(x+y)
$$

Ketma – ketlikni tekis yaqinlashuvchi ekanligini isbotlash uchun majorant qator qurishga to‘g’ri keladi, lekin dastlab quyidagi bahoni isbotlaymiz.

$$|u_n(x,y)-u_{n-1}(x,y)|\le 3HM^{n-1}K^{n-2}\frac{(x+y)^2}{2};$$
$$|v_n(x,y)-v_{n-1}(x,y)|\le 3HM^{n-1}K^{n-2}\frac{(x+y)^{n-1}}{(n-1)!};$$
$$|w_n(x,y)-w_{n-1}(x,y)|\le 3HM^{n-1}K^{n-2}\frac{(x+y)^{n-1}}{(n-1)!};$$

Bu yerda $K=2+l_1+l_2$;

Isbotni induksiya bilan ko'ramiz .

Induksiya bazasi. Yuqorida isbotlanganidek n=2 uchun o'rinli

Induksiya farazi. Faraz qilaylik n uchun o'rinli. $n+1$ uchun isbotlaymiz .

Induktiv o'tish . $|u_{n+1}-u_n|$ induksiya farazidan foydalanib ayirmani baholaymiz:

$$|u_{n+1}-u_n|\le M\int_0^x\int_0^y\left[3HM^{n-1}K^{n-2}\frac{(\xi+\eta)^n}{n!}+2\cdot 3HM^{n-1}K^{n-2}\frac{(\xi+\eta)^{n-1}}{(n-1)!}\right]d\xi d\eta\le$$
$$\le 3HM^nK^{n-2}\left[\int_0^x\frac{(\xi+\eta)^{n+1}}{(n+1)!}\Bigg|_0^y d\xi+2\int_0^x\frac{(\xi+\eta)^n}{n!}\Bigg|_0^y d\xi\right]$$

Integralni hisoblaylik. Bunda boshlang'ich integral chegaralarini qo'yishda quyi chegarani tashlab yuboramiz. Ularni qo'shiluvchilari manfiy bo'lib, yuqoridagi ayirma uchun shunday bahoni yuqori chegara asosida hosil qilamiz:

$$|u_{n+1}-u_n|\le 3HM^nK^{n-2}\left[\frac{(x+y)^{n+2}}{(n+2)!}+2\frac{(x+y)^{n+1}}{(n+1)!}\right]=$$
$$=3HM^{n-1}K^{n-2}\frac{(x+y)^{n+1}}{(n+1)!}\left[\frac{x+y}{n+2}+2\right]\le$$
$$\le\left\{\frac{x+y}{n+2}+2\le l_1+l_2+2=K\right\}\le 3HM^nK^{n-1}\frac{(x+y)^{n+1}}{(n+1)!}$$

Shunday qilib u_n ketma-ketlik uchun induksiya farazi isbotlangan. Qolgan ikkita ketma-ketlik uchun bahoning isboti shunga o'xshash bo'ladi.

$$|u_{n+1}-u_n|\le M\int_0^y\left[3HM^{n-1}K^{n-2}\frac{(\xi+\eta)^n}{n!}+23HM^{n-1}K^{n-2}\frac{(\xi+\eta)^{n-1}}{(n-1)!}\right]d\eta\le$$
$$\le 3HM^nK^{n-2}\left[\frac{(x+y)^{n+1}}{(n+1)!}+2\frac{(x+y)^n}{n!}\right]=3HM^nK^{n-2}\frac{(x+y)^n}{n!}\left[\frac{x+y}{n+1}+2\right]\le$$
$$\le 3HM^nK^{n-1}\frac{(x+y)^n}{n!}$$

Demak ikkinchi baho ham to'g'ri .

Uchinchi bahoning isboti ham shu ko'rinishda bo'lad , shuning uchun uni tashlab ketamiz. Endi u_n, v_n, w_n, ketma –ketliklarni tekis yaqinlashuvchi ekanligini isbotlaymiz. Ko'rinib turibdiki bunday ketma-ketlikning har bir hadini tegishli qatorning qismiy yig'indisi shaklida ifodalash mumkin.

$$u_n(x,y)=\sum_{m=1}^{n}\left(u_m(x,y)-u_{m-1}(x,y)\right);$$
$$v_n(x,y)=\sum_{m=1}^{n}\left(v_m(x,y)-v_{m-1}(x,y)\right);$$
$$w_n(x,y)=\sum_{m-1}^{n}\left(w_m(x,y)-w_{m-1}(x,y)\right);$$

Birinchi qatorning qo‘shiluvchilari uchun biz bahoni isbotlagan edik.

$$|u_n(x,y)-u_{n-1}(x,y)|\le 3HM^{n-1}K^{n-2}\frac{(x+y)^n}{n!}\le 3HM^{n-1}K^{n-2}\frac{(l_1+l_2)^n}{n1}=C\frac{a^n}{n!},$$
$$C,a=const.$$

Malumki, $\sum_{n=1}^{\infty}c\frac{a^n}{n!}$ qator yaqinlashuvchi. Bundan Veyershtrass alomatiga ko‘ra u_n ketma-ketlikni tekis yaqinlashishini hosil qilamiz. Qo‘shiluvchilarning uzliksizligidan limitik funksiyaning uzluksizligi kelib chiqadi.

Shunga o‘xshash qolgan ikki ketma-ketlik uchun ham ko‘rsatish mumkin:

$$v_n(x,y)\Rightarrow v(x,y)\in C\{[0;l_1]\times[0;l_2]\};$$
$$w_n(x,y)\Rightarrow w(x,y)\in C\{[0;l_1]\times[0;l_2]\};$$

Endi biz $n\to\infty$ da limitni hisoblash iterasion jarayonini yozishga haqlimiz. Bu esa ushbu tenglamalar sistemasining yechimi bo‘lgan u,v,w funksiyalarning mavjudligini bildiradi. Bu tenglamalar sistemasini boshlang’ich [1.4] ga ekvivalent deb olsak teorema butunlay isbotlanadi. Teorema isbotlandi.

3. Malumotlar xarakteristikalarda berilgan masalaning yagonaligi.

Shunday qilib**[1.4] masalaning mavjudligini isbotladik. Endi uning yagonaligini isbotlaymiz-ravshanki bu** (1.8)-(1.10) integral tenglamalar sistemasi yechimining yagonaligiga ekvivalentdir **.**

Teorema 1.6 (Yagonalik) Faraz qilaylik

$$\{u_1(x,y),v_1(x,y),w_1(x,y)\},$$
$$\{u_2(x,y),v_2(x,y),w_2(x,y)\};$$

ikki funksiyalar sistemasi mavjud bo‘lib, ular (1-8)-(1-10) integral tenglamalar sistemasining yechimlari bo‘lsin va bunda [1.4] tenglamaning yechimi mavjudligi haqidagi teoremani (1)-(4) shartlari bajarilgan bo‘lsin, u holda

$$u(x.y)=u_1(x,y)-u_2(x,y),v(x,y)=v_1(x,y)-v_2(x,y),w(x,y)=w_1(x,y)-w_2(x,y)$$

funksiyalar $\prod_{l_1l_2}=\{[0;l_1]\times[0;l_2]\}$ to‘g’ri to‘rtburchakda aynan 0 ga teng bo‘ladi.

Isbot. Shunday qilib u_1,u_2- (1.8) integral tenglamani yechimi bo‘lsin.

$$u_1(x,y)=\varphi(y)+\phi(x)-\phi(0)+\int_0^x\int_0^y[a(\xi,\eta)v_1(\xi,\eta)+b(\xi,\eta)w_1(\xi,\eta)]d\eta d\xi+\int_0^x\int_0^y f(\xi,\eta,u_1(\xi,\eta))d\eta d\xi;$$
$$u_2(x,y)=\varphi(y)+\phi(x)-\phi(0)+\int_0^x\int_0^y[a(\xi,\eta)v_2(\xi,\eta)+b(\xi,\eta)w_2(\xi,\eta)]d\eta d\xi+\int_0^x\int_o^y f(\xi,\eta,u_2(\xi,\eta))d\eta d\xi.$$

Biridan ikkinchisini ayirib va $f(x,y,p)$, uchun Lipshis shartini qo‘llab quyidagini hosil qilamiz:

$$|u_2-u_1|\le\int_0^x\int_0^y\left[M|v_2(\xi,\eta)-v_1(\xi,\eta)|+M|w_2(\xi,\eta)-w_1(\xi,\eta)|+M|u_2(\xi,\eta)-u_1(\xi,\eta)|\right]d\eta d\xi\Rightarrow$$

$$|u(x,y)|\le\int_0^x\int_0^y\left[M|v(\xi,\eta)|+M|w(\xi,\eta)|+M|u(\xi,\eta)|\right]d\eta d\xi \quad (1.14)$$

Shunga o‘xshash natija $v(x,y)$, $w(x,y)$ funksiyalar uchun ham o‘rinli:

$$|v(x,y)|\le\int_0^y\left[M|v(x,\eta)|+M|w(x,\eta)|+M|u(x,\eta)|\right]d\eta;$$

$$w\le\int_0^x\left[M|v(\xi,y)|+M|w(\xi,y)|+M|u(\xi,y)|\right]d\xi.$$

Bundan ushbu funksiyalar P to‘g’ri to‘rtburchakda 0 ga tengligi kelib chiqishini isbotlaymiz.Dastlab ular $\prod_{x_0y_0}=\{[0;x_0]\times[0;y_0]\}$, to‘g’ri to‘rtburchakda 0 ga tengligini ko‘rsatamiz. Bu yerda $x_{0,}y_0$ quyidagi shartlarni qanoatlantiradi: $\begin{cases}3x_0y_0M<1;\\3x_0M<1;\\3y_0M<1.\end{cases}$

Faraz qilaylik: $\bar{u}=\max\limits_{\Pi x_0y_0}|u(x,y)|;\bar{v}=\max\limits_{\Pi x_0y_0}|v(x,y)|;\bar{w}=\max\limits_{\Pi x_0y_0}|w(x,y)|$

Umumiylikni chegaralashdan, $\bar{u}\ge\max\{\bar{v},\bar{w}\}$ bo‘lishini faraz qilamiz.

Bu holda (1.14) tengsizlikdan quyidagi tengsizlik kelib chiqadi:

$$|u(x,y)|\le M\int_0^x\int_0^y[\bar{u}+\bar{u}+\bar{u}]ds\le 3Mx_0y_0\bar{u},(x,y)\in\Pi_{x\,y_0}\Rightarrow$$

$$\Rightarrow\bar{u}\le 3Mx_0y_0\bar{u}.$$

$3x_0y_0M<1$ bo‘lganligi sababli, bu faqat $\bar{u}=0$ da bajariladi. Bundan ko‘rinib turibdiki $u(x,y),v(x,y),w(x,y)$ funksiyalar Πx_oy_o da aynan 0 ga teng. Keyingi qadamda biz shunday x_1 ni olamizki,

$$\begin{cases}3(x_1-x_0)y_0M<1;\\3(x_1-x_0)M<1;\\3y_0M<1.\end{cases}$$

va uni Πx_1y_0 to‘g’ri to‘rtburchakda qaraymiz.U holda (1.14) tengsizlik quyidagi ko‘rinishga ega:

$$|u(x,y)|\le M\int_{x_0}^x\int_0^y[\bar{u}+\bar{u}+\bar{u}]ds,(x,y\in\Pi x_1y_0)$$

Oldingi qadamga o‘xshash harakat qilib $u(x,y),v(x,y),w(x,y)$ funksiyalar Πx_1y_0 to‘g’ri to‘rtburchakda aynan 0 ga tengligini hosil qilamiz.

Shunday mulaxozalarni davom etib, chekli sonli qadamlardan keyin bu funksiyalarning $\Pi_{l_1 y_0}$ da 0 ga teng ekanligini ko‘rsatish mumkin.

Teorema isbotlandi. □

1.3.2-a. Frontal so‘rov uchun savollar

1. Energiya integrali
2. Ma’lumotlar xarakteristikalarda berilgan masala.
3. Gursa masalasi.

1.3.2-b. Blits-so‘rov uchun savollar

1. Mavjudlik teoremasi.
2. Lipshis sharti.

1.3.2-c. Og’zaki so‘rov uchun savollar

1. Xarakteristikalarda berilgan yechimning mavjudligi.
2. Umumiy 1 – chegaraviy masala uchun yagonalik teoremasi

1.3.3. Mustaqil ish uchun topshiriqlar

- *takrorlash va mashqlar*: takrorlash, o‘z-o‘zini tekshirish, tahlil, qayta ishlash, mustahkamlash, eslab qolish, chuqurlashtirish;
- *yangi materiallarning mustaqil o‘zlashtirish*: yangi adabiy va internet materiallar, konspekt qo‘shimchasi; mustaqil iboralar tuzish;
- *ilmiy xaraktyerdagi ishlar*: muammoli holatlar, testlar, savollar, topshiriqlar tuzish; topshiriqlarni bajarish.

1.3.4. Kartochkalar uchun testlar

1.3.5. ekranga tayanch materiallarni ko‘rsatish(slaydlar)

- Prezentatsiya

1.3.6. Tavsiya etilgan adabiyotlar

Asosiy

1. *Saloxiddinov M.S. Matematik fizika tenglamolari. T., «O‘zbekistan», 2002, 448 b.*
2. *Mixlin S.G. Kurs matematicheskoy fiziki. M, 1968,*
3. *Sobole» SL. Uravneniya matematicheskoy fiziki. M. 1966.*
4. *Bisadze L.V. Uravneniya matematicheskoy fiziki. M. 1976.*
5. *Bisadze A.V., Kalinichenko D.F. Sbornik zadach po uravneniyam matematicheskoy fiziki. M. 1977.*

Qo‘shimcha

1. *Tixonov A.P., Samarskiy A.A. Uravneniya matematicheskoy fiziki. M. 1968.*

2. *Koshlyakov B.C., Glipsr E.B., Smirnov M.M. Osnovnыye differensialnыye uravneniya matematicheskoy fiziki. M. 1962.*
3. *Vladimirov B.C. Uravneniya matematicheskoy fiziki. M. 1981.*
4. *Polojii G.11. Uravneniya matematicheskoy fiziki. M. 1964.*
5. *Petrovskiy I.G. Leksii ob uravneniyax s chastnыmi proizvodnыmi. M., 1961.*
6. *Mixlnn S.G. Leksii po lineynыm integralnыm uravneniyam. M. 1959.*
7. *Smirnov M.M. Sbornik zadach po uravneniyam matematicheskoy fiziki.*
8. *Budak B.M., Samarskiy A.A., Tixonov A.N. Sbornik zadach po matematicheskoy fizike. M. 1972.*
9. *Vladimirov 13.S, Mixaylov V.P. i dr. Sbornik zadach po uravneniyam matematicheskoy fiziki. M. 1974.*

1.4. O‘qitish usullari qoidalari

1.4.1. Aqliy hujum qoidalari

- Hech qanday o‘zaro baholash va tanqid;
- Taklif etilayotgan g’oyalarni baholashdan o‘zingni tiy, hatto ular fantastic va iloji yo‘q bo‘lsa ham – hammasi mumkin;
- Tanqid qilma – hamma aytilgan g’oyalar birhirda;
- Bayon qiluvchi gapini bo‘lma;
- Izoh berishdan o‘zingni tiy;
- Maqsad bu - miqdor;
- Qancha g’oyalar ko‘p bo‘lsa chuncha yaxshi: yangi va zarur g’oya tug’ulishi imkoniyati ko‘proq
- Agar g’oyalar takrorlansa o‘ksinma,
- Tasavvo‘ringga erk ber;
- Senda yaralgan g’oyalarni tashlama, agal ular sening nazaringda qabul qilingan sxemaga tegishli bo‘lmasa ham;
- Bu muammo aniq usullar bilan yechiladi deb o‘ylama.

1.4.2. “Insert” texnikasi qoidalari

- Matndi o‘qib, ularda savollat tug’dirayotgan joylarni, ularni bilimlariga mos kewlayotgan va mos kelmayotgan joylarni qalam bilan belgilab qo‘yiladi;
- “Insert” jadvalini quyidagi belgilashlar bilan to‘ldirish:
  Agar «!» bo‘lsa siz o‘z bilimingizga yoki siz o‘ylagan fikrga to‘g’ri kelayotganini o‘qiyapsiz;
  Agar «–» bo‘lsa siz o‘z bilimingizga yoki tyo‘g’ri deb o‘ylaganingizga mutlaqo zid bo‘lganini o‘qiyapsiz;
  Agar «+» bo‘lsa siz o‘qityotganingiz siz uchun yangilik;
  Agar «?» bo‘lsa, siz o‘qiyotganingiz siz uchun tushunarsiz yoki siz bu savolga yanada ko‘proq ma`lumotlar olishni istaysiz.

1.4.3. Guruhlarda ishlash qoidalari

- Hamma o‘z do‘stlarini tinglashi kerak, unga yaxshi munosabatda bo‘lib hurmar ko‘rsatishi kerak;
- Hamma aktiv harakat qilishi lozim; berilgan topshiriqqa nisbatan birgalikda va javobgarlik bilan ishlashi kerak;

- Har kim o‘ziga kerak paytda yordam so‘rashi kerak;
- Har kim undan yordam so‘ralganda yordam ko‘rsatishi kerak;
- Guruhning ish natijalarini baholashda ishtirok etishi lozim;
- Biz bir kemadamiz, o‘zgalarga yordam berib o‘zimiz o‘rganamiz, shuni har kim tushunishi lozim;

Mavzu 5. «Qo‘shma differensial operator. Riman usuli. Limitga o‘tish shaklidagi umumlashgan yechimlar »
Ma`ruzaga reja-topshiriqlar

Fan: Matematik fizika tenglamalari

O‘quv soati: 2 soat (ma`ruza);

O‘quv mashg’uloti turi: ma`ruza; yangi bilimlarni mustahkamlash va o‘rganish.

Ma`ruza rejasi:

1. Qo‘shma differensial operator
2. Chiziqli algebradagi qo‘shma operator bilan bog’lanish.
3. Riman usuli.
4. Limitga o‘tish shaklidagi umumlashgan yechimlar
5. Integrallik ayniyat ma’nosidagi umumlashgan yechimlar

O‘quv mashg’uloti maqsadi:

O‘quv fani to‘g’risida umumiy ta`surotlar berish, Xususiy hosilali tenglamalarva keyinchalik kasbiy faoliyatidagi roli.

O‘quv mashg’uloti masalalari:

- *O‘rgatuvchi*: talabalarda qabul qilish faoliyatini tashkil qilish, yangi materialni boshlang’ich esda qoldirish va anglash; Matematik fizika tenglamalarining terminlari, iboralarini xarakterlovchi elementlar; talabalarning matematik firlashini rivojlantirish muammoli masalalarni yechimini mahoratini oshirish; matematik masalalarni yechishda matematik simvollarning hususiyatlari bilan tanishtirish;
- *Rivojlantiruvchi*: kitob matni bilan ishlay bilishligi – mag’zlarini tanlab olish, tahlil qilish; gaplar tuzish, hulosa chiqarish, materialni talabalarning izlash faoliyatini stimullashtirish; hususiydan umumiy holga o‘tish usuli bilan tekshirish; tekshirish natijalarini tahlil qilib va uni umumlashtira olishini rivojlantirish; analitik-sintetik faoliyatning mantiqiy fikrlashini qo‘llash; talabalarning ijodiy mahoratini shakillantirish;
- *Tarbiyalovchi:* aktiv faoliyatga, mustaqil ishga jalb qilish; guruhlarda ishlash qoidalariga rioya qila olish; fanni o‘rganishga qiziqishni rivojlantirish; Matematik fizika tenglamalarini matematik-komunikativ kursni bir qismi sifatida tassavur berish; javobgarlik tuyg’ularini tarbiyalash, mehnatsevarlik, individual ishni jamoaviy ish bilan biriktirish, intizomlashtirish.

O‘qitish texnologiyasi:

- *O‘qutish usullari*: instruktaj; Ma`ruza, aqliy hujum, “Insert” texnikasi;
- *O‘qitish shakillari*: frontal; jamoaviy;
- *O‘qitish vositalari*: Ma`ruza matni; jadvallar, multimediya;
- *O‘qitish sharoitlari*: texnik jihozlashtirilgan auditoriya;
- *Baholash va monitoring*: o‘g’zaki savol-javob, blits-so‘rov.

Pedagogik masalalar:

- Fanning masalalari va uning o‘quv fanlar sistemasidagi o‘rni va roli bilan tanishtirish;
- O‘quv fanning tuzulmasi va tavsiya etiladigan o‘quv-metodik adabiyotlarni tasvirlash;
- Fan sohasida metodik va tashkiliy xususiyatlarini ochib berish, baholash shakli va muddatlari;
- Fan ma`ruzasi paytida o‘qitish jarayonini tashkil qilishning umumiy bosqichlarini xarakterlab berish va umumiy sxemasini tushuntirish.
- O‘qitish texnologiyasi rivojlanishi perspektivasini xarakterlab berish;

O‘quv faoliyati natijalari:

- Fan ma`ruzasi masalalari, maqsadlari va nomlari shakillanadi;
- Xususiy hosilali tenglamalardoirasidagi yutuqlar yoritiladi;
- Fan sohasida metodik va tashkiliy xususiyatlari hamda baholash shakli va muddatlari aytiladi
- Fan ma`ruzasida o‘qitish jarayonini tashkil qilishning umumiy sxemasini kengaytirib xatakterlab beradi;
- Fanning asosiy ta`riflarini beradi, Xususiy hosilali tenglamalarfani ma`ruzalarining asosiy yo‘nalishlari beriladi;
- Nazariy bilimlarning to‘liqligi, sistemaliyligi va harakatliyligi;
- Amaliy mag’ulotlarni bajarishda o‘rganilgan iboralarbilan ishlay olishligi;

- **1.2. Ma`ruzaning xronologik xaritasi**

- **1 bosqich. O‘quv mashg’ulotiga kirish (10 daqiqa):**

- *O‘qituvchining faoliyati*: tayyorgarlikni tekshirish (davomat, konspektning borligi; o‘ziga ishonch, aniqligi,); kerakli materiallarni tarqatish (konspekt, tarqatma materiallar); ma`ruzaning mavzusi va maqsadini bayon qilish; o‘quv mashg’ulotning rajasi bilan tanishtirish; kalit iboralar va so‘zlar, kategoriyalar; internet saytlari va adabiyotlar ro‘yhati; o‘quv natijalari haqida aytish;
- *Talabalar faoliyati*: o‘quv joyini tayyorlash (talabalar borligi; tashqi ko‘rinish; o‘quv materiallar va qo‘llanmalar); ma`ruzaning mavzusi va maqsadi bilan tanishish; o‘quv materialini qabul qilishga tayyorgarlik ko‘rish;
- *Shakillar, usular, uslublar*: instruktaj; frontal so‘rov; mustahkamlovchi so‘rov.

2 bosqich. Asosiy qism (60 daqiqa):

- *O‘qituvchining faoliyati*: mavzuga kiritadi; yangi mavzuga doir o‘tgan fanlar va mashg’ulotlarning mavzularini eslashga chorlaydi; ma`ruza matnini tarqatadi, tanishishni taklif etadi, “Insert” usuli bilan belgilar qo‘yishni taklif etadi; birinchi savol bo‘yicha matn o‘qiladi; qo‘shimcha o‘quv materiallarini aytib boorish va tushuncha berish; natural obektlarni namnoyon qilish va izohlash; tushunarsiz savollarni aniqlash va tushintirish; birinchi savol bo‘yicha nazar (shunday qilib qolgan savollarga ham);
- *Talabalar faoliyati*: yangi mavzuda doir oldingi mashg’ulotlarda va fanlarda olgan bilimlarni mustahkamlaydi,; har bir kalit ibora va terminlarni eshitib, yozib borib, konspekt qilib aytib borishadi; “Insert” usuli bilan belgilan o‘qiydilar, aniqlik kiritadilar, savollar beradilar va o‘zaro;
- *Shakillar, usular, uslublar*: frontav so‘rov blits-so‘rov; aqliy hujum, “Insert” texnikasi.

3 bosqich. Yakunlovchi qism (10 daqiqa)

- *O‘qituvchining faoliyati:* mavzu bo‘yicha hulosa qilish, talabalarning e`tiborlarini asosiylarda jalb qilish; qilingan ishning muhimligini aytib o‘tish; alohida talabalarning bajarilgan ishlarini baholash; o‘zaro baholashning natijalarini chiqarish; o‘quv mashg’ulotning yutuqlik darajasini baholash va tahlil qilish; mustaqil ish uchun topshiriqlar; baho ko‘rsatgichlari va me`zonlari;

- *Talabalar faoliyati: ishning* tahlili; natijalarni olish; texnologik bilimlarni qo‘llash; o‘zaro baholashni o‘tkazish, yo‘l qo‘yilgan hatolar bo‘yicha tahlil va aniqlik kiritish; mustaqil ish topshiriqlarini yozib olish;
- *Shakillar, usular, uslublar*: guruhlarda ishlash, kartochkalarda topshiriqlar.

1.3. O‘quv-metodik materiallar

Ma`ruza rejasi:

1. Qo‘shma differensial operator
2. Chiziqli algebradagi qo‘shma operator bilan bog’lanish.
3. Riman usuli.
4. Limitga o‘tish shaklidagi umumlashgan yechimlar
5. Integrallik ayniyat ma’nosidagi umumlashgan yechimlar

Tayanch iboralar: operator, differensial operator, qo‘shma operator, chegaraviy masala, Grin formulasi, Riman usuli, limit, Dalamber formulasi, Puasson tenglamasi.

1.3.1. Ma`ruza matni

1. Qo‘shma differensial operator.

E^n fazoni qaraymiz.Faraz qilaylik $x=(x_1,\dots,x_n)$- bir necha o‘zgaruvchilar, $u(x)$- esa p o‘zgaruvchi funksiya bo‘lsin

Tarif . Biror $u(x)\in C^2(E^n)$ funksiyadan $L[u]$ differensial operator quyidagicha aniqlanadi :

$$L[u]=\sum_{i=1}^{n}\sum_{j=1}^{n}a_{ij}(x)u_{x_ix_j}+\sum_{i=1}^{n}b_i(x)u_{x_i}+c(x)u \tag{1.15}$$

Bu yerda $a_{ij},b_i\in C^2(E^2)$, $c(x)$ qandaydir funksiyalar. Bu holda ikkinchi tartibli xususiy hosila differensiallash tartibiga bog’liq bo‘lmaganligi sababli $a_{ij}(x)=a_{ji}(x)$ bir biriga to‘g’rilikni qabul qilinadi.

Tarif. Har qanday $L[u]$ differensial operatorga o‘zaro bir qiymatli moslik bo‘yicha keluvchi $M[v]$ qo‘shma operator olish mumkin.

$$M[v]=\sum_{i=1}^{n}\sum_{j=1}^{n}(a_{ij}(x)v)_{x_ix_j}-\sum_{i=1}^{n}(b_i(x)v)_{x_i}+c(x)v$$

Tarif. Agar $L[u]=M[v]$ bo‘lsa operator o‘z-o‘ziga qo‘shma operator deyiladi. Bizga quyidagi formula kerak bo‘ladi .

$$vL[u]-uM[v]=\sum_{i=1}^{n}(p_i(x))_{x_i} \tag{1.16}$$

Bu yerda $p_i(x)=\sum_{j=1}^{n}\left[va_{ij}u_{x_j}-u(a_{ij}v)_{x_j}\right]+b_iuv.$

Bu formulani isbotlash uchun $p_i(x)$ ni (1.16) ning o‘ng tomoniga qo‘yamiz va qo‘shiluvchilarni guruhlaymiz

$$\sum_{i=1}^{n}\left(p_i(x)\right)_{x_i} = \sum_{i=1}^{n}\sum_{j=1}^{n}\left[va_{ij}u_{x_ix_j} - u\left(a_{ij}v\right)_{x_jx_i}\right] + \sum_{i=1}^{n}\sum_{j=1}^{n}\left[\left(va_{ij}\right)_{x_i}u_{x_j} - u_{x_i}\left(a_{ij}v\right)_{x_j}\right] +$$

$$+\sum_{i=1}^{n}\left[vb_iu_{x_i} + u\left(b_iv\right)_{x_i}\right] + cuv - cuv = \sum_{i=1}^{n}\sum_{j=1}^{n}va_{ij}u_{x_ix_j} + \sum_{i=1}^{n}vb_iu_{x_i} + cuv -$$

$$-\left(\sum_{i=1}^{n}\sum_{j=1}^{n}u\left(a_{ij}v\right)_{x_ix_j} + \sum_{i=1}^{n}u\left(b_iv\right)_{x_i} + cuv\right) + \sum_{i=1}^{n}\sum_{j=1}^{n}\left[\left(va_{ij}\right)_{x_i}u_{x_j} - u_{x_i}\left(a_{ij}v\right)_{x_j}\right] =$$

$$vL[u] - uM[v] + \sum_{i=1}^{n}\sum_{j=1}^{n}\left[\left(va_{ij}\right)_{x_i}u_{x_j} - u_{x_i}\left(a_{ij}v\right)_{x_j}\right].$$

Qolgan ikkilangan yig’indi 0 ga teng –bu qo‘shiluvchilar indekslarining simmetrikligidan kelib chiqadi. Bu yerdan(1.16) formula to‘g’riligi kelib chiqadi.

2. Chiziqli algebradagi qo‘shma operator bilan bog’lanish.

Chiziqli algebrada A operatorga qo‘shma A^* operatorni deb quyidagi $(Au,v)=(u,A^*v)$ munosabatga aytiladi. Bu E^n dan olingan barcha *u,v* lar uchun bajarilishi kerak edi. Bizning tarifimiz shu berilgan tarif bilan qanchalik mos kelishini ko‘rib chiqamiz.

Misol 1. $\Omega \subset E^3$ bo‘lsin va skalyar ko‘paytma quyidagicha aniqlansin :

$$(f,g) = \iiint_{\Omega} fg\,d\tau,\; f,g \in C^2(\Omega)\cap C^1(\overline{\Omega})$$

u holda

$$u,v \in C^2(\Omega)\cap C^1(\overline{\Omega}),$$

$u,v|\Sigma = 0,$ ($\Sigma - \Omega$ ning chegarasi) bo‘lgan funksiyalar uchun quyidagi

$$(v,L[u]) = (M[v],u)$$

ifoda to‘g’ri bo‘lsin. Buni ko‘rsatamiz:

$$(v,L[u]) - (M[v],u) = \iiint_{\Omega}(vL[u]-uM[v])d\tau = \{(1.16)\} = \iiint_{\Omega}\left(\frac{\partial p_1}{\partial x_1}+\frac{\partial p_2}{\partial x_2}+\frac{\partial p_3}{\partial x_3}\right)d\tau =$$

$$= \{\vec{P} = (p_1,p_2,p_3)\} = \iiint_{\Omega} div\vec{P}d\tau = \{Ostrogradskiy - Gauss \quad formulasi(5.3)\} =$$

$$\iint_{\Sigma}(\vec{P},\vec{n})d\sigma = \{\vec{n} = (n_x,n_y,n_z)\} = \iint_{\Sigma}(p_1n_x + p_2n_y + p_3n_z)d\sigma = 0$$

- $p_i|\Sigma = 0, u, v$ uchun chegaraviy shartdan kelib chiqadi.

Misol 2. Qo‘shma operator uchun oddiy misol bu Laplas operatori hisoblanadi, masalan E^3 da $L[u] = \Delta u = u_{x_1x_1} + u_{x_2x_2} + u_{x_3x_3}$ bo‘ladi

Bu yerda $M[u] = \Delta v$ tekshirish oson.

3. Riman usuli

E^2 fazoda $u(x,y)$ funksiya uchun quyidagi differensiallanuvchi operatorni qaraymiz:

$$L[u] = u_{xy} + a(x,y)u_x(x,y) + b(x,y)u_y(x,y) + c(x,y)u(x,y)$$

Ta'rifga ko'ra, unga qo'shma operator quyidagi ko'rinishga ega:

$$M[v] = u_{xy} - (a(x,y)v)_x - (b(x,y)v)_x + c(x,y)v$$

Shunday qilib, (1.15) formulada

$$a_{11} = a_{22} = 0, \qquad a_{12} = a_{21} = \frac{1}{2}, \quad b_1 = a, \qquad b_2 = b, \qquad c = c.$$

Ko'rinib turibdiki (1.16) formuladagi P_1, P_2 lar quyidagicha hisoblanadi:

$$p_1 = \frac{1}{2}(vu_y - uv_y) + auv;$$

$$p_2 = \frac{1}{2}(vu_x - uv_x) + buv;$$

Endi Oxy tekisligida $y = f(x)$ egri chiziq berilgan bo'lsin, va unda $\forall x$ lar uchun $f'(x) < 0$. Uning grafigini L_f bilan belgilaymiz. Nuqtalari $f(x)$ funksiya grafigidan yuqorida yotgan yarim tekislikni R_f^+ deb belgilaymiz:

$$R_f^+ = \{(x,y) : y > f(x)\},$$

Quyidagi chegaraviy masalani (shuni ta'kidlash lozimki, bu masala giperbolik tipdagi tenglama uchundir) ko'rib chiqamiz:

$$[1.5] \quad \begin{cases} (1) \quad L[u] = F(x,y,), & (x,y) \in R_f^+; \\ (2) \quad u(x,y) = \phi(x,y), & (x,y) \in L_f; \\ (3) \quad \dfrac{\partial u}{\partial n}(x,y) = \psi(x,y), & (x,y) \in L_f; \end{cases}$$

($L[u]$ (1.17) formulasi bilan aniqlanadi.)

Keltirilgan chegaraviy masalaning yechimini R_f^+ da izlaymiz.

Uning ixtiyoriy $A(x_0, y_0) \in R_f^+$ nuqtada qanday qilib xisoblanilishini ko'rsatib beramiz.

Buning uchun biz A nuqtani L_f egri chiziq bilan koordinata o'qlariga parralel bo'lgan kesmalar vositasida birlashtiramiz va shu orqali kesishuv nuqtalari $B(x, y_0)$ va $C(x_0, y)$ ni hosil qilamiz. AB, AC kesmalar hamda BC yoy orasida hosil bo'lgan konturni L deb, uning ichki qismini D bilan belgilaymiz.

Qo'shma differensial operator $M[v]$ ning (bunda v - muayan bir funksiya). (1.16) formulasidan foydalanamiz.

$$\iint_D (vL[u] - uM[v])ds = \iint_D \left(\frac{\partial p_1}{\partial x} + \frac{\partial p_2}{\partial y} \right) ds$$

Buning o'ng qismini o'zgartirish uchun egri chiziqli integrallar uchun Grin formulasidan foydalanamiz:

$$\int_L Pdx + Qdy = \iint_D (Q_x - P_y ds)$$

Bu holda quyidagiga ega bo'lamiz.

$$\iint_D (vL[u] - uM[v])ds = \int_L - p_2 dx - p_1 dy = \quad \text{(kontur qismlari koordinata o'qlariga parralel)}$$

$$\int_B^C \left\{ \left[\tfrac{1}{2}(vu_y - uv_y) + auv\right] dy - \left[\tfrac{1}{2}(vu_x - uv_x) + buv\right] dx \right\} +$$

$$\int_C^A \left[\tfrac{1}{2}(vu_y - uv_y) + auv\right]dy + \int_B^A \left[\tfrac{1}{2}(vu_x - uv_x) + buv\right]dx. \qquad (1.18)$$

Ma'lumki,

$$\int_C^A \left[\tfrac{1}{2}(vu_y - uv_y) + auv\right]dy + \int_B^A \left[\tfrac{1}{2}(vu_x - uv_x) + buv\right]dx =$$

$$\underbrace{\int_C^A \left[\tfrac{1}{2}(vu_y - uv_y) + auv\right]dy}_{I_{CA}} + \underbrace{\int_B^A \left[\tfrac{1}{2}(vu_x - uv_x) + buv\right]dx}_{I_{BA}}$$

Bungacha biz v funksiyani oddiygina ikki marta uzluksiz differensiallanuvchi funksiya deb belgilagan edik. Endi $M[v]=0$ bo'lishini aniqroq aytganda quyidagi masalaning yechimi bo'lishi kerak:

$$\begin{cases} (4) \quad v_{xy} - (a(x,y)v)_x - (b(x,y)v)_y + c(x,y)v = 0, \quad x \le x_0, y \le y_0; \\ (5) \quad v(x_0, y) = \exp\{\int_{y_0}^{y} a(x_0, s)ds\}, \quad y \le y_0; \\ (6) \quad v(x, y_0) = \exp\{\int_{x_0}^{x} b(s, y_0)ds\}, \quad x \le x_0; \end{cases}$$

Bu masala [1.4] ko'rinishdagi xarakteristikalar yordamida berilgan ma'lumotlarga ega bo'lgan masaladir. Oldingi bo'lmlarda ko'rsatgan edikki uning yechimidan isbot bo'lgan va yagona bo'lgani (x,y) funksiya mavjud. Bu funksiya bizga ma'lum deb hisoblaymiz va aynan shu funksiyadan foydalanamiz.

Birinchi boshlang'ich tenglamadan $F(x,y)$ funksiyani qo'ygan holda $u(x,y)$ uchun (1.18) ifodaga qaytamiz.

$$\iint_D v(x,y)F(x,y)ds = \int_B^C \left\{ \left[\tfrac{1}{2}(vu_y - uv_y) + auv\right]dy + \left[\tfrac{1}{2}(vu_x - uv_x) + buv\right]dx \right\} + I_{CA} + I_{BA}.$$

I_{CA}, I_{BA} integrallarda koordinatalaridan biri fiksirlanganidan foydalanamiz. $v(x,y)$ uchun (4) shartdan $x = x_0$ bo'lsa, $v_y - av = 0$ bo'lishini oson aniqlash mumkin. Shunday qilib:

$$I_{CA} = \int_C^A \left[\tfrac{1}{2}(vu_y - uv_y) + auv\right]dy = \int_C^A \left[\tfrac{1}{2}(vu)_y - u(v_y - av)\right]dy = \tfrac{1}{2}(uv)\big|_A - \tfrac{1}{2}(uv)\big|_C$$

Xuddi shunday, $y = y_0$ bo'lganda $u_x - bu = 0$ ekanligini ko'rsatish mumkin. Demak,

$$I_{BA} = \int_B^A \left[\tfrac{1}{2}(vu_x - uv_x) + buv\right]dx = \int_B^A \left[\tfrac{1}{2}(vu)_x - u(v_x - bv)\right]dx = \tfrac{1}{2}(uv)\big|_A - \tfrac{1}{2}(uv)\big|_B.$$

Shunday qilib, (1.18) ifodani quyidagicha yozish mumkin.

$$\iint_D v(x,y)F(x,y)ds = \int_B^C \left\{ \left[\tfrac{1}{2}(vu_y - uv_y) + auv\right]dy - \right.$$

$$\left. \left[\tfrac{1}{2}(vu_x - uv_x) + buv\right]dx \right\} + uv\big|_A - \tfrac{1}{2}(uv)\big|_C - \tfrac{1}{2}(uv)\big|_B.$$

Bundan $A(x_0, y_0)$ nuqtada $u(x,y)$ funksiyasini qiymatini aniqlash mumkin:

$$u(x_0,y_0)v(x_0,y_0) = -\int\limits_B^C \left\{ \left[\tfrac{1}{2}(vu_y - uv_y) + auv\right]dy - \right.$$

$$\left.\left[\tfrac{1}{2}(vu_x - uv_x) + buv\right]dx \right\} + \tfrac{1}{2}(uv)\Big|_C + \tfrac{1}{2}(uv)\Big|_B + \iint\limits_D v(x,y)F(x,y)ds.$$

$v(x,y)$ ning (5),(6) chegaraviy shatrlardan $v(x_0,y_0)=1$ ekanligi kelib chiqadi.

U holda

$$u(x_0,y_0) = -\int\limits_B^C \left\{ \left[\tfrac{1}{2}(vu_y - uv_y) + auv\right]dy - \left[\tfrac{1}{2}(vu_x - uv_x) + buv\right]dx \right\} + \tfrac{1}{2}(uv)\Big|_C + \tfrac{1}{2}(uv)\Big|_B +$$

$$+\iint\limits_D v(x,y)F(x,y)ds$$

hosil bo‘ladi. Bu $u(x_0,y_0)$ uchun yakuniy formuladir. Konturdagi xususiy hosilalar $u(x,y)$ bizga noaniq ekanligi ko‘rinishi mumkin. Ularni (2),(3) chegaraviy shartlardan topish mumkinligini ko‘rsatamiz:

$$\begin{cases} u(x, f(x)) = \phi(x, f(x)); \\ \dfrac{\partial u}{\partial n}(x, f(x)) = \varphi(x, f(x)); \end{cases}$$

L_f ga o‘rinmaning birlik vektori $\bar{\tau}$ quyidagi ko‘rinishga ega:

$$\bar{\tau} = \left\{ \frac{1}{\sqrt{1+(f'(x))^2}}; \frac{f'(x)}{\sqrt{1+(f'(x))^2}} \right\}.$$

Bundan quyidagini hosil qilamiz:

$$\frac{\partial u}{\partial n}(x,y) = \frac{\partial u}{\partial n}\frac{1}{\sqrt{1+(f'(x))^2}} + \frac{\partial u}{\partial y}\frac{f'(x)}{\sqrt{1+(f'(x))^2}}$$

$\dfrac{\partial u}{\partial \tau}$ quyidagi o‘zgartirishlardan topiladi.

$$\frac{\partial}{\partial n}u(x, f(x)) = u_x(x, f(x)) + u_y(x, f(x))f'(x) = \sqrt{1+(f'(x))^2}\,\frac{\partial u}{\partial \tau}(x,y).$$

Ma’lumki,

$$\frac{\partial y}{\partial n} = (\vec{n}, grad u).$$

L_j ga normalning, $\bar{\tau}$ vektorga ortogonal bo‘lgan birlik vektori quyidagicha hisoblanadi:

$$\vec{n} = \left\{ \frac{f'(x)}{\sqrt{1+(f'(x))^2}}; -\frac{1}{\sqrt{1+(f'(x))^2}} \right\}.$$

Bundan:

$$\frac{\partial u}{\partial n}(x,y) = \frac{\partial u}{\partial n}\frac{f'(x)}{\sqrt{1+(f'(x))^2}} - \frac{\partial u}{\partial y}\frac{1}{\sqrt{1+(f'(x))^2}}$$

Yuqoridagilarga asoslanib, chegaraviy shartlardan L konturda $u(x,y)$ ni topish uchun sistemani hosil qilamiz.

$$\begin{cases} \dfrac{\partial}{\partial x}\phi(x, f(x)) = \dfrac{\partial u}{\partial x} + \dfrac{\partial u}{\partial y} f'(x) \\ \varphi(x, f(x)) = \dfrac{\partial u}{\partial x}\dfrac{f'(x)}{\sqrt{1+(f'(x))^2}} - \dfrac{\partial u}{\partial y}\dfrac{1}{\sqrt{1+(f'(x))^2}} \end{cases}$$

Uning determinanti hech qayerda 0 ga teng emas. Bundan kelib chiqadiki, $u_x(x,y)$, $u_y(x,y)$ lar mavjud va ular bir qiymatli aniqlanishi mumkin.

Shunday qilib, biz (1.19) formula to‘g’riligini asosladik. Uni hosil qilish uchun qo‘llaniladigan usul **Riman usuli** deyiladi.

Eslatma: Dalamber formulasi (1.19) formulaning xususiy holidan iborat uzluksiz umumlashtirilgan yechim.

Shunday hollar bo‘ladiki, amaliy masalalarning yechimlari bo‘ladi. Bunday yechimlar ushbu kursdagi standart formulalar yordamida hosil qilib bo‘lmaydi. Ammo, ularni masalan, oddiy yechimlarning chegarasidek tasvirlash mumkin.

4. Limitga o‘tish shaklidagi umumlashgan yechimlar

Umumiy yondoshuv: $L[u]=0$ tenglamadan topish lozim bo‘lgan u funksiya berilgan va bunda shu funksiyaga ba’zi bir F va F funksiyalar ko‘rinishida shartlar qo‘yilgan bo‘lsin.Agar bu masala yechimga ega bo‘lmasa, masalan, $F \notin C^2, \hat{O} \notin C^2$ bo‘lganligi tufayli bu holda biz tekis yaqinlashuvchi ketma-ketliklar $F_n \Rightarrow F, \hat{O}_n \Rightarrow \hat{O}$ ni tuzamiz.Bu yerda $F \notin C^2, \hat{O} \notin C^2$.Shunda agar F_n va $\hat{O}_n$ funksiyalarga mos keluvchi yechim (u_n) mavjud bo‘lsa u sifatida u_n funksiyalarning limitini olamiz:

$$u = \lim_{n\to\infty} u_n$$

Bunda u_n ketma-ketlik u ga tekis yaqinlashish sharti bajarilgan.

Misol. Bizlarga berilgan giperbolik tenglama uchun Koshi masalasini ko‘rib chiqamiz:

- Hamma o‘z do‘stlarini tinglashi kerak, unga yaxshi munosabatda bo‘lib hurmar ko‘rsatishi kerak;
- Hamma aktiv harakat qilishi lozim; berilgan topshiriqqa nisbatan birgalikda va javobgarlik bilan ishlashi kerak;
- Har kim o‘ziga kerak paytda yordam so‘rashi kerak;
- Har kim undan yordam so‘ralganda yordam ko‘rsatishi kerak;
- Guruhning ish natijalarini baholashda ishtirok etishi lozim;
- Biz bir kemadamiz, o‘zgalarga yordam berib o‘zimiz o‘rganamiz, shuni har kim tushunishi lozim;

Mavzu 10. “ Laplas va Puasson tenglamalari. Grin formulasi.”

Ma`ruzaga reja-topshiriqlar

Fan: Matematik fizika tenglamalari

O‘quv soati: 2 soat (ma`ruza);

O‘quv mashg’uloti turi: ma`ruza; yangi bilimlarni mustahkamlash va o‘rganish.

Ma`ruza rejasi:

1. Laplas va Puasson tenglamalari. Chegaraviy masalalarning qo‘yilishi. Laplas tenglamasining fundamental yechimi.
2. Birinchi Grin formulasi.
3. Grinning ikkinchi formulasi.
4. Grinning uchinchi formulasi.Tayanch iboralar: Laplas, Puasson, Grin, tenglama, fundamental yechim, formula,

O‘quv mashg’uloti maqsadi:

O‘quv fani to‘g’risida umumiy ta`surotlar berish, Xususiy hosilali tenglamalarva keyinchalik kasbiy faoliyatidagi roli.

O‘quv mashg’uloti masalalari:

- *O‘rgatuvchi*: talabalarda qabul qilish faoliyatini tashkil qilish, yangi materialni boshlang’ich esda qoldirish va anglash; Matematik fizika tenglamalarining terminlari, iboralarini xarakterlovchi elementlar; talabalarning matematik firlashini rivojlantirish muammoli masalalarni yechimini mahoratini oshirish; matematik masalalarni yechishda matematik simvollarning hususiyatlari bilan tanishtirish;
- *Rivojlantiruvchi*: kitob matni bilan ishlay bilishligi – mag’zlarini tanlab olish, tahlil qilish; gaplar tuzish, hulosa chiqarish, materialni talabalarning izlash faoliyatini stimullashtirish; hususiydan umumiy holga o‘tish usuli bilan tekshirish; tekshirish natijalarini tahlil qilib va uni umumlashtira olishini rivojlantirish; analitik-sintetik

faoliyatning mantiqiy fikrlashini qo‘llash; talabalarning ijodiy mahoratini shakillantirish;
- *Tarbiyalovchi:* aktiv faoliyatga, mustaqil ishga jalb qilish; guruhlarda ishlash qoidalariga rioya qila olish; fanni o‘rganishga qiziqishni rivojlantirish; Matematik fizika tenglamalarini matematik-komunikativ kursni bir qismi sifatida tassavur berish; javobgarlik tuyg’ularini tarbiyalash, mehnatsevarlik, individual ishni jamoaviy ish bilan biriktirish, intizomlashtirish.

O‘qitish texnologiyasi:

- *O‘qutish usullari*: instruktaj; Ma`ruza, aqliy hujum, “Insert” texnikasi;
- *O‘qitish shakillari*: frontal; jamoaviy;
- *O‘qitish vositalari*: Ma`ruza matni; jadvallar, multimediya;
- *O‘qitish sharoitlari*: texnik jihozlashtirilgan auditoriya;
- *Baholash va monitoring*: o‘g’zaki savol-javob, blits-so‘rov.

Pedagogik masalalar:

- Fanning masalalari va uning o‘quv fanlar sistemasidagi o‘rni va roli bilan tanishtirish;
- O‘quv fanning tuzulmasi va tavsiya etiladigan o‘quv-metodik adabiyotlarni tasvirlash;
- Fan sohasida metodik va tashkiliy xususiyatlarini ochib berish, baholash shakli va muddatlari;
- Fan ma`ruzasi paytida o‘qitish jarayonini tashkil qilishning umumiy bosqichlarini xarakterlab berish va umumiy sxemasini tushuntirish.
- O‘qitish texnologiyasi rivojlanishi perspektivasini xarakterlab berish;

O‘quv faoliyati natijalari:

- Fan ma`ruzasi masalalari, maqsadlari va nomlari shakillanadi;
- Xususiy hosilali tenglamalardoirasidagi yutuqlar yoritiladi;
- Fan sohasida metodik va tashkiliy xususiyatlari hamda baholash shakli va muddatlari aytiladi
- Fan ma`ruzasida o‘qitish jarayonini tashkil qilishning umumiy sxemasini kengaytirib xatakterlab beradi;
- Fanning asosiy ta`riflarini beradi, Xususiy hosilali tenglamalarfani ma`ruzalarining asosiy yo‘nalishlari beriladi;
- Nazariy bilimlarning to‘liqligi, sistemaliyligi va harakatliyligi;
- Amaliy mag’ulotlarni bajarishda o‘rganilgan iboralarbilan ishlay olishligi;

- **1.2. Ma`ruzaning xronologik xaritasi**

- **1 bosqich. O‘quv mashg’ulotiga kirish (10 daqiqa):**

- *O‘qituvchining faoliyati*: tayyorgarlikni tekshirish (davomat, konspektning borligi; o‘ziga ishonch, aniqligi,); kerakli materiallarni tarqatish (konspekt, tarqatma materiallar); ma`ruzaning mavzusi va maqsadini bayon qilish; o‘quv mashg’ulotning rajasi bilan tanishtirish; kalit iboralar va so‘zlar, kategoriyalar; internet saytlari va adabiyotlar ro‘yhati; o‘quv natijalari haqida aytish;
- *Talabalar faoliyati*: o‘quv joyini tayyorlash (talabalar borligi; tashqi ko‘rinish; o‘quv materiallar va qo‘llanmalar); ma`ruzaning mavzusi va maqsadi bilan tanishish; o‘quv materialini qabul qilishga tayyorgarlik ko‘rish;
- *Shakillar*, *usular*, *uslublar*: instruktaj; frontal so‘rov; mustahkamlovchi so‘rov.

2 bosqich. Asosiy qism (60 daqiqa):

- *O'qituvchining faoliyati*: mavzuga kiritadi; yangi mavzuga doir o'tgan fanlar va mashg'ulotlarning mavzularini eslashga chorlaydi; ma`ruza matnini tarqatadi, tanishishni taklif etadi, "Insert" usuli bilan belgilar qo'yishni taklif etadi; birinchi savol bo'yicha matn o'qiladi; qo'shimcha o'quv materiallarini aytib boorish va tushuncha berish; natural obektlarni namnoyon qilish va izohlash; tushunarsiz savollarni aniqlash va tushintirish; birinchi savol bo'yicha nazar (shunday qilib qolgan savollarga ham);
- *Talabalar faoliyati*: yangi mavzuda doir oldingi mashg'ulotlarda va fanlarda olgan bilimlarni mustahkamlaydi,; har bir kalit ibora va terminlarni eshitib, yozib borib, konspekt qilib aytib borishadi; "Insert" usuli bilan belgilan o'qiydilar, aniqlik kiritadilar, savollar beradilar va o'zaro;
- *Shakillar, usular, uslublar*: frontav so'rov blits-so'rov; aqliy hujum, "Insert" texnikasi.

3 bosqich. Yakunlovchi qism (10 daqiqa)

- *O'qituvchining faoliyati:* mavzu bo'yicha hulosa qilish, talabalarning e`tiborlarini asosiylarda jalb qilish; qilingan ishning muhimligini aytib o'tish; alohida talabalarning bajarilgan ishlarini baholash; o'zaro baholashning natijalarini chiqarish; o'quv mashg'ulotning yutuqlik darajasini baholash va tahlil qilish; mustaqil ish uchun topshiriqlar; baho ko'rsatgichlari va me`zonlari;
- *Talabalar faoliyati: ishning* tahlili; natijalarni olish; texnologik bilimlarni qo'llash; o'zaro baholashni o'tkazish, yo'l qo'yilgan hatolar bo'yicha tahlil va aniqlik kiritish; mustaqil ish topshiriqlarini yozib olish;
- *Shakillar, usular, uslublar*: guruhlarda ishlash, kartochkalarda topshiriqlar.

1.3. O'quv-metodik materiallar

Ma`ruza rejasi:

1. Laplas va Puasson tenglamalari. Chegaraviy masalalarning qo'yilishi. Laplas tenglamasining fundamental yechimi.
2. Birinchi Grin formulasi.
3. Grinning ikkinchi formulasi.
4. Grinning uchinchi formulasi.Tayanch iboralar: Laplas, Puasson, Grin, tenglama, fundamental yechim, formula,

Tayanch iboralar*:* Koshi masalasi, mavjudlik teoremasi, yagonalik teoremasi. *issiqlik o'tkazuvchanlik tenglamasi , birinchi chegaraviy masala, Koshi masalasi, ikkinchi chegaraviy masal, Grin funksiyasi*

1.3.1. Ma`ruza matni

E^3 fazoga qarashli qandaydir Ω ochiq soxaning chegarasi $\sum$ bo'lsin. Xuddi shunday, E^2 fazodagi qandaydir D ochiq soxa chegarasi L bo'lsin.

1. Laplas va Puasson tenglamalari. Chegaraviy masalalarning qo'yilishi. Laplas tenglamasining fundamental yechimi.

Issiqlikni o'tkazuvchanlik tenglamasini qaraymiz:

$$u_t(x,y,z,t) = a^2\Delta u(x,y,z,t) + f_1(x,y,z),\ (x,y,z)\in\Omega;\quad \Delta u = u_{xx}+u_{yy}+u_{yy};$$

$$u_t(x,y,t)) = a^2\Delta u(x,y,t) + f_2(x,y),\ (x,y)\in D;\quad \Delta u = u_{xx}+u_{yy.}$$

Stasionar issiqlik prosess holidagi $(u_t \equiv 0)$ elliptik tipdagi tenglamani tuzamiz :

$\Delta u = -f$

Bu xolda umumiy ko'rinishidan quyidagi ikki tip tenglama hosil bo'ladi :

$$\frac{\partial^2 u}{\partial x^2}+\frac{\partial^2 u}{\partial y^2}+\frac{\partial^2 u}{\partial z^2}=-f(x,y,z),\ E^3$$ **fazoda Puasson tenglamasi.**

$$\frac{\partial^2 u}{\partial x^2}+\frac{\partial^2 u}{\partial y^2}=-f(x,y),\quad E^2$$ **fazoda Puasson tenglamasi.**

$$\frac{\partial^2 u}{\partial x^2}+\frac{\partial^2 u}{\partial y^2}+\frac{\partial^2 u}{\partial z^2}=0,\ E^3$$ **fazoda Laplas tenglamasi.**

$$\frac{\partial^2 u}{\partial x^2}+\frac{\partial^2 u}{\partial y^2}=0,\quad E^2$$ **fazoda Laplas tenglamasi.**

Bu tenglamalar ko‘pincha turli stasionar fizik maydonlarni ta’riflashda yordam beradi .

Ta’rif. $u(x,y,z)$funksiya Ω, soxada garmonik deyiladi, agar

$$u\in c^2(\Omega)\quad v\grave{a}\quad \Omega\quad d\grave{a}\quad \Delta u\equiv 0$$

Kompleks o‘zgaruvchili fuknsiya analitikligidan, ikki o‘zgaruvchili garmonik funksiyani tuzish mumkin. Agar $f(x,y)=u(x,y)+iv(x,y)$ analitik bo‘lsa, v funksiya uchun Koshi-Riman xossalari bajariladi : $\begin{cases} u_x(x,y)=v_y(x,y); \\ u_y(x,y)=-v_x(x,y) \end{cases}$

Yuqoridagi tenglamani x bo‘yicha, pastki tenglamani y bo‘yicha differensiallaymiz:

$$\begin{cases} u_{xx}(x,y)=-v_{xy}(x,y) \\ u_{yy}(x,y)=-v_{xy}(x,y) \end{cases}.\Rightarrow u_{xx}+u_{yy}=0$$

Xuddi shunday tenglamani v funksiya uchun hosil qilish mumkin.Bundan xulosa qilish mumkinki, $f(z)=u(x,y)+iv(x,y)$-analitik funksiya bo‘lsa ,u holda ,u,v- garmonik funksiya bo‘ladi.

Keyinchalik biz fazoda quyidagi masalalarni qaraymiz:

Dirixle ichki masalasi

$$\begin{cases} \Delta u(x,y,z)=0, & (x,y,z)\in\Omega \\ u(x,y,z)=\mu(x,y,z), & (x,y,z)\in\Sigma \end{cases}$$

Neyman ichki masalasi $\begin{cases} \Delta u(x,y,z)=0, & (x,y,z)\in\Omega \\ \frac{\partial u}{\partial n}(x,y,z)=v(x,y,z), & (x,y,z)\in\Sigma \end{cases}$

Dirixle tashqi masalasi $\begin{cases} \Delta u(x,y,z)=0, & (x,y,z)\in E^3\setminus\bar{\Omega} \\ u(x,y,z)=\mu(x,y,z), & (x,y,z)\in\Sigma \end{cases}$

Neyman tashqi masalasi $\begin{cases} \Delta u(x,y,z)=0, & (x,y,z)\in E^3\setminus\bar{\Omega} \\ \frac{\partial u}{\partial n}(x,y,z)=v(x,y,z), & (x,y,z)\in\Sigma \end{cases}$

Berilgan masalalarni Puasson tengligi uchun qo‘llash tabiiydir. Bundan tashqari, ikki o‘lchovli analoglar ham mavjud. Masalan:

$\begin{cases} \Delta u(x,y,z)=0,(x,y,z)\in D; \\ u(x,y,z)=\mu(x,y,z)(x,y,z)\in L \end{cases}$ E^2-fazoda Dirixli ichki masalasi

$$u(x,y,z)=\frac{1}{R_{MM_0}}=\frac{1}{\sqrt{(x-x_0)^2+(y-y_0)^2+(z-z_0)^2}}$$ funksiyani qaraylik

($R_{MM_0}-M(x,y,z)$va $M_0(x_0,y_0,z_0)$ nuqtalar orasidagi masofa) Keltirilgan funksiya $E^3\setminus M_0$ soxada Laplas tenglamasining yechimi bo‘lishini isbotlaymiz.

$$u_x=-\frac{1}{2}\frac{2(x-x_0)}{R^3_{MM_0}}=-\frac{x-x_0}{R^3_{MM_0}};u_{xx}=-\frac{3(x-x_0)^2}{R^5_{MM_0}}-\frac{1}{R^5_{MM_0}}$$

$$u_y=-\frac{1}{2}\frac{2(y-y_0)}{R^2_{MM\,0}}=-\frac{y-y_0}{R_{MM\,0}};u_{yy}=-\frac{3(y-y_0)}{R^5_{MM\,0}}-\frac{1}{R^5_{MM\,0}}$$

$$u_z=-\frac{1}{2}\frac{2(z-z_0)}{R^3_{MM\,0}}=-\frac{z-z_0}{R^3_{MM\,0}};u_{zz}=-\frac{3(z-z_0)}{R^5_{MM\,0}}-\frac{1}{R^5_{MM\,0}}$$

$$\Rightarrow\Delta\frac{1}{R_{MM\,0}}=\frac{3(x-x_0)^2+3(y-y_0)+3(z-z_0)}{R^5_{MM\,0}}-\frac{3}{R^3_{MM\,0}}\equiv 0$$

E^3 fazoda quyidagi funksiyani tekshirish oson:

$$u(x,y)=\ln\frac{1}{P_{MM\,0}}$$

qachonki $P_{MM\,0}=\sqrt{(x-x_0)}^2+(y-y_0)^2$ $E^2\setminus M_0$ da Laplas tenglamasining yechimi bo‘ladi. Bu funksiyalar Laplas tenglamasining fundamental yechimi deyiladi.

Birinchi va ikkinchi Grin formulalari.

2. Birinchi Grin formulasi.

Faraz qilaylik chekli sondagi yopiq qismlardan iborat bo‘lib, har bir nuqtada o‘rinmaga ega bo‘lib, bu o‘rinmalar koordinata o‘qlariga parallel bo‘lsa, shunda ular yo chekli sondagi nuqtalarda kesishadi yo kesishishdan xosil bo‘lgan yopiq oraliqlar chekli bo‘ladi.U holda Ω soxa uchun $\vec{A}(x,y,z)=\{P(x,y,z),Q(x,y,z),R(x,y,z)\}$, bu yerda $P,Q,R\in C^1(\overline{\Omega})$Ostrogradskiy- Gauss formulasi o‘rinli:

$$\iint_\Sigma(\vec{A},\vec{n})d\sigma=\iiint_\Omega div\vec{A}d\tau \quad (10.1)$$

$u(x,y,z)$ va $v(x,y,z)\in C^2(\Omega)\cap C^1(\overline{\Omega}),\vec{A}=ugradv$

berilgan bo‘lsin.Shunda (10.1) formulaga ko‘ra:

$$\iiint_\Omega div(ugradv)d\tau=\iint_\Sigma(ugradv,\vec{n})d\sigma=$$

$$=\left\{(gradv,\vec{n})=\frac{\partial v}{\partial n};div(ugradv)=(gradu,gradv)+u\Delta v\right\}$$

$$=\iint_\Sigma u\frac{\partial v}{\partial n}d\sigma\Rightarrow$$

$$\iiint_\Omega((gradu,gradv)+u\Delta v)d\tau=\iint_\Sigma u\frac{\partial v}{\partial n}d\sigma. \quad (10.2)$$

Hosil bo‘lgan formula Grinning birinchi formulasi deyiladi.

3. Grinning ikkinchi formulasi.

Birinchi Grin formulasidan u va v funksiyalarning o‘rnini almashtiramiz. Hosil bo‘lgan ayniyatni (10.2) dan ayirsak, Grinning ikkinchi formulasi kelib chiqadi:

$$\iiint_\Omega(u\Delta v-v\Delta u)d\tau=\iint_\Sigma\left(u\frac{\partial v}{\partial n}-v\frac{\partial}{\partial nu}\right)d\sigma \quad (10.3)$$

4. Grinning uchinchi formulasi.

Yuqorida ko‘rsatganimizdek

$$v=\frac{1}{R_{MM0}}=\frac{1}{\sqrt{(x-x_0)^2+(y-y_0)^2+(z-z_0)^2}}$$

E^3da Laplas tenglamasining yechimi deyiladi. $M_0\in\Omega$ nuqtani fikserlaymiz va uni ε radiusli $\sum_3$ sfera bilan aylantirib olamiz. Shunda $v\in C^2(\overline{\Omega}_\varepsilon),\Omega_\varepsilon=\Omega\setminus S_{M_0}(\varepsilon).$



Qandaydir $u\in C^2(\Omega)\cap C^1(\overline{\Omega})$. funksiya olamiz. Ω_ε soxa uchun Grinning ikkinchi formulasini yozamiz:

$$\iiint_{\Omega_\varepsilon}(u\Delta v-vv\Delta u)d\tau=\iint_{\Sigma}\left(u\frac{\partial v}{\partial n}-v\frac{\partial u}{\partial n}\right)d\sigma+\iint_{\Sigma_\varepsilon}\left(u\frac{\partial v}{\partial n}+\frac{\partial u}{\partial n}\right)d\sigma\Rightarrow\{\Delta u\equiv 0\}\Rightarrow$$

$$-\iiint_{\Omega_\varepsilon}\frac{1}{R_{MM0}}\Delta u(M)d\tau_M=\iint_{\Sigma}\left(u\frac{\partial}{\partial n}\left(\frac{1}{R_{MM0}}\right)-\frac{1}{R_{MM0}}\frac{\partial u}{\partial n}(M)\right)d\sigma_M+$$

$$+\iint_{\Sigma_\varepsilon}\left(u\frac{\partial}{\partial n}\left(\frac{1}{R_{MM0}}\right)-\frac{1}{R_{MM0}}\frac{\partial u}{\partial n}(M)\right)d\sigma_M.$$

$\varepsilon\to 0$ ikkinchi ikki karrali integralni qaraymiz.Ma’lumki, birlik $\bar{n}$ normal $\sum_\varepsilon$ sferaning $\{x,y,z\}$

nuqtasida quyidagicha bo‘ladi: $\left\{-\frac{x-x_0}{R_{MM_0}},-\frac{Y-Y_0}{R_{MM_0}},-\frac{Z-Z_0}{R_{MM_0}}\right\}$. bundan,

$$\frac{\partial}{\partial n}\left(\frac{1}{R_{MM0}}\right)=\left(\vec{n},grad\frac{1}{R_{MM0}}\right)=\frac{(x-x_0)^2}{R^4{}_{MM0}}+\frac{(y-y_0)^2}{R^4{}_{MM0}}+\frac{(z-z_0)^2}{R^4{}_{MM0}}=\frac{1}{R^2{}_{MM0}}=\frac{1}{\varepsilon^{2.}}$$

Unda bu integral quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$\iint_{\Sigma_\varepsilon}\left(u\frac{\partial}{\partial n}\left(\frac{1}{R_{MM0}}\right)-\frac{1}{R_{MM0}}\frac{\partial u}{\partial n}\right)d\sigma=\frac{1}{\varepsilon^2}\iint_{\Sigma_\varepsilon}ud\sigma-\frac{1}{\varepsilon}\iint_{\Sigma_\varepsilon}\frac{\partial u}{\partial n}d\sigma=$$

$$=u(M_\varepsilon{}')\frac{4\pi\varepsilon^2}{\varepsilon^2}-\frac{\partial u}{\partial n}(M_\varepsilon{}'')\frac{4\pi\varepsilon^2}{\varepsilon}=4\pi u(M'_\varepsilon)-4\pi\varepsilon\frac{\partial u}{\partial n}(M_\varepsilon{}''),$$

Bu yerda $M''_\varepsilon,M'_{\varepsilon-}$ nuqtalar $\sum_\varepsilon$ sferada olingan.

$\frac{\partial u}{\partial n}$ chegaraviylikni hisobga olgan holda ε nolga intiltiramiz:

$$4\pi u(M'_\varepsilon)-4\pi\varepsilon\frac{\partial u}{\partial n}(M''_\varepsilon)\xrightarrow{\varepsilon\to 0}4\pi u(M_0)$$

Qugiluvchilarni ma’lum bir qismini o‘ng tomonga o‘tkazib, $u(M_0)$uchun quyidagi formulani hosil qilamiz:

$$4\pi u\left(M_0\right) = -\iiint_{\Omega} \frac{1}{R_{MM0}} \Delta u\left(M\right) d\tau_M -$$
$$-\iint_{\Sigma} \left[u\left(M\right) \frac{\partial}{\partial n} \left(\frac{1}{R_{MM0}}\right) - \frac{1}{R_{MM0}} \frac{\partial u}{\partial n}\left(M\right) \right] d\sigma_M \tag{10.4}$$

Bu Grinning uchinchi formulasi deb ataladi.

E^2 fazoda analogik tahlillar olib borib, ikkinchi va uchinchi Grin formulalari uchun ikki o‘lchovli analoglar hosil qilish oson:

$$\iint_D (u\Delta v - v\Delta u) ds = \int_L \left(u\frac{\partial u}{\partial n} - v\frac{\partial u}{\partial n} \right) dl.$$

$$2\pi u(M_0) = -\iint_D \ln\left(\frac{1}{\rho MM_0}\right)\Delta u ds - \int_L \left[u\frac{\partial}{\partial n}\left(\ln\frac{1}{\rho MM_0}\right) - \ln\frac{1}{\rho MM_0}\frac{\partial u}{\partial n}\right] dl$$

1.3.2-a. Frontal so‘rov uchun savollar

1. Laplas tenglamasi.
2. Puasson tenglamasi.

1.3.2-b. Blits-so‘rov uchun savollar

1. Birinchi Grin formulasi.
2. Grinning ikkinchi formulasi.
3. Grinning uchinchi formulasi.

1.3.2-c. Og’zaki so‘rov uchun savollar

1. Chegaraviy masalalarning qo‘yilishi.
2. Laplas tenglamasining fundamental yechimi.

1.3.3. Mustaqil ish uchun topshiriqlar

- *takrorlash va mashqlar*: takrorlash, o‘z-o‘zini tekshirish, tahlil, qayta ishlash, mustahkamlash, eslab qolish, chuqurlashtirish;
- *yangi materiallarning mustaqil o‘zlashtirish*: yangi adabiy va internet materiallar, konspekt qo‘shimchasi; mustaqil iboralar tuzish;
- *ilmiy xaraktyerdagi ishlar*: muammoli holatlar, testlar, savollar, topshiriqlar tuzish; topshiriqlarni bajarish.

1.3.4. Kartochkalar uchun testlar

1.3.5. ekranga tayanch materiallarni ko‘rsatish(slaydlar)

- Prezentatsiya

1.3.6. Tavsiya etilgan adabiyotlar

Asosiy

1. *Saloxiddinov M.S. Matematik fizika tenglamolari. T., «O'zbekistan», 2002, 448 b.*
2. *Mixlin S.G. Kurs matematicheskoy fiziki. M, 1968,*
3. *Sobole» SL. Uravneniya matematicheskoy fiziki. M. 1966.*
4. *Bisadzs L.V. Uravneniya matematicheskoy fiziki. M. 1976.*
5. *Bisadze A.V., Kalinichenko D.F. Sbornik zadach po uravneniyam matematicheskoy fiziki. M. 1977.*

Qo'shimcha

1. *Tixonov A.P., Samarskiy A.A. Uravneniya matematicheskoy fiziki. M. 1968.*
2. *Koshlyakov B.C., Glipsr E.B., Smirnov M.M. Osnovnыye differensialnыye uravneniya matematicheskoy fiziki. M. 1962.*
3. *Vladimirov B.C. Uravneniya matematicheskoy fiziki. M. 1981.*
4. *Polojii G.11. Uravneniya matematicheskoy fiziki. M. 1964.*
5. *Petrovskiy I.G. Leksii ob uravneniyax s chastnыmi proizvodnыmi. M., 1961.*
6. *Mixlnn S.G. Leksii po lineynыm integralnыm uravneniyam. M. 1959.*
7. *Smirnov M.M. Sbornik zadach po uravneniyam matematicheskoy fiziki.*
8. *Budak B.M., Samarskiy A.A., Tixonov A.N. Sbornik zadach po matematicheskoy fizike. M. 1972.*
9. *Vladimirov 13.S, Mixaylov V.P. i dr. Sbornik zadach po uravneniyam matematicheskoy fiziki. M. 1974.*

1.4. O'qitish usullari qoidalari

1.4.1. Aqliy hujum qoidalari

- Hech qanday o'zaro baholash va tanqid;
- Taklif etilayotgan g'oyalarni baholashdan o'zingni tiy, hatto ular fantastic va iloji yo'q bo'lsa ham – hammasi mumkin;
- Tanqid qilma – hamma aytilgan g'oyalar birhirda;
- Bayon qiluvchi gapini bo'lma;
- Izoh berishdan o'zingni tiy;
- Maqsad bu - miqdor;
- Qancha g'oyalar ko'p bo'lsa chuncha yaxshi: yangi va zarur g'oya tug'ulishi imkoniyati ko'proq
- Agar g'oyalar takrorlansa o'ksinma,
- Tasavvo'ringga erk ber;
- Senda yaralgan g'oyalarni tashlama, agal ular sening nazaringda qabul qilingan sxemaga tegishli bo'lmasa ham;
- Bu muammo aniq usullar bilan yechiladi deb o'ylama.

1.4.2. "Insert" texnikasi qoidalari

- Matndi o‘qib, ularda savollat tug’dirayotgan joylarni, ularni bilimlariga mos kewlayotgan va mos kelmayotgan joylarni qalam bilan belgilab qo‘yiladi;
- “Insert” jadvalini quyidagi belgilashlar bilan to‘ldirish:
  Agar «!» bo‘lsa siz o‘z bilimingizga yoki siz o‘ylagan fikrga to‘g’ri kelayotganini o‘qiyapsiz;
  Agar «–» bo‘lsa siz o‘z bilimingizga yoki tyo‘g’ri deb o‘ylaganingizga mutlaqo zid bo‘lganini o‘qiyapsiz;
  Agar «+» bo‘lsa siz o‘qityotganingiz siz uchun yangilik;
  Agar «?» bo‘lsa, siz o‘qiyotganingiz siz uchun tushunarsiz yoki siz bu savolga yanada ko‘proq ma`lumotlar olishni istaysiz.

1.4.3. Guruhlarda ishlash qoidalari

- Hamma o‘z do‘stlarini tinglashi kerak, unga yaxshi munosabatda bo‘lib hurmar ko‘rsatishi kerak;
- Hamma aktiv harakat qilishi lozim; berilgan topshiriqqa nisbatan birgalikda va javobgarlik bilan ishlashi kerak;
- Har kim o‘ziga kerak paytda yordam so‘rashi kerak;
- Har kim undan yordam so‘ralganda yordam ko‘rsatishi kerak;
- Guruhning ish natijalarini baholashda ishtirok etishi lozim;
- Biz bir kemadamiz, o‘zgalarga yordam berib o‘zimiz o‘rganamiz, shuni har kim tushunishi lozim;

Mavzu 11. “Garmonik funksiyalarning xossalari Maksimum prinsipi. Dirixle masalasi ”

Ma`ruzaga reja-topshiriqlar

Fan: Matematik fizika tenglamalari

O‘quv soati: 2 soat (ma`ruza);

O‘quv mashg’uloti turi: ma`ruza; yangi bilimlarni mustahkamlash va o‘rganish.

Ma`ruza rejasi:

1. Garmonik funksiya xossalari
2. Garmonik funksiyalar uchun maksimum prinsipi.
3. Dirixle ichki masalasining yechimi yagonaligi va turg’unligi
4. Dirixle tashki masalasi yechimi yagonaligi. Fazoda Dirixli tashki masalasi

O‘quv mashg’uloti maqsadi:

O‘quv fani to‘g’risida umumiy ta`surotlar berish, Xususiy hosilali tenglamalarva keyinchalik kasbiy faoliyatidagi roli.

O‘quv mashg’uloti masalalari:

- *O‘rgatuvchi*: talabalarda qabul qilish faoliyatini tashkil qilish, yangi materialni boshlang’ich esda qoldirish va anglash; Matematik fizika tenglamalarining terminlari, iboralarini xarakterlovchi elementlar; talabalarning matematik firlashini rivojlantirish muammoli masalalarni yechimini mahoratini oshirish; matematik masalalarni yechishda matematik simvollarning hususiyatlari bilan tanishtirish;
- *Rivojlantiruvchi*: kitob matni bilan ishlay bilishligi – mag’zlarini tanlab olish, tahlil qilish; gaplar tuzish, hulosa chiqarish, materialni talabalarning izlash faoliyatini stimullashtirish; hususiydan umumiy holga o‘tish usuli bilan tekshirish; tekshirish

natijalarini tahlil qilib va uni umumlashtira olishini rivojlantirish; analitik-sintetik faoliyatning mantiqiy fikrlashini qo‘llash; talabalarning ijodiy mahoratini shakillantirish;

- *Tarbiyalovchi:* aktiv faoliyatga, mustaqil ishga jalb qilish; guruhlarda ishlash qoidalariga rioya qila olish; fanni o‘rganishga qiziqishni rivojlantirish; Matematik fizika tenglamalarini matematik-komunikativ kursni bir qismi sifatida tassavur berish; javobgarlik tuyg’ularini tarbiyalash, mehnatsevarlik, individual ishni jamoaviy ish bilan biriktirish, intizomlashtirish.

O‘qitish texnologiyasi:

- *O‘qutish usullari*: instruktaj; Ma`ruza, aqliy hujum, “Insert” texnikasi;
- *O‘qitish shakillari*: frontal; jamoaviy;
- *O‘qitish vositalari*: Ma`ruza matni; jadvallar, multimediya;
- *O‘qitish sharoitlari*: texnik jihozlashtirilgan auditoriya;
- *Baholash va monitoring*: o‘g’zaki savol-javob, blits-so‘rov.

Pedagogik masalalar:

- Fanning masalalari va uning o‘quv fanlar sistemasidagi o‘rni va roli bilan tanishtirish;
- O‘quv fanning tuzulmasi va tavsiya etiladigan o‘quv-metodik adabiyotlarni tasvirlash;
- Fan sohasida metodik va tashkiliy xususiyatlarini ochib berish, baholash shakli va muddatlari;
- Fan ma`ruzasi paytida o‘qitish jarayonini tashkil qilishning umumiy bosqichlarini xarakterlab berish va umumiy sxemasini tushuntirish.
- O‘qitish texnologiyasi rivojlanishi perspektivasini xarakterlab berish;

O‘quv faoliyati natijalari:

- Fan ma`ruzasi masalalari, maqsadlari va nomlari shakillanadi;
- Xususiy hosilali tenglamalardoirasidagi yutuqlar yoritiladi;
- Fan sohasida metodik va tashkiliy xususiyatlari hamda baholash shakli va muddatlari aytiladi
- Fan ma`ruzasida o‘qitish jarayonini tashkil qilishning umumiy sxemasini kengaytirib xatakterlab beradi;
- Fanning asosiy ta`riflarini beradi, Xususiy hosilali tenglamalarfani ma`ruzalarining asosiy yo‘nalishlari beriladi;
- Nazariy bilimlarning to‘liqligi, sistemaliyligi va harakatliyligi;
- Amaliy mag’ulotlarni bajarishda o‘rganilgan iboralarbilan ishlay olishligi;

- **1.2. Ma`ruzaning xronologik xaritasi**

- **1 bosqich. O‘quv mashg’ulotiga kirish (10 daqiqa):**

- *O‘qituvchining faoliyati*: tayyorgarlikni tekshirish (davomat, konspektning borligi; o‘ziga ishonch, aniqligi,); kerakli materiallarni tarqatish (konspekt, tarqatma materiallar); ma`ruzaning mavzusi va maqsadini bayon qilish; o‘quv mashg’ulotning rajasi bilan tanishtirish; kalit iboralar va so‘zlar, kategoriyalar; internet saytlari va adabiyotlar ro‘yhati; o‘quv natijalari haqida aytish;
- *Talabalar faoliyati*: o‘quv joyini tayyorlash (talabalar borligi; tashqi ko‘rinish; o‘quv materiallar va qo‘llanmalar); ma`ruzaning mavzusi va maqsadi bilan tanishish; o‘quv materialini qabul qilishga tayyorgarlik ko‘rish;
- *Shakillar, usular, uslublar*: instruktaj; frontal so‘rov; mustahkamlovchi so‘rov.

2 bosqich. Asosiy qism (60 daqiqa):

- *O‘qituvchining faoliyati*: mavzuga kiritadi; yangi mavzuga doir o‘tgan fanlar va mashg’ulotlarning mavzularini eslashga chorlaydi; ma`ruza matnini tarqatadi, tanishishni taklif etadi, “Insert” usuli bilan belgilar qo‘yishni taklif etadi; birinchi savol bo‘yicha matn o‘qiladi; qo‘shimcha o‘quv materiallarini aytib boorish va tushuncha berish; natural obektlarni namnoyon qilish va izohlash; tushunarsiz savollarni aniqlash va tushintirish; birinchi savol bo‘yicha nazar (shunday qilib qolgan savollarga ham);
- *Talabalar faoliyati*: yangi mavzuda doir oldingi mashg’ulotlarda va fanlarda olgan bilimlarni mustahkamlaydi,; har bir kalit ibora va terminlarni eshitib, yozib borib, konspekt qilib aytib borishadi; “Insert” usuli bilan belgilan o‘qiydilar, aniqlik kiritadilar, savollar beradilar va o‘zaro;
- *Shakillar, usular, uslublar*: frontav so‘rov blits-so‘rov; aqliy hujum, “Insert” texnikasi.

3 bosqich. Yakunlovchi qism (10 daqiqa)

- *O‘qituvchining faoliyati:* mavzu bo‘yicha hulosa qilish, talabalarning e`tiborlarini asosiylarda jalb qilish; qilingan ishning muhimligini aytib o‘tish; alohida talabalarning bajarilgan ishlarini baholash; o‘zaro baholashning natijalarini chiqarish; o‘quv mashg’ulotning yutuqlik darajasini baholash va tahlil qilish; mustaqil ish uchun topshiriqlar; baho ko‘rsatgichlari va me`zonlari;
- *Talabalar faoliyati: ishning* tahlili; natijalarni olish; texnologik bilimlarni qo‘llash; o‘zaro baholashni o‘tkazish, yo‘l qo‘yilgan hatolar bo‘yicha tahlil va aniqlik kiritish; mustaqil ish topshiriqlarini yozib olish;
- *Shakillar, usular, uslublar*: guruhlarda ishlash, kartochkalarda topshiriqlar.

1.3. O‘quv-metodik materiallar

Ma`ruza rejasi:

1. Garmonik funksiya xossalari
2. Garmonik funksiyalar uchun maksimum prinsipi.
3. Dirixle ichki masalasining yechimi yagonaligi va turg’unligi
4. Dirixle tashki masalasi yechimi yagonaligi. Fazoda Dirixli tashki masalasi

Tayanch iboralar: Garmonik funksiya, Dirixli ichki,tashki masalasi, Fazoda Dirixli tashki masalasi

1.3.1. Ma`ruza matni

1. Garmonik funksiya xossalari

Ta’rif. Agar u funksiya $u \in C^2(\Omega)$ va $\forall x \in \Omega$ uchun $\Delta u = 0$ bo‘lsa, Ω sohada garmonik deyiladi.

1-xossa.Agar v funksiya Ω da garmonik bo‘lsa, u holda $\iint\limits_{\tilde{\Sigma}} \frac{\partial v}{\partial n} d\sigma = 0$ bo‘ladi, bu yerda $\tilde{\Sigma}$: Ω da yotuvchi ixtiyoriy yopiq sirt.

Isboti. $\tilde{\Sigma}$ bilan chegaralangan soha uchun Grinning 1-formulasida (3.2) $u \equiv 1$ ni olamiz. (ravshanki, u -garmonik funksiya) Demak $\iint\limits_{\tilde{\Sigma}} \frac{dv}{dn} d\sigma = 0$

2-xossa. (O‘rta qiymat haqidagi teorema)

u funksiya Ω da garmonik bo‘lsin va Ω da yotuvchi markazi M_0 no‘qtada radiusi a ga teng ixtiyoriy $\sum_a$ sfera uchun

$$u(M_0) = \frac{1}{4\pi a^2} \iint\limits_{\Sigma_a} u(p) d\sigma_p \qquad (3.5)$$



formula o‘rinli.
Isbot. $\sum_a$ sferaning ichki sohasi uchun Grinning uchinchi formulasi (3.4) ni yozamiz:

$$4\pi u(M_0) = -\iint_{\Sigma_a}[u\frac{\partial}{\partial n}(\frac{1}{R_{MM_0}}) - \frac{1}{R_{MM_0}}\frac{\partial u}{\partial n}]d\sigma = \{\frac{\partial}{\partial n}(\frac{1}{R_{MM_0}}) = -\frac{1}{a^2}\} =$$
$$= \frac{1}{a^2}\iint_{\Sigma_a} u d\sigma + \iint_{\Sigma_a}\frac{1}{a^2}\frac{\partial u}{\partial n}d\sigma$$

Garmonik funksiyaning 1-xossasiga ko‘ra ikkinchi integral nolga aylanadi va shu bilan (3.5) formula isbotlandi.

3-xossa : Agar u funksiya- Ω da garmonik bo‘lsa, u holda u Ω da cheksiz differinsiallanuvchi bo‘ladi.

Isboti . $u(M_0) = u(x,y,z), (P(P_x,P_y,P_z) \in \Sigma_a)$ uchun Grinning 3-formulasini yozamiz.

$$4\pi u(x,y,z) = -\iint_{\Sigma}[u(P)\frac{\partial}{\partial n}(\frac{1}{\sqrt{(x-P_x)^2+(y-P_y)^2+(z-P_z)^2}}) - \frac{1}{\sqrt{(x-P_x)^2+(y-P_y)^2+(z-P_z)^2}}\frac{\partial u(P)}{\partial n}]d\sigma_P \qquad (11.4)$$

Ko‘rinib turibdiki: agar M no‘kta $\sum$ ning chegarasida yotmasa, u holda integral tagidagi funksiya x (xudi shuday y va z) argumentlari bo‘yicha cheksiz differinsiallanuvchi.

Ma’lumki, bu holda butun integral, demak, u(M) funksiya ham cheksiz differinsiallanuvchi funksiya.

2 Garmonik funksiyalar uchun maksimum prinsipi.

Teorema 11.1 (Maksimum prinsipi)

Agar funksiya $u \in C(\tilde{\Omega})$ va Ω da garmonik bo‘lsa, bu holda u o‘zining maksimum(minimum) iga sohaning chegarasida erishadi .

$$\max_{\underline{M \in \tilde{\Omega}}} u(M) = \max_{M \in \Sigma} u(M);$$
$$\min_{M \in \Omega} u(M) = \min_{M \in \Sigma} u(M);$$

Isboti: faraz qilaylik u(M) funksiya masalan, biror M_0 ichki no‘qtada maksimumga erishsin: : $u(M_0) = \max_{M \in \tilde{\Omega}} u(M)$ u holda (11.5) o‘rta qiymat formulasiga ko‘ra (a-yetarlicha kichik son)

$$u(M_0) = \frac{1}{4\pi a^2}\iint_{\Sigma_a} u(P)d\sigma_p \le \frac{1}{4\pi a^2}\iint_{\Sigma_a} u(M_0)d\sigma = u(M_0)$$

u funksiya uzluksiz bo‘lgani uchun, u holda $u(P) \equiv u(M_0)$, (ya’ni maksimum butun sferada erishiladi).

Bu almashtirishlarni yetarlicha marta davom ettirib, maksimum chegarada ham erishishini xosil qilamiz.

3. Dirixle ichki masalasining yechimi yagonaligi va turg'unligi

Bu yerda va keyin xam μ , v lar qandaydir berilgan funksiyalar.

Ta'rif: u(x,y,z) funksiya Dirixle ichki masalasining yechimi deyiladi, agar u quyidagi shartlarni qanoatlantirsa:

$$(11.1)\begin{cases}(1).u(x,y,z)\in C(\overline{\Omega}), u\in C^2(\Omega)\\ (2).\Delta u(x,y,z)=0,(x,y,z)\in\Omega\\ (3).u(x,y,z)=\mu(x,y,z),(x,y,z)\in\sum\end{cases}$$

Ω da uzluksiz va garmonik yechimning yagonalik hakidagi teoremani isbotlaymiz:

Teorema. 11.2 (yagonaligi teoremasi)

$u_1(x,y,z),u_2(x,y,z)$ funksiya [11.1] Dirixle ichki masalasining yechimlari bo'lsin. U holda $u_1(x,y,z)=u_2(x,y,z);\forall(x,y,z)\in\overline{\Omega}$.

Isboti: $\upsilon=u_1-u_2$ yangi funksiyalarni aniqlaymiz. Oson ko'rinadiki, u $\overline{\Omega}$ da uzluksiz, Ω da garmonik va $\upsilon(x,y,z)=0,(x,y,z)\in\sum$.

U holda υ funksiya uchun maksimum prinsipining hamma shartlarini qanoatlantirgan va bundan quyidagi kelib chiqadi:

$$\left.\begin{matrix}\max\limits_{\Omega} v=\max\limits_{\Sigma} v=0\\ \min\limits_{\Omega} v=\min\limits_{\Sigma} v=0\end{matrix}\right\}\Rightarrow v(x,y,z)\equiv 0,(x,y,z)\in\Omega$$

teorema isbotlandi.

Endi Dirixle ichki masalasini yechimi turgunligini ko'rsatamiz. Lekin undan avval quyidagi lemmani isbot qilamiz:

Lemma 1. $u_1(x,y,z),u_2(x,y,z)$ funksiyalar quyidagi uchta shartlarni qanoatlantirsin:

1. $u_1,u_2\in C(\overline{\Omega})$;
2. $u_1,u_2-\Omega$ da garmonik
3. $u_1(x,y,z)\ge u_2(x,y,z),(x,y,z)\in\Sigma$

U xolda $u_1\ge u_2,\forall(x,y,z)\in\Omega$

Isboti: $\upsilon=u_1-u_2$ funksiyani qaraymiz. U holda $v(x,y,z)\ge 0$, $\forall(x,y,z)\in\sum$. Minimum prinsipidan foydalanib (ravshanki barcha shartlar bajarilgan) $\overline{\Omega}$ da $\min\limits_{\overline{\Omega}} v=\min\limits_{\Sigma} v\ge 0\Rightarrow u_1\ge u_2$ ni olamiz.

Lemma isbotlandi.

Teorema 11.3 (turg'unlik teoremasi). $u_1(x,y,z),u_2(x,y,z)$ funksiyalar quyidagi shartlarni qanoatlantirsin:

$$\begin{cases}(1)u_1,u_2\in C(\overline{\Omega})\cap C^2(\Omega);\\ (2)\Delta u_1(x,y,z)=\Delta u_2(x,y,z)=0,(x,y,z)\in\Omega;\\ (3)u_i(x,y,z)=\mu_i(x,y,z),(x,y,z)\in\Sigma, i=1,2.\end{cases}$$

U holda $\max\limits_{\Omega}|u_1-u_2|\le\max\limits_{\Sigma}|\mu_1-\mu_2|$ bo'ladi.

Isboti. $\varepsilon=\max\limits_{\Sigma}|\mu_1-\mu_2|, v=u_1-u_2$ belgilash olamiz. U holda v funksiya Ω da garmonik, $-\varepsilon\le v\le\varepsilon;(x,y,z)\in\Sigma,$ U holda (-ε, v) va (ε, v) funksiyalar jufti uchun lemmani qo'llab (ravshanki uning shartlari bajariladi) $\overline{\Omega}$ da

$-\varepsilon \le v \le \varepsilon; (x,y,z) \in \overline{\Omega} \Rightarrow |u_1 - u_2| \le \varepsilon$ ni olamiz.
teorema isbotlandi.
Natija.
$u_n(x,y,z)$ funksiyalar ketma-ketligi ,har bir funksiya hamda $u\ (x,y,z)$ mos $\sum$ da $u_n = \mu_n$, Ω da u=μ Dirixle masalasi yechimi bo‘lsin. U holda μ_n ning tekis yaqinlashishidan $\sum$ da $\mu_n(\mu_n \Rightarrow \mu)$, Ω da $u_n \Rightarrow u$ kelib chiqadi.
Eslatma. Isbotlangan teorema ikki ulchamli hol uchun to‘lik o‘rinli. Bunga ishonch hosil qilish uchun shunga uxshash muloxazalar yuritish kerak.Endi Dirixli masalasining boshqa varianti- Dirixli tashqi masalasini qaraymiz.
4. Dirixle tashki masalasi yechimi yagonaligi
Fazoda Dirixli tashki masalasi
Ta’rif. $u(x,y,z)$ funksiya fazodagi Dirixle tashki masalasining yechimi deyiladi, agar u quyidagi shartlarni qanoatlantirsa:

$$\begin{cases} (1) u(x,y,z) \in C(\mathrm{E}^3 \setminus \Omega); \\ (2) \Delta u(x,y,z) = 0, (x,y,z) \in \mathrm{E}^3 \setminus \overline{\Omega}; \\ (3) u(x,y,z) = \mu(x,y,z), (x,y,z) \in \Sigma. \\ (4) u(x,y,z) \Rightarrow 0, (x,y,z) \to \infty \end{cases}$$

Uzluksiz yechimning yagonaligini isbotlaymiz:
Teorema 11.4 (yagonalig teoremasi). $u_1, u_2(x,y,z)$ funksiyalar quyidagi shartlarni qanoatlantirsin:

$$\begin{cases} (1) u_1, u_2(x,y,z) \in C(\mathrm{E}^3 \setminus \Omega); \\ (2) \Delta u_1(x,y,z) = \Delta u_2(x,y,z), (x,y,z) \in \mathrm{E}^3 \setminus \overline{\Omega}; \\ (3) u_1, u_2(x,y,z) = \mu(x,y,z), (x,y,z) \in \Sigma. \\ (4) u_1, u_2(x,y,z) \Rightarrow 0, (x,y,z) \to \infty \end{cases}$$

U holda $u_1(x,y,z) = u_2(x,y,z), (x,y,z) \in \Sigma^3 \setminus \overline{\Omega}$ bo‘ladi.
Isboti. $v(x,y,z) = u_{1(}(x,y,z) - u_2(x,y,z)$ bo‘lsin. U holda v funksiya teoremaning $\mu(x,y,z) \equiv 0$ shartini qanoatlantiradi. $v \equiv 0$ ekanligini isbotlaymiz; Teskarisini faraz qilaylik, ya’ni,
$\exists M_0(x_0, y_0, z_0) \in \mathrm{E}^3 \setminus \overline{\Omega} : v(x_0, y_0, z_0) = A > 0$ bo‘lsin.
U holda tekis yaqinlashish ta’rifiga ko‘ra M_0 no‘qtani to‘la uz ichiga oluvchi R radiusli shunday Σ_R sfera mavjudki $|v(x,y,z)| \le \frac{A}{2}, (x,y,z) \in \Sigma_R$, u holda

$$\begin{matrix} \max\limits_{\Sigma_R} v(x,y,z) \le \frac{A}{2}; \\ \min\limits_{\Sigma_R} v(x,y,z) \ge -\frac{A}{2}. \end{matrix}$$ bo‘ladi.

v funksiya ga Ω_R ochik sohada maksimal qiymat prinsipini qo‘llab (bu soha tashqarisidan Σ_R bilan ichkarisidan- $\sum$ bilan chegaralangan):

$$\left\{\begin{array}{l}\max\limits_{\overline{\Omega}_R} v = \max\limits_{\Sigma\cup\Sigma_R} v \le \dfrac{A}{2};\\ \min\limits_{\overline{\Omega}_R} v = \min\limits_{\Sigma\cup\Sigma_R} v \le -\dfrac{A}{2};\end{array}\right. \Rightarrow |v(x_0, y_0, z_0)| \le \frac{A}{2}. \qquad \text{ni olamiz.}$$

$v(x_0, y_0, z_0) = A$ bilan qarama-qarshilikga kelamiz.U holda $v(x, y, z) = 0$ ekanligi kelib chikadi. Teorema isbotlandi.

Misol. $\begin{array}{l}\Omega : x^2 + y^2 + z^2 < a^2;\\ \Sigma : x^2 + y^2 + z^2 = a^2.\end{array}$ bo‘lsin.

Endi quyidagi Dirixli tashki masalasini qaraymiz.

$1. u \in C(\mathrm{E}^3 \setminus \overline{\Omega});$

$2. u - \mathrm{E}^3 \setminus \overline{\Omega}$ da garmonik funksiya

$3. u(x, y, z) = C = const, (x, y, z) \in \Sigma.$

Oson ko‘rish mumkinki $u_1(x, y, z) = C$ va $u_2(x, y, z) = \dfrac{Ca}{\sqrt{x^2 + y^2 + z^2}}$ funksiyalar berilgan masalaning yechimlari bo‘ladi, lekin $u_1 \ne u_2$,shuning uchun bu qo‘yilgan shartlar masala yechimi yagonaligiga zid.

1.3.2-a. Frontal so‘rov uchun savollar

1. Dirixli tashki masalasining yechimi ta’rifi.

1.3.2-b. Blits-so‘rov uchun savollar

1. Garmonik funksiya ta’rifi.
2. Garmonik funksiya xossalari.
3. Maksimum prinsipi teoremasi.

1.3.2-c. Og’zaki so‘rov uchun savollar

1. Dirixle ichki masalasining yechimi yagonaligi teoremasi.
2. Dirixle ichki masalasining yechimi turg’unligi teoremasi.
3. Dirixle tashki masalasi yechimi yagonaligi teoremasi.

1.3.3. Mustaqil ish uchun topshiriqlar

- *takrorlash va mashqlar*: takrorlash, o‘z-o‘zini tekshirish, tahlil, qayta ishlash, mustahkamlash, eslab qolish, chuqurlashtirish;
- *yangi materiallarning mustaqil o‘zlashtirish*: yangi adabiy va internet materiallar, konspekt qo‘shimchasi; mustaqil iboralar tuzish;
- *ilmiy xaraktyerdagi ishlar*: muammoli holatlar, testlar, savollar, topshiriqlar tuzish; topshiriqlarni bajarish.

1.3.4. Kartochkalar uchun testlar

1.3.5. ekranga tayanch materiallarni ko‘rsatish(slaydlar)

- Prezentatsiya

1.3.6. Tavsiya etilgan adabiyotlar

Asosiy

1. *Saloxiddinov M.S. Matematik fizika tenglamolari. T., «O'zbekistan», 2002, 448 b.*
2. *Mixlin S.G. Kurs matematicheskoy fiziki. M, 1968,*
3. *Sobole» SL. Uravneniya matematicheskoy fiziki. M. 1966.*
4. *Bisadzs L.V. Uravneniya matematicheskoy fiziki. M. 1976.*
5. *Bisadze A.V., Kalinichenko D.F. Sbornik zadach po uravneniyam matematicheskoy fiziki. M. 1977.*

Qo'shimcha

1. *Tixonov A.P., Samarskiy A.A. Uravneniya matematicheskoy fiziki. M. 1968.*
2. *Koshlyakov B.C., Glipsr E.B., Smirnov M.M. Osnovnыye differensialnыye uravneniya matematicheskoy fiziki. M. 1962.*
3. *Vladimirov B.C. Uravneniya matematicheskoy fiziki. M. 1981.*
4. *Polojii G.11. Uravneniya matematicheskoy fiziki. M. 1964.*
5. *Petrovskiy I.G. Leksii ob uravneniyax s chastnыmi proizvodnыmi. M., 1961.*
6. *Mixlnn S.G. Leksii po lineynыm integralnыm uravneniyam. M. 1959.*
7. *Smirnov M.M. Sbornik zadach po uravneniyam matematicheskoy fiziki.*
8. *Budak B.M., Samarskiy A.A., Tixonov A.N. Sbornik zadach po matematicheskoy fizike. M. 1972.*
9. *Vladimirov 13.S, Mixaylov V.P. i dr. Sbornik zadach po uravneniyam matematicheskoy fiziki. M. 1974.*

1.4. O'qitish usullari qoidalari

1.4.1. Aqliy hujum qoidalari

- Hech qanday o'zaro baholash va tanqid;
- Taklif etilayotgan g'oyalarni baholashdan o'zingni tiy, hatto ular fantastic va iloji yo'q bo'lsa ham – hammasi mumkin;
- Tanqid qilma – hamma aytilgan g'oyalar birhirda;
- Bayon qiluvchi gapini bo'lma;
- Izoh berishdan o'zingni tiy;
- Maqsad bu - miqdor;
- Qancha g'oyalar ko'p bo'lsa chuncha yaxshi: yangi va zarur g'oya tug'ulishi imkoniyati ko'proq
- Agar g'oyalar takrorlansa o'ksinma,
- Tasavvo'ringga erk ber;
- Senda yaralgan g'oyalarni tashlama, agal ular sening nazaringda qabul qilingan sxemaga tegishli bo'lmasa ham;
- Bu muammo aniq usullar bilan yechiladi deb o'ylama.

1.4.2. “Insert” texnikasi qoidalari

- Matndi o‘qib, ularda savollat tug’dirayotgan joylarni, ularni bilimlariga mos kewlayotgan va mos kelmayotgan joylarni qalam bilan belgilab qo‘yiladi;
- “Insert” jadvalini quyidagi belgilashlar bilan to‘ldirish:
  Agar «!» bo‘lsa siz o‘z bilimingizga yoki siz o‘ylagan fikrga to‘g’ri kelayotganini o‘qiyapsiz;
  Agar «–» bo‘lsa siz o‘z bilimingizga yoki tyo‘g’ri deb o‘ylaganingizga mutlaqo zid bo‘lganini o‘qiyapsiz;
  Agar «+» bo‘lsa siz o‘qityotganingiz siz uchun yangilik;
  Agar «?» bo‘lsa, siz o‘qiyotganingiz siz uchun tushunarsiz yoki siz bu savolga yanada ko‘proq ma`lumotlar olishni istaysiz.

1.4.3. Guruhlarda ishlash qoidalari

- Hamma o‘z do‘stlarini tinglashi kerak, unga yaxshi munosabatda bo‘lib hurmar ko‘rsatishi kerak;
- Hamma aktiv harakat qilishi lozim; berilgan topshiriqqa nisbatan birgalikda va javobgarlik bilan ishlashi kerak;
- Har kim o‘ziga kerak paytda yordam so‘rashi kerak;
- Har kim undan yordam so‘ralganda yordam ko‘rsatishi kerak;
- Guruhning ish natijalarini baholashda ishtirok etishi lozim;
- Biz bir kemadamiz, o‘zgalarga yordam berib o‘zimiz o‘rganamiz, shuni har kim tushunishi lozim;

Mavzu 12. “**Tekislikda Dirixlening tashqi masalasi**”

Ma`ruzaga reja-topshiriqlar

Fan: Matematik fizika tenglamalari

O‘quv soati: 2 soat (ma`ruza);

O‘quv mashg’uloti turi: ma`ruza; yangi bilimlarni mustahkamlash va o‘rganish.

Ma`ruza rejasi:

1. Yagonalik teoremasi.
2. Neymanning ichki masalasi
3. Neymanning ichki masalasi yechilishi uchun zaruriy shartlar.
4. Yechimning yagonaligi.
5. Laplas tenglamasi uchun Grin funksiyasi va uning xossalari.

O‘quv mashg’uloti maqsadi:

O‘quv fani to‘g’risida umumiy ta`surotlar berish, Xususiy hosilali tenglamalarva keyinchalik kasbiy faoliyatidagi roli.

O‘quv mashg’uloti masalalari:

- *O‘rgatuvchi*: talabalarda qabul qilish faoliyatini tashkil qilish, yangi materialni boshlang’ich esda qoldirish va anglash; Matematik fizika tenglamalarining terminlari, iboralarini xarakterlovchi elementlar; talabalarning matematik firlashini rivojlantirish muammoli masalalarni yechimini mahoratini oshirish; matematik masalalarni yechishda matematik simvollarning hususiyatlari bilan tanishtirish;
- *Rivojlantiruvchi*: kitob matni bilan ishlay bilishligi – mag’zlarini tanlab olish, tahlil qilish; gaplar tuzish, hulosa chiqarish, materialni talabalarning izlash faoliyatini

stimullashtirish; hususiydan umumiy holga o‘tish usuli bilan tekshirish; tekshirish natijalarini tahlil qilib va uni umumlashtira olishini rivojlantirish; analitik-sintetik faoliyatning mantiqiy fikrlashini qo‘llash; talabalarning ijodiy mahoratini shakillantirish;

- *Tarbiyalovchi:* aktiv faoliyatga, mustaqil ishga jalb qilish; guruhlarda ishlash qoidalariga rioya qila olish; fanni o‘rganishga qiziqishni rivojlantirish; Matematik fizika tenglamalarini matematik-komunikativ kursni bir qismi sifatida tassavur berish; javobgarlik tuyg’ularini tarbiyalash, mehnatsevarlik, individual ishni jamoaviy ish bilan biriktirish, intizomlashtirish.

O‘qitish texnologiyasi:

- *O‘qutish usullari*: instruktaj; Ma`ruza, aqliy hujum, “Insert” texnikasi;
- *O‘qitish shakillari*: frontal; jamoaviy;
- *O‘qitish vositalari*: Ma`ruza matni; jadvallar, multimediya;
- *O‘qitish sharoitlari*: texnik jihozlashtirilgan auditoriya;
- *Baholash va monitoring*: o‘g’zaki savol-javob, blits-so‘rov.

Pedagogik masalalar:

- Fanning masalalari va uning o‘quv fanlar sistemasidagi o‘rni va roli bilan tanishtirish;
- O‘quv fanning tuzulmasi va tavsiya etiladigan o‘quv-metodik adabiyotlarni tasvirlash;
- Fan sohasida metodik va tashkiliy xususiyatlarini ochib berish, baholash shakli va muddatlari;
- Fan ma`ruzasi paytida o‘qitish jarayonini tashkil qilishning umumiy bosqichlarini xarakterlab berish va umumiy sxemasini tushuntirish.
- O‘qitish texnologiyasi rivojlanishi perspektivasini xarakterlab berish;

O‘quv faoliyati natijalari:

- Fan ma`ruzasi masalalari, maqsadlari va nomlari shakillanadi;
- Xususiy hosilali tenglamalardoirasidagi yutuqlar yoritiladi;
- Fan sohasida metodik va tashkiliy xususiyatlari hamda baholash shakli va muddatlari aytiladi
- Fan ma`ruzasida o‘qitish jarayonini tashkil qilishning umumiy sxemasini kengaytirib xatakterlab beradi;
- Fanning asosiy ta`riflarini beradi, Xususiy hosilali tenglamalarfani ma`ruzalarining asosiy yo‘nalishlari beriladi;
- Nazariy bilimlarning to‘liqligi, sistemaliyligi va harakatliyligi;
- Amaliy mag’ulotlarni bajarishda o‘rganilgan iboralarbilan ishlay olishligi;

- **1.2. Ma`ruzaning xronologik xaritasi**

- **1 bosqich. O‘quv mashg’ulotiga kirish (10 daqiqa):**

- *O‘qituvchining faoliyati*: tayyorgarlikni tekshirish (davomat, konspektning borligi; o‘ziga ishonch, aniqligi,); kerakli materiallarni tarqatish (konspekt, tarqatma materiallar); ma`ruzaning mavzusi va maqsadini bayon qilish; o‘quv mashg’ulotning rajasi bilan tanishtirish; kalit iboralar va so‘zlar, kategoriyalar; internet saytlari va adabiyotlar ro‘yhati; o‘quv natijalari haqida aytish;
- *Talabalar faoliyati*: o‘quv joyini tayyorlash (talabalar borligi; tashqi ko‘rinish; o‘quv materiallar va qo‘llanmalar); ma`ruzaning mavzusi va maqsadi bilan tanishish; o‘quv materialini qabul qilishga tayyorgarlik ko‘rish;
- *Shakillar, usular, uslublar*: instruktaj; frontal so‘rov; mustahkamlovchi so‘rov.

2 bosqich. Asosiy qism (60 daqiqa):

- *O‘qituvchining faoliyati*: mavzuga kiritadi; yangi mavzuga doir o‘tgan fanlar va mashg’ulotlarning mavzularini eslashga chorlaydi; ma`ruza matnini tarqatadi, tanishishni taklif etadi, “Insert” usuli bilan belgilar qo‘yishni taklif etadi; birinchi savol bo‘yicha matn o‘qiladi; qo‘shimcha o‘quv materiallarini aytib boorish va tushuncha berish; natural obektlarni namnoyon qilish va izohlash; tushunarsiz savollarni aniqlash va tushintirish; birinchi savol bo‘yicha nazar (shunday qilib qolgan savollarga ham);
- *Talabalar faoliyati*: yangi mavzuda doir oldingi mashg’ulotlarda va fanlarda olgan bilimlarni mustahkamlaydi,; har bir kalit ibora va terminlarni eshitib, yozib borib, konspekt qilib aytib borishadi; “Insert” usuli bilan belgilan o‘qiydilar, aniqlik kiritadilar, savollar beradilar va o‘zaro;
- *Shakillar, usular, uslublar*: frontav so‘rov blits-so‘rov; aqliy hujum, “Insert” texnikasi.

3 bosqich. Yakunlovchi qism (10 daqiqa)

- *O‘qituvchining faoliyati:* mavzu bo‘yicha hulosa qilish, talabalarning e`tiborlarini asosiylarda jalb qilish; qilingan ishning muhimligini aytib o‘tish; alohida talabalarning bajarilgan ishlarini baholash; o‘zaro baholashning natijalarini chiqarish; o‘quv mashg’ulotning yutuqlik darajasini baholash va tahlil qilish; mustaqil ish uchun topshiriqlar; baho ko‘rsatgichlari va me`zonlari;
- *Talabalar faoliyati: ishning* tahlili; natijalarni olish; texnologik bilimlarni qo‘llash; o‘zaro baholashni o‘tkazish, yo‘l qo‘yilgan hatolar bo‘yicha tahlil va aniqlik kiritish; mustaqil ish topshiriqlarini yozib olish;
- *Shakillar, usular, uslublar*: guruhlarda ishlash, kartochkalarda topshiriqlar.

1.3. O‘quv-metodik materiallar

Ma`ruza rejasi:

1. Yagonalik teoremasi.
2. Neymanning ichki masalasi
3. Neymanning ichki masalasi yechilishi uchun zaruriy shartlar.
4. Yechimning yagonaligi.
5. Laplas tenglamasi uchun Grin funksiyasi va uning xossalari.

Tayanch iboralar: Yagonalik teoremasi, Neymanning tashqi masalasi, Laplas tenglamasi, Grin funksiyasi, Grin funksiyasi xossalari

1.3.1. Ma`ruza matni

1. Yagonalik teoremasi. Tekislikda Dirixlening tashqi masalasi

Endi tashki masalani tekislikda qaraymiz.

Ta’rif: Agar $u(x,y)$ funksiya quyidagi shartlarni qanoatlantirsa, shunda tekislikda Dirixle tashqi masalasining yechimi deyiladi:

$$[3.3] \qquad \begin{cases} (1) & u(x,y) \in C(E^2 \setminus D), \quad u \in C^2(E^2 \setminus \overline{D}) \\ (2) & \Delta u(x,y) = 0, \qquad (x,y) \in E^2 \setminus \overline{D} \\ (3) & u(x,y) = \mu(x,y), \qquad (x,y) \in L \\ (4) & |u(x,y)| \le C = const, \quad (x,y) \in E^2 \setminus \overline{D} \end{cases}$$

3.5. teorema (yagonalik): Faraz qilamiz, $u_1, u_2(x,y)$ shunday funksiyalar bo‘lsinki, ular uchun

$$\begin{cases} (1) \quad u_1, u_2(x,y) \in C(E^2 \setminus D), \quad u \in C^2(E^2 \setminus \overline{D}) \\ (2) \quad \Delta u_1(x,y) = \Delta u_2(x,y), \qquad (x,y) \in E^2 \setminus \overline{D} \\ (3) \quad u_1, u_2(x,y) = \mu(x,y), \qquad (x,y) \in L \\ (4) \quad |u_i(x,y)| \le C_i = const, \qquad i = 1,2; \quad (x,y) \in E^2 \setminus \overline{D} \end{cases}$$

U holda $E^2 \setminus \overline{D}$ fazoda $u_1(x,y) = u_2(x,y)$ bo‘ladi.

Isbot:

Faraz qilamiz, $u = u_1 + u_2$. Unda v uchun: $v(x,y) = 0, \quad (x,y) \in L, \quad |v(x,y)| \le C = c_1 + c_2$. Isbot qilamizki, $v(x,y) \equiv 0, \quad (x,y) \in E^2 \setminus \overline{D}$.

Teskarisini faraz qilamiz: shunday $M^*(x^*, y^*), \; (x^*, y^*) \in E^2$ mavjudki, $v(x^*, y^*) = A > 0$. U holda shunday a-ni olamizki, markazi $M_0(x_0, y_0, z_0)$ nuqtada bo‘lgan L_a aylana to‘lig’icha D da yotsin va shunday R tanlaymizki L_R aylana D sohani ham M^* nuqtani ham o‘zida saqlasin.

Ushbu funksiyani aniqlaymiz:

$$w_R(x,y) = C \frac{\ln \frac{\sqrt{(x-x_0)^2 + (y-y_0)^2}}{a}}{\ln \frac{R}{a}}$$

Ko‘rinib turibdiki,

1) $w_R(x,y) \in C(E^2 \setminus D)$

2) $w_R(x,y)$ funksiya $E^2 \setminus \overline{D}$ sohada garmonik funksiya.

3) L chegarada $w_R(x,y) \ge 0$ bo‘ladi.

4) L_R chegarada $w_R(x,y) = C$ bo‘ladi.

Bu yerdan

$$\begin{cases} |v(x,y)| \le w_R(x,y), \quad (x,y) \in L \\ |v(x,y)| \le C = w_R(x,y), \quad (x,y) \in L_R \end{cases}$$

kelib chiqadi.

Maksimumlar prinsipini qo‘llab, ichkaridan L bilan va tashqaridan L_R bilan chegaralangan D_{LL_R} sohada

$$|v(x,y)| \le w_R(x,y), \quad (x,y) \in D_{LL_R}$$

ni hosil qilamiz. Bu yerdan

$$|v(x^*, y^*)| \le w_R(x^*, y^*) = w_R(x,y) = C \frac{\ln \frac{\sqrt{(x^*-x_0)^2 + (y^*-y_0)^2}}{a}}{\ln \frac{R}{a}}.$$

R ni cheksizlikka intiltirib,

$$|v(x^*, y^*)| \le w_\infty(x^*, y^*) = 0$$

ni hosil qilamiz.

Bu esa, $v(x^*, y^*) = A > 0$ deb qilgan farazimiz noto‘g’riligini isbotlaydi. Demak, $v(x,y) \equiv 0$ ekanligi kelib chiqadi. Teorema isbotlandi.*

(4) shart muhim ekanini ko‘rsatuvchi misol keltiramiz:

Misol:

Faraz qilaylik:

$$D: x^2 + y^2 < b^2$$
$$Д: x^2 + y^2 = b^2$$
Dirixlening tashqi masalasini quyidagicha qo‘yamiz:
$$\begin{cases} \Delta u \equiv 0, \quad E^2 \setminus \overline{D} \\ u(x, y) = C = const, \quad (x, y) \in L \end{cases}$$
Osongina tekshirib ko‘rish mumkinki, $u_1(x, y) = C$ va $u_2(x, y) = C + \ln \frac{\sqrt{x^2 + y^2}}{b}$ funksiyalar berilgan masalaning yechimlari bo‘ladi. Ammo u_2 funksiya hyech qanday o‘zgarmas bilan chegaralanmagan, shuning uchun ham masalaning bunday qo‘yilishida yagonalik buzilyapti.

2. Neymanning ichki masalasi.

Ta’rif: Agar E^3 fazoda aniqlangan $u(x, y, z)$ funksiya quyidagi 3 ta [3.4] masalaning shartlarini qanoatlantirsa, shunda u Neyman ichki masalasining yechimi deyiladi:

$$[3.4] \qquad \begin{cases} (1) \quad u(x, y, z) \in C^1(\overline{\Omega}), & u \in C^2(\Omega) \\ (2) \quad \Delta u(x, y, z) = 0, & (x, y, z) \in \Omega \\ (3) \quad \frac{\partial u}{\partial n}(x, y, z) = \nu(x, y, z), & (x, y, z) \in \Sigma \end{cases}$$

Shunga diqqatingizni qaratingki, u funksiya $\overline{\Omega}$ sohada va uning 1-tartibli hosilasilalari bilan birgalikda uzluksiz bo‘lishi kerakligi talab qilinmoqda, va bu bilan Dirixle masalasidan farq qiladi. Chunki, Dirixle masalasida faqat u funksiyaning uzluksizligi talab etilgan edi.

3. Neymanning ichki masalasi yechilishi uchun zaruriy shartlar.

Faraz qilamiz, u funksiya [3.4] masalaning yechimi va v – ixtiyoriy ikki marta differensiallanuvchi funksiya bo‘lsin. Bu funksiyalar uchun Grinning 2-formulasini qo‘llaymiz:
$$\iiint_{\Omega} (u\Delta v - v\Delta u) d\tau = \iint_{\Sigma} \left(u \frac{\partial v}{\partial n} - v \frac{\partial u}{\partial n} \right) d\sigma$$
$v \equiv 1$ bo‘lganda quyidagi hosil bo‘ladi:
функцияни аниқлаймиз ва уни **энергия интеграли** деб атаймиз. Мисол учун бизнинг тебранувчи торимизнинг ўзгармасгача аниқлик билан олинган тўла энергия деб физикавий интерпретация қилиш мумкин. Кўриниб турибдики, бизнинг *v* функция шартларида *E(t)* дифференциалланувчи функциядир.

Демак унинг хосиласи қуйидагича хисобланади:

$$E'(t) = \int_0^l \left[2v_t(x,t)v_{tt}(x,t) + 2a^2 v_x(x,t)\right]dx$$

21

1–чи чегаравий масала ягоналиги

Бу интегралда иккинчи қўшилувчини *x* бўйича бўлаклаб интеграллаб қуйидаги ифодага келамиз:

$$E'(t) = \int_0^l \left[2v_t(x,t)v_{tt}(x,t) - 2a^2 v_{xt}(x,t)v_{xx}(x,t)\right]dx + 2a^2 v_x(x,t)v_t(x,t)\Big|_0^l$$

v(x, t) тебраниш тенгламасини ечими эканлигини эсда тутган холда, интеграл остидаги ифода айнан 0 га тенг эканлигини аниқлаймиз. Чегаравий шартларни *t* бўйича дифференциаллаб

$$v_t(0,t) \equiv 0 \equiv v_t(l,t)$$

ни хосил қиламиз. Бундан хулоса: интеграл ташқарисидаги қўшилувчиси 0га тенг. Демак $E'(t) \equiv 0$ ёки

$$E(t) = \int_0^l \left[(v_t(x,t))^2 + a^2(v_x(x,t))^2\right]dx \equiv const$$

22

1–чи чегаравий масала ягоналиги

Умуман олганда биз ёпиқ [1.3] тенгламар билан ифодаланувчи системада энергия сақланиш қонунининг яна бир кўринишига эга бўлдик — энергия сони доимийдир. Кўриниб турибдики

$$E(t) = E(t) = \int_0^l \left[(v_t(x,t))^2 + a^2(v_x(x,t))^2\right]dx$$

Бошлангич шартлардан қуйидагига эга бўламиз.

$$v_t(x,0) = v_x(x,0) = 0, \quad 0 \geq x \geq l,$$

23

1–чи чегаравий масала ягоналиги

Демак, $E(0)=0 \Rightarrow E(t)\equiv 0$

Интеграл остидаги функцияларнинг манфий бўлмаганлиги $v_t(x,t)=v_x(x,t)=0$ га тенг эканлиги аниқланади. Бундан $v\equiv const$, бошлангич шартлардан эса $v\equiv 0$ эканлиги келиб чиқади. Теорема исботланди.

Эслатма: $\begin{cases} v_x(0,t)=0 \\ v_x(l,t)=0 \end{cases}$

иккинчи тур чегаравий шартларгага бўлган масала учун ҳам барча тасдиқларимиз ўринли. Теореманинг исботи ўзгармайди, фақат интеграл ташқарисидаги қўшилувчи нолга тенг эканлиги бошқа усулда. Бундан ташқари, теореманинг барча тасдиқлари аралаш кўринишдаги чегаравий шартлар учун ҳам ўринлидир.

24

Саволлар.

1. Ярим тўгри чизиқдаги бир жинсли чегаравий шарт билан берилган иккинчи чегаравий масала қўйилишини келтиринг
2. Иккинчи чегаравий масаланинг Даламбер формуласи бўйича ечимини келтиринг.
3. Ўзгарувчиларни алмаштириш усули.
4. Бир жинсли чегаравий шартлар билан берилган бир жинсли тебраниш тенгламаси учун биринчи чегаравий масалани келтиринг.
5. Штурм – Лиувилл масаласи.
6. Мавжудлик теоремаси.
7. Умумий 1 – чегаравий масалани қўйилишини келтиринг.
8. Умумий 1 – чегаравий масала ягонлиги.

25

Математик физика тенгламалари

маърузалар

Маъруза № 4.

Мавзу:

Энергия интегралининг тебраниш тенгламаси учун чегаравий масала ечимининг ягоналиги

1

Маъруза № 4

Энергия интегралининг тебраниш тенгламаси учун чегараий масала ечимининг ягоналиги

Режа:

1. Маълумотлар характеристикаларда берилган масала. Интеграл тенгламаларнинг эквивалент системаси.
2. Характеристикаларда берилган ечимнинг мавжудлиги.
3. Маълумотлар характеристикаларда берилган масаланинг ягоналиги.

Таянч иборалар

чегаравий масала,
характеристика,
интеграл тенглама,
тебраниш тенгламаси,
энергия интеграли

1. Маълумотлар характеристикаларда берилган масала. Интеграл тенгламаларнинг эквивалент системаси.

Қуйидаги масалани қараймиз:

$$[1.4]\quad \begin{cases} (1)\quad u_{xy}(x,y)=a(x,y)u_x(x,y)+b(x,y)u_y(x,y)+ \\ +f(x,y,u(x,y)),\quad 0<x<l_1,\quad 0<x<l_2 \\ (2)\quad u(x,0)=\phi(x),\qquad 0\le x\le l_1; \\ (3)\quad u(0,y)=\varphi(y),\qquad 0\le y\le l_2; \end{cases}$$

Бу гиперболик типдаги чизиқли бўлмаган тенглама учун берилган масала **Гурса масаласи** деб аталади. Илгари берилган таърифга кўра (1) тенгламанинг характеристикалари бу *dxdy=0* тенгламани қаноатлантирувчи функциялар бўлади. Бу эса *x=const, y=const* кўринишдаги тўғри чизиқлар оиласини билдиради. Шундай қилиб, бизнинг *u(x, y)* функциямизнинг *x=0, y=0* характеристикалардаги маълумотлар билан берилади.

1. Маълумотлар характеристикаларда берилган масала. Интеграл тенгламаларнинг эквивалент системаси.

Таъриф: *U(x, y)* функция [1.4] масаланинг ечими деб аталади, агарда $u(x,y)\in C^2\{[0;l_1]\times[0;l_2]\}$

ва (1) – (3) шартларни қаноатлантирилса.

Берилган масаланинг ечими мавжудлиги ва ягонлигини бир неча этапларда исботлаймиз. Дастлаб биз [1.4] масалани қандайдир чизиқли бўлмаган интеграл тенгламалар системасига эквивалент эканлигини кўрсатамиз.

Фараз қилайлик, *U(x, y)* функция [1.4] масаланинг ечими бўлсин. У холда (1) тенгламани дастлаб *y* бўйича кейин *x* бўйича интеграллаб, қуйидагини хосил қиламиз:

$$u_x(x,y)=u_x(x,0)+\int_0^y a(x,\eta)u_x(x,\eta)d\eta+$$

$$+\int_0^y b(x,\eta)u_y(x,\eta)d\eta+\int_0^y f(x,\eta,u(x,n))d\eta;$$

$$u(x,y)=u(0,y)+u(x,0)-u(0,0)+\int_0^x\int_0^y a(\xi,\eta)u_x(\xi,\eta)d\eta d\xi+ \qquad (1.7)$$

$$+\int_0^x\int_0^y b(\xi,\eta)u_y(\xi,\eta)d\eta d\xi++\int_0^x\int_0^y f(\xi,\eta,u(\xi,\eta))d\eta d\xi$$

Иккита янги функцияларни киритамиз $\begin{cases} v(x,y)=u_x(x,y) \\ w(x,y)=u_y(x,y) \end{cases}$

У холда, (2)-(3) бошлангич шартларни қўллаб, (1.7) тенгламани қуйидаги кўринишда ёзиш мумкин:

$$u(x,y)=\varphi(0,y)+\phi(x,0)-\phi(0)+ \qquad (1.8)$$

$$\int_0^x\int_0^y[a(\xi,\eta)v(\xi,\eta)+b(\xi,\eta)w(\xi,\eta)]d\xi d\eta+\int_0^x\int_0^y f(\xi,\eta,u(\xi,\eta))d\xi d\eta$$

Буни *x* бўйича дифференциаллаб, қуйидагини хосил қиламиз:

$$v(x,y)=\phi'(x)+\int_0^y[a(x,\eta)v(x,\eta)+b(x,\eta)w(x,\eta)]d\eta+\int_0^y f(x,\eta,u(x,\eta))d\eta \qquad (1.9)$$

Худди шундай y бўйича дифференциаллаймиз:

$$w(x,y)=\varphi'(y)+\int_0^x\left[a(\xi,y)v(\xi,y)+b(\xi,y)w(\xi,y)\right]d\xi+\int_0^x f(\xi,y,u(\xi,y))d\xi \quad (1.10)$$

Демак, агар $u(x,y)$ [1.4] масалани ечими бўлса у ҳолда (1.8) – (1.10) тенгламаларини қаноатлантирувчи $v(x, y)$, $w(x, y)$ функсиялар мавжуд бўлади. Тескариси: (1.8) – (1.10) тенгламаларнинг ечимлари бўлган u, v, w- узлуксиз функцияларнинг мавжудлигидан $v=u_x$; $w=u_y$

эканлиги келиб чиқади. Шунингдек бевосита дифференциаллашдан $u(x,y)$ функсиялар [1.4] масалани ечими эканлигини текшириб кўриш мумкин.

7

2. Характеристикаларда берилган ечимнинг мавжудлиги.

Теорема [1.5]: (Мавжудлик теоремаси)

Қуйидаги тўртта шарт бажарилган бўлсин:

1. $a(x,y),\quad b(x,y)\in C\{[0;l_1]\times[0;l_2]\}$
2. $f(x,y,p)\in C\{[0;l_1]\times[0;l_2]\times E\}$

яъни, биздар $u(x, y)$ функцияни p ихтиёрий қиймат қабул қилувчи ўзгарувчи билан алмаштирдик

3. $|f(x,y,p_1)-f(x,y,p_2)|\le L|p_1-p_2|,$
$\forall x\in[0;l_1],\quad \forall y\in[0;l_2],\quad \forall p_1,p_2\in E$

p ўзгарувчи бўйича Липшиц шартидир

4. $\phi(x)\in C^1[0;l_1],\quad \varphi(y)\in C^1[0;l_2],\quad \phi(0)=\varphi(0)$

У ҳолда [1. 4] масаланинг ечими мавжуд.

Исбот. [1.4] масала (1.8)-(1.10)га эквивалентлигини хисобга олиб, (1.8)-(1.10)ни қаноатлантирувчи (x, y), $v(x, y)$, $w(x, y)$ узлуксиз функциялар мавжудлигини исботлаймиз. Бу функцияларни итерациялар кетма-кетлиги ёрдамида топамиз. Кетма-кет интерациялар процессини қуйидагича кўрамиз:

$$\begin{cases} u_0(x,y)=v_0(x,y)=w_0(x,y)=0 \\ u_{n+1}(x,y)=\varphi(y)+\phi(x)-\phi(0)+\int_0^x\int_0^y\left[a(\xi,\eta)v_n(\xi,\eta)+b(\xi,\eta)w_n(\xi,\eta)\right]d\eta d\xi+ \\ +\int_0^x\int_0^y f(\xi,\eta,u_n(\xi,\eta))d\eta d\xi \\ u_{n+1}(x,y)+\phi'(y)+\int_0^y\left[a(x,\eta)v_n(x,\eta)+b(x,\eta)w_n(x,\eta)\right]d\eta+\int_0^y f(x,\eta,u_n(x,\eta))d\eta \\ w_{n+1}(x,y)+\varphi'(y)+\int_0^x\left[a(\xi,y)u_n(\xi,y)+b(\xi,\eta)w_n(\xi,y)\right]d\xi+\int_0^x f(\xi,y,u_n(\xi,y))d\xi \end{cases}$$

8

Бу процессни яқинлашувчи эканлигини исботлаймиз. Бунинг учун u_n, v_n, w_n кетма-кетликларнинг ҳадлари орасидаги фарқларни баҳолаймиз.

u_n учун итерация таърифидан ва теореманинг (3) шартларидан қўйидаги тенгсизлик келиб чиқади:

$$|u_{n+1}-u_n|\le\int_0^x\int_0^y\left[|a(\xi,\eta)||v_n(\xi,\eta)-v_{n-1}(\xi,\eta)|+|b(\xi,\eta)||w_n(\xi,\eta)-w_{n-1}(\xi,\eta)|\right]d\xi d\eta+$$

$$+\int_0^x\int_0^y L|u_n(\xi,\eta)-u_{n-1}(\xi,\eta)|d\xi d\eta$$

Фараз қилайлик: $(x,y)\in\{[0;l_1]\times[0;l_2]\times E\}$da

$M=\max\{\max|a(x,y)|\max|b(x,y)|,L\}$ Шунда:

$$|u_{n+1}-u_n|\le M\int_0^x\int_0^y [|v_n(\xi,\eta)-v_{n-1}(\xi,\eta)|+ \quad (1.11)$$

$$+|w_n(\xi,\eta)-w_{n-1}(\xi,\eta)|+|u_n(\xi,\eta)-u_{n-1}(\xi,\eta)|]d\xi d\eta$$

v_n, w_n функциялар учун ҳам худди шундай:

$$|u_{n+1}-u_n| \le M\int_0^y [|u_n(x,\eta)-u_{n-1}(x,\eta)|+ \tag{1.12}$$
$$+|w_n(x,\eta)-w_{n-1}(x,\eta)|+|u_n(x,\eta)-u_{n-1}(x,\eta)|]d\eta$$

$$|u_{n+1}-u_n| \le M\int_0^x [|u_n(\xi,y)-u_{n-1}(\xi,y)|+ \tag{1.13}$$
$$+|w_n(\xi,y)-w_{n-1}(\xi,y)|+|u_n(\xi,y)-u_{n-1}(\xi,y)|]d\xi$$

Итерация процессининг барча элементлари узлуксиз функциялар бўлганлиги сабабли, бундан $|u_n|, |v_n|, |w_n|$ функция қандайдир H ўзгармас билан чегараланганлиги келиб чиқади.

11

Кетма-кетликнинг нольга тенг бўлган ҳадларнинг таърифидан $|u_1-u_1| \le M, |v_1-v_1| \le M, |w_1-w_1| \le M$ келиб чиқади. Буни қўллаб қуйидаги айирмани баҳолаймиз:

$$|u_2-u_1| \le M\int_0^x\int_0^y 3H d\xi d\eta = 3HMxy \le 3HM\frac{(x+y)^2}{2}$$

$$|v_2-v_1| \le M\int_0^y 3H d\eta = 3HMy \le 3HM(x+y)^2$$

$$|w_2-w_1| \le M\int_0^x 3H d\xi = 3HMx \le 3HM(x+y)$$

12

Кетма – кетликни текис яқинлашувчи эканлигини исботлаш учун мажорант қатор кўришга тўғри келади, лекин дастлаб қуйидаги баҳони исботлаймиз.

$$|u_n(x,y)-u_{n-1}(x,y)| \le 3HM^{n-1}K^{n-2}\frac{(x+y)^2}{2};$$

$$|v_n(x,y)-v_{n-1}(x,y)| \le 3HM^{n-1}K^{n-2}\frac{(x+y)^{n-1}}{(n-1)!};$$

$$|w_n(x,y)-w_{n-1}(x,y)| \le 3HM^{n-1}K^{n-2}\frac{(x+y)^{n-1}}{(n-1)!};$$

Бу ерда $K=2+l_1+l_2;$

13

Исботни индукция билан кўрамиз.

Индукция базаси. Юқорида исботлангандек n=2 учун ўринли

Индукция фарази. Фараз қилайлик n учун ўринли.

$n+1$ учун исботлаймиз . **Индуктив ўтиш .**

Индукция фаразидан фойдаланиб $|u_{n+1}-u_n|$ айирмани баҳолаймиз:

$$|u_{n+1}-u_n| \le M\int_0^x\int_0^y\left[3HM^{n-1}K^{n-2}\frac{(\xi+\eta)^n}{n!}+2\cdot 3HM^{n-1}K^{n-2}\frac{(\xi+\eta)^{n-1}}{(n-1)}\right]d\xi d\eta \le$$
$$\le 3HM^nK^{n-2}\left[\int_0^x\frac{(\xi+\eta)^{n+1}}{(n+1)}\Big|_0^y d\xi+2\int_0^x\frac{(\xi+\eta)^n}{n!}\Big|_0^y d\xi\right]$$

Интегрални ҳисоблайлик. Бунда бошланғич интеграл чегараларини қўйишда қуйи чегарани ташлаб юборамиз. Уларни қўшилувчилари манфий бўлиб,юқоридаги айирма учун шундай баҳони юқори чегара асосида ҳосил қиламиз:

14

$$|u_{n+1}-u_n| \le 3HM^n K^{n-2}\left[\frac{(x+y)^{n+2}}{(n+2)!}+2\frac{(x+y)^{n+1}}{(n+1)!}\right]=$$

$$3HM^{n-1}K^{n-2}\frac{(x+y)^{n+1}}{(n+1)!}\left[\frac{x+y}{n+2}+2\right]\le$$

$$\le\left\{\frac{x+y}{n+2}+2\le l_1+l_2+2=K\right\}\le 3HM^n K^{n-1}\frac{(x+y)^{n+1}}{(n+1)!}$$

15

Шундай қилиб u_n кетма-кетлик учун индукция фарази исботланган.

Қолган иккита кетма-кетлик учун баҳонинг исботи шунга ўхшаш бўлади.

$$|u_{n+1}-u_n| \le M\int_0^y\left[3HM^{n-1}K^{n-2}\frac{(\xi+\eta)^n}{n!}+2\cdot 3HM^{n-1}K^{n-2}\frac{(\xi+\eta)^{n-1}}{(n-1)!}\right]d\eta\le$$

$$\le 3HM^n K^{n-2}\left[\frac{(x+y)^{n+1}}{(n+1)!}+2\frac{(x+y)^n}{n!}\right]=3HM^n K^{n-2}\frac{(x+y)^n}{n!}\left[\frac{x+y}{n+1}+2\right]\le$$

$$\le 3HM^n K^{n-1}\frac{(x+y)^n}{n!}$$

Демак иккинчи баҳо ҳам тўғри . Учинчи баҳонинг исботи хам шу кўринишда бўлади ,шунинг учун уни ташлаб кетамиз. Энди u_n, v_n, w_n кетма –кетликларни текис яқинлашувчи эканлигини исботлаймиз

Кўриниб турибдики бундай кетма-кетликнинг ҳар бир ҳадини тегишли қаторнинг қисмий йиғиндиси шаклида ифодалаш мумкин.

16

$$u_n(x,y)=\sum_{m=1}^{n}\left(u_m(x,y)-u_{m-1}(x,y)\right);$$

$$v_n(x,y)=\sum_{m=1}^{n}\left(v_m(x,y)-v_{m-1}(x,y)\right);$$

$$w_n(x,y)=\sum_{m-1}^{n}\left(w_m(x,y)-w_{m-1}(x,y)\right);$$

Биринчи қаторнинг қўшилувчилари учун биз баҳони исботлаган эдик.

17

$$|u_n(x,y)-u_{n-1}(x,y)|\le 3HM^{n-1}K^{n-2}\frac{(x+y)^n}{n!}\le$$

$$\le 3HM^{n-1}K^{n-2}\frac{(l_1+l_2)^n}{n1}=C\frac{a^n}{n!},\quad C,a=const.$$

Маълумки,

$\sum_{n=1}^{\infty}c\frac{a^n}{n!}$ қатор яқинлашувчи. Бундан Вейерштрасс аломатига кўра u_n кетма-кетликни текис яқинлашишини ҳосил қиламиз.

Қўшилувчиларнинг узлуксизлигидан лимитик функциянинг узлуксизлиги келиб чиқади.

Шунга ўхшаш қолган икки кетма-кетлик учун хам кўрсатиш мумкин:

$$v_n(x,y)\Rightarrow v(x,y)\in C\{[0;l_1]\times[0;l_2]\};$$

$$w_n(x,y)\Rightarrow w(x,y)\in C\{[0;l_1]\times[0;l_2]\};$$

18

2. Характеристикаларда берилган ечимнинг мавжудлиги.

Энди биз $n \to \infty$

да лимитни ҳисоблаш итерацион жараёнини ёзишга ҳақлимиз. Бу эса ушбу тенгламалар системасининг ечими бўлган u, v, w

функцияларнинг мавжудлигини билдиради. Бу тенгламалар системасини бошлангич [1.4]га эквивалент деб олсак теорема бутунлай исботланади. Теорема исботланди. □

19

3. Маълумотлар характеристикаларда берилган масаланинг ягоналиги.

Шундай қилиб[1.4] **масаланинг мавжудлигини исботладик. Энди унинг ягоналигини исботладик-равшанки бу** (1.8)-(1.10) интеграл тенгламалар системаси ечимининг ягоналигига эквивалентдир.

Теорема 1.6 (Ягоналик) *Фараз қилайлик* $\{u_1(x,y), v_1(x,y), w_1(x,y)\}$, $\{u_2(x,y), v_2(x,y), w_2(x,y)\}$,

Икки функциялар системаси мавжуд бўлиб, улар (1-8)-(1-10) интеграл тенгламалар системасининг ечимлари бўлсин ва унда [1.4] тенгламанинг ечими мавжудлиги ҳақидаги теореманы (1)-(4) шартлари бажарилган бўлсин, у ҳолда

$$U(x,y) = u_1(x,y) - u_2(x,y), \quad V(x,y) = v_1(x,y) - v_2(x,y),$$

$$W(x,y) = w_1(x,y) - w_2(x,y)$$

функциялар

$\prod_{l_1 l_2} = \{[0;l_1] \times [0;l_2]\}$ *тўғри тўртбурчакда айнан 0 га тенг бўлади.*

Исбот. Шундай қилиб u_1, u_2 –(1.8) интеграл тенгламани ечими бўлсин.

$$u_1(x,y) = \varphi(y) + \phi(x) - \phi(0) +$$

$$+ \int_0^x \int_0^y [a(\xi,\eta)v_1(\xi,\eta) + b(\xi,\eta)w_1(\xi,\eta)] d\eta d\xi +$$

$$\int_0^x \int_0^y f(\xi,\eta,u_1(\xi,\eta)) d\eta d\xi;$$

$$u_2(x,y) = \varphi(y) + \phi(x) - \phi(0) +$$

$$+ \int_0^x \int_0^y [a(\xi,\eta)v_2(\xi,\eta) + b(\xi,\eta)w_2(\xi,\eta)] d\eta d\xi +$$

$$+ \int_0^x \int_0^y f(\xi,\eta,u_2(\xi,\eta)) d\eta d\xi.$$

Биридан иккинчисини айириб ва $f(x,y,p)$,

учун Липшиц шартини қўллаб қуйидагини ҳосил қиламиз:

$$|u_2 - u_1| \le \int_0^x \int_0^y [M|v_2(\xi,\eta) - v_1(\xi,\eta)| +$$

$$+ M|w_2(\xi,\eta) - w_1(\xi,\eta)| + M|u_2(\xi,\eta) - u_1(\xi,\eta)|] d\eta d\xi \Rightarrow$$

$$|U(x,y)| \le \int_0^x \int_0^y [M|V(\xi,\eta)| + M|W(\xi,\eta)| + M|U(\xi,\eta)|] d\eta d\xi \qquad (1.14)$$

Шунга ўхшаш натижа $V(x,y)$, $W(x,y)$ **функциялар учун ҳам ўринли:**

$$|V(x,y)| \le \int_0^y [M|V(x,\eta)| + M|W(x,\eta)| + M|U(x,\eta)|] d\eta;$$

$$|W(x,y)| \le \int_0^x [M|V(\xi,y)| + M|W_2(\xi,y)| + M|U(\xi,y)|] d\xi.$$

Бундан ушбу функциялар П тўғри тўртбурчакда 0 га тенглиги келиб чиқишини исботлаймиз. Дастлаб улар $\prod_{x_0 y_0} = \{[0; x_0] \times [0; y_0]\}$.
тўғри тўртбурчакда 0 га тенглигини кўрсатамиз. Бу ерда x_0, y_0 қуйидаги шартларни қаноатлантиради:

$$\begin{cases} 3x_0 y_0 M < 1; \\ 3x_0 M < 1; \\ 3y_0 M < 1. \end{cases}$$

Фараз қилайлик:

$$\overline{U} = \max_{\Pi x_0 y_0} |U(x, y)|; \overline{V} = \max_{\Pi x_0 y_0} |V(x, y)|; \overline{W} = \max_{\Pi x_0 y_0} |W(x, y)|$$

Умумийликни чегараласдан, $\overline{U} \geq \max\{\overline{V}, \overline{W}\}$ бўлишини фараз қилсамиз. Бу ҳолда (1.14) тенгсизликдан қуйидаги тенгсизлик келиб чиқади:

23

$$|U(x, y)| \leq M \int_0^x \int_0^y [\overline{U} + \overline{U} + \overline{U}] ds \leq 3Mx_0 y_0 \overline{U}, (x, y) \in \Pi_{x y_0} \Rightarrow$$

$$\Rightarrow \overline{U} \leq 3Mx_0 y_0 \overline{U}.$$

$3x_0 y_0 M < 1$ бўлганлиги сабабли, бу фақат

$\overline{U} = 0$ да бажарилади. Бундан кўриниб турибдики

$U(x, y), V(x, y), W(x, y)$ функциялар

Π_{x_0, y_0} да айнан 0 га тенг. Кейинги қадамда биз шундай

x_1 ни оламизки,

$$\begin{cases} 3(x_1 - x_0) y_0 M < 1; \\ 3(x_1 - x_0) M < 1; \\ 3y_0 M < 1. \end{cases}$$

24

ва уни $\Pi_{x_1 y_0}$ тўғри тўртбурчакда қараймиз. У ҳолда (1.14) тенгсизлик қуйидаги кўринишга эга:

$$|U(x, y)| \leq M \int_{x_0}^x \int_0^y [\overline{U} + \overline{U} + \overline{U}] ds, (x, y \in \Pi x_1 y_0)$$

Олдинги қадамга ўхшаш ҳаракат қилиб $U(x, y)$, $V(x, y)$, $W(x, y)$
Функциялар тўғри тўртбурчакда айнан 0 га тенглигини

ҳосил қиламиз. Шундай мулохозаларни давом этиб, чекли сонли қадамлардан кейин бу функцияларнинг $\Pi_{l_1 y_0}$ да 0 га тенг,

Сўнгра эса $\Pi_{l_1 l_2}$ да ҳам нолга тенг эканлигини кўрсатиш мумкин.
Теорема исботланди. □

25

Саволлар.

1. *Энергия интеграли*
2. *Маълумотлар характеристикаларда берилган масала.*
3. *Гурса масаласи.*
4. *Характеристикаларда берилган ечимнинг мавжудлиги.*
5. *Мавжудлик теоремаси.*
6. *Липшиц шарти.*
7. *Умумий I – чегаравий масала учун ягоналик теоремаси*

26

Маъруза № 5

Мавзу:

«Қўшма дифференциал оператор.

Риман усули.

Лимитга ўтиш шаклидаги умумлашган ечимлар »

Режа:

1. Қўшма дифференциал оператор

2. Чизиқли алгебрадаги қўшма оператор билан боғланиш.

3. Риман усули.

4. Лимитга ўтиш шаклидаги умумлашган ечимлар

5. Интеграллик айният маъносидаги умумлашган ечимлар

Таянч иборалар: *оператор, дифференциал оператор, қўшма оператор, чегаравий масала, Грин формуласи, Риман усули, лимит, Даламбер формуласи, Пуассон тенгламаси.*

1. Қўшма дифференциал оператор.

E^n фазони қараймиз.Фараз қилайлик

$$x = (x_1, \ldots, x_n)$$

бир сидра ўзгарувчилар, $u(x)$ эса n *ўзгарувчи функция бўлсин.*

Таъриф: Бирор $u(x) \in C^2(E^n)$ функциядан $L[u]$ дифференциал оператор қўйидагича аниқланади:

$$L[u] = \sum_{i=1}^{n}\sum_{j=1}^{n} a_{ij}(x) u_{x_i x_j} + \sum_{i=1}^{n} b_i(x) u_{x_i} + c(x) u \quad (1.15)$$

Бу ерда $a_{ij}, b_i \in C^1(E^1)$, $c(x)$ қандайдир функциялар.
тартибли хусусий ҳосила дифференциаллаш тартибига боғлиқ бўлмаганлиги сабабли $a_{ij}(x) = a_{ji}(x)$ бир бирига тугирликни қабул қилинади.

Таъриф. Ҳар қандай $L[u]$ дифференциал операторга ўзаро бир қийматли мослик бўйича келувчи $M[v]$ қўшма оператор олиш мумкин.

$$M[v] = \sum_{i=1}^{n}\sum_{j=1}^{n}\left(a_{ij}(x)v\right)_{x_i x_j} - \sum_{i=1}^{n}\left(b_i(x)v\right)_{x_i} + c(x)v$$

Таъриф. *Агар $L[u] = M[v]$ бўлса оператор ўз-ўзига*

бўлса оператор ўз-ўзига қўшма оператор дейил

Бизга қуйидаги формула керак бўлади.

$$vL[u] - uM[v] = \sum_{i=1}^{n}\left(p_i(x)\right)_{x_i} \quad (1.16)$$

Бу ерда $p_i(x) = \sum_{j=1}^{n}\left[va_{ij}u_{x_j} - u\left(a_{ij}v\right)_{x_j}\right] + b_i uv.$

Бу формулани исботлаш учун $p_i(x)$ ни (1.16) нинг ўнг томонига қўямиз ва қўшилувчиларни гуруҳлайми

$$\sum_{i=1}^{n}\left(p_i(x)\right)_{x_i} = \sum_{i=1}^{n}\sum_{j=1}^{n}\left[va_{ij}u_{x_i x_j} - u\left(a_{ij}v\right)_{x_j x_i}\right] + \sum_{i=1}^{n}\sum_{j=1}^{n}\left[\left(va_{ij}\right)_{x_i}u_{x_j} - u_{x_i}\left(a_{ij}v\right)_{x_j}\right] +$$
$$+\sum_{i=1}^{n}\left[vb_i u_{x_i} + u\left(b_i v\right)_{x_i}\right] + cuv - cuv = \sum_{i=1}^{n}\sum_{j=1}^{n} va_{ij}u_{x_i x_j} + \sum_{i=1}^{n} vb_i u_{x_i} + cuv -$$
$$-\left(\sum_{i=1}^{n}\sum_{j=1}^{n} u\left(a_{ij}v\right)_{x_i x_j} + \sum_{i=1}^{n} u\left(b_i v\right)_{x_i} + cuv\right) + \sum_{i=1}^{n}\sum_{j=1}^{n}\left[\left(va_{ij}\right)_{x_i}u_{x_j} - u_{x_i}\left(a_{ij}v\right)_{x_j}\right] =$$
$$vL[u] - uM[v] + \sum_{i=1}^{n}\sum_{j=1}^{n}\left[\left(va_{ij}\right)_{x_i}u_{x_j} - u_{x_i}\left(a_{ij}v\right)_{x_j}\right]$$

Қолган иккиланган йиғинди 0 га тенг –бу қўшилувчилар индексларининг симметриклигидан келиб чиқади. Бу ердан(1.16) формула тўғрилиги келиб чиқади.

2. Чизиқли алгебрадаги қўшма оператор билан боғланиш.

Чизиқли алгебрада А операторга қўшма A^* операторни деб қуйидаги $(Au, v) = (u, A^*v)$ муносабат айтилади. Бу E^n дан олинган барча u,v лар учун бажарилиши керак эди. Бизнинг таърифимиз шу берилган таъриф билан

қанчалик мос келишини кўриб чиқамиз.

Мисол 1. $\Omega \subset E^3$ бўлсин ва скаляр кўпайтма қуйидагича аниқлансин :

$$(f, g) = \iiint_{\Omega} fg\,d\tau,\ f, g \in C^2(\Omega) \cap C^1(\overline{\Omega})$$

у ҳолда $u, v \in C^2(\Omega) \cap C^1(\overline{\Omega})$ $u, v|\Sigma = 0,$

(Σ – Ω нинг чегараси) бўлган функциялар учун қуйидаги $(v, L[u]) = (M[v], u)$ ифода тўғри бўлсин

Буни кўрсатамиз

$$(v,L[u])-(M[v],u)=\iiint_{\Omega}(vL[u]-uM[v])d\tau=\{(1.16)\}=\iiint_{\Omega}\left(\frac{\partial p_1}{\partial x_1}+\frac{\partial p_2}{\partial x_2}+\frac{\partial p_3}{\partial x_3}\right)d\tau=$$

$$=\{\vec{P}=(p_1,p_2,p_3)\}=\iiint_{\Omega}div\vec{P}d\tau=\{Остроградский-Гаусс\ \ формуласи(5.3)\}=$$

$$\iint_{\Sigma}(\vec{P},\vec{n})d\sigma=\{\vec{n}=(n_x,n_y,n_z)\}=\iint_{\Sigma}(p_1n_x+p_2n_y+p_3n_z)d\sigma=0$$

$p_i|\Sigma=0,u,v$ учун чегаравий шартдан келиб чиқади.

Мисол 2. Қўшма оператор учун оддий мисол бу Лаплас оператори ҳисобланади, масалан E^3 да $l[u]=\Delta u=u_{x_1x_1}+u_{x_2x_2}+u_{x_3x_3}$ бўлади Бу ерда

$M[u]=\Delta v$ текшириш осон.

3. Риман усули.

E^2 фазод $u(x,y)$ функция учун қуйидаги дифференциалланувчи операторни қараймиз:

$$L[u]=u_{xy}+a(x,y)u_x(x,y)+b(x,y)u_y(x,y)+c(x,y)u(x,y)$$

Таърифга кўра, унга қўшма оператор қуйидаги кўринишга эга:

$$M[v]=u_{xy}-(a(x,y)v)_x-(b(x,y)v)_x+c(x,y)v$$

Шундай қилиб, (1.15) формулада

$$a_{11}=a_{22}=0,\quad a_{12}=a_{21}=\frac{1}{2},\quad b_1=a,\quad b_2=b,\quad c=c.$$

Кўриниб турибдики (1.16) формуладаги P_1,P_2

лар қуйидагича ҳисобланади:

$$p_1=\frac{1}{2}(vu_y-uv_y)+auv;\quad p_2=\frac{1}{2}(vu_x-uv_x)+buv;$$

Энди OXY текислигида $y=f(x)$ эгри чизиқ берилган бўлсин, ва унда $\forall x$ лар учун $f'(x)<0$ Унинг графигини L_f билан белгилаймиз. Нуқталари $f(x)$ функция графигидан юқорида ётган ярим текисликни R_f^+ деб белгилаймиз:

$$R_f^+=\{(x,y):y>f(x)\},$$

Қуйидаги чегаравий масалани (шуни таъкидлаш лозимки, бу масала гиперболик типдаги тенглама учундир) кўриб чиқамиз:

$$[1.5]\quad \begin{cases}(1)\quad L[u]=F(x,y,), & (x,y)\in R_f^+;\\ (2)\quad u(x,y)=\phi(x,y), & (x,y)\in L_f;\\ (3)\quad \dfrac{\partial u}{\partial n}(x,y)=\psi(x,y), & (x,y)\in L_f;\end{cases}$$

($L[u]$ (1.17) формуласи билан аниқланади.)

Келтирилган чегаравий масаланинг ечимин R_f^+ да излаймиз. Унинг ихтиёрий $A(x_0,y_0)\in R_f^+$ нуқтада қандай қилиб хисобланилишини кўрсатиберамиз. Бунинг учун биз A нуқтани L_f эгри чизиқ билан координата ўқларига парралел бўлган кесмалар воситасида бирлаштирамиз ва у орқали кесишув нуқталари $B(x, y_0)$ ва $C(x_0, y)$ ни ҳосил қиламиз.

AB, AC кесмалар ҳамда BC ёй орасида ҳосил бўлган контурни L деб, унинг ички қисмини D билан белгилаймиз. Қўшма дифференциал операт $M[v]$ нинг (бунда v - муаян бир функция). (1.16) формуласидан фойдаланамиз.

$$\iint_D (vL[u] - uM[v])ds = \iint_D \left(\frac{\partial p_1}{\partial x} + \frac{\partial p_2}{\partial y}\right)ds$$

Бунинг ўнг қисмини ўзгартириш учун эгри чизиқли интеграллар учун Грин формуласидан фойдаланамиз:

$$\int_L Pdx + Qdy = \iint_D (Q_x - P_y ds)$$

Бу ҳолда қуйидагига эга бўламиз.

$$\iint_D (vL[u] - uM[v])ds = \int_L - p_2 dx - p_1 dy =$$

(контур қисмлари координата ўқларига парралел)

$$\int_B^C \{ \left[\tfrac{1}{2}(vu_y - uv_y) + auv\right]dy - \left[\tfrac{1}{2}(vu_x - uv_x) + buv\right]dx \} +$$

$$\int_C^A \left[\tfrac{1}{2}(vu_y - uv_y) + auv\right]dy + \int_B^A \left[\tfrac{1}{2}(vu_x - uv_x) + buv\right]dx \qquad (1.18)$$

Маълумки,

$$\int_C^A \left[\tfrac{1}{2}(vu_y - uv_y) + auv\right]dy + \int_B^A \left[\tfrac{1}{2}(vu_x - uv_x) + buv\right]dx =$$

$$\underbrace{\int_C^A \left[\tfrac{1}{2}(vu_y - uv_y) + auv\right]dy}_{I_{CA}} + \underbrace{\int_B^A \left[\tfrac{1}{2}(vu_x - uv_x) + buv\right]dx}_{I_{BA}}$$

Бунгача биз v функцияни оддийгина икки карра узлуксиз дифференциалланувчи функция деб белгилаган эдик. Энди $M[v] = 0$ бўлишини аниқроқ айтганда қуйидаги масаланинг ечими бўлиши керак:

$$\begin{cases} (4) \quad v_{xy} - (a(x,y)v)_x - (b(x,y)v)_y + c(x,y)v = 0, \quad x \le x_0, y \le y_0; \\ (5) \quad v(x_0, y) = \exp\{\int_{y_0}^{y} a(x_0, s)ds\}, \quad y \le y_0; \\ (6) \quad v(x, y_0) = \exp\{\int_{x_0}^{x} b(s, y_0)ds\}, \quad x \le x_0; \end{cases}$$

Бу масала [1.4] кўринишдаги характеристикалар ёрдамида берилган маълумотларга эга бўлган масаладир. Олдинги бўлимларда кўрсатган эдикки унинг ечимидан исбот бўлган ва ягона бўлгани (x, y) функция мавжуд. Бу функция бизга маълум деб ҳисоблаймиз ва айнан шу функциядан фойдаланамиз.

Биринчи бошланғич тенгламадан $F(x,y)$ функцияни қўйган ҳолда $u(x,y)$ учун (1.18) ифодага қайтамиз.

$$\iint_D v(x,y)F(x,y)ds = \int_B^C \left\{ \left[\tfrac{1}{2}(vu_y - uv_y) + auv\right]dy + \right.$$
$$\left. + \left[\tfrac{1}{2}(vu_x - uv_x) + buv\right]dx \right\} + I_{CA} + I_{BA}$$

I_{CA} I_{BA} интегралларда координаталаридан бири фиксирланганидан фойдаланамиз. $v(x,y)$ учун (4) шартдан $x=x_0$ бўлса, $v_y - av = 0$ бўлишини осон аниқлаш мумкин. Шундай қилиб:

$$I_{CA} = \int_C^A \left[\tfrac{1}{2}(vu_y - uv_y) + auv\right]dy = \int_C^A \left[\tfrac{1}{2}(vu)_y - u(v_y - av)\right]dy =$$
$$= \tfrac{1}{2}(uv)\Big|_A - \tfrac{1}{2}(uv)\Big|_C$$

Худди шундай, $y = y_0$ бўлганда $u_x - bu = 0$ эканлигини кўрсатиш мумкин. Демак,

$$I_{BA} = \int_B^A \left[\tfrac{1}{2}(vu_x - uv_x) + buv\right]dx = \int_B^A \left[\tfrac{1}{2}(vu)_x - u(v_x - bv)\right]dx =$$
$$\tfrac{1}{2}(uv)\Big|_A - \tfrac{1}{2}(uv)\Big|_B$$

Шундай қилиб, (1.18) ифодани қуйидагича ёзиш мумкин.

$$\iint_D v(x,y)F(x,y)ds = \int_B^C \left\{ \left[\tfrac{1}{2}(vu_y - uv_y) + auv\right]dy + \right.$$
$$\left. + \left[\tfrac{1}{2}(vu_x - uv_x) + buv\right]dx \right\} + uv\Big|_A - \tfrac{1}{2}(uv)\Big|_C - \tfrac{1}{2}(uv)\Big|_B.$$

Бундан $A(x_0,y_0)$ нуқтада $u(x,y)$ функциясини қийматини аниқлаш мумкин:

$$u(x_0,y_0)v(x_0,y_0) = -\int_B^C \left\{ \left[\tfrac{1}{2}(vu_y - uv_y) + auv\right]dy - \right.$$
$$\left. \left[\tfrac{1}{2}(vu_x - uv_x) + buv\right]dx \right\} + \tfrac{1}{2}(uv)\Big|_C + \tfrac{1}{2}(uv)\Big|_B + \iint_D v(x,y)F(x,y)ds$$

$v(x,y)$ нинг (5), (6) чегаравий шатрлардан $v(x_0,y_0) = 1$ эканлиги келиб чиқади. У ҳолда

$$u(x_0,y_0) = -\int_B^C \left\{ \left[\tfrac{1}{2}(vu_y - uv_y) + auv\right]dy - \left[\tfrac{1}{2}(vu_x - uv_x) + buv\right]dx \right\}$$
$$+ \tfrac{1}{2}(uv)\Big|_C + \tfrac{1}{2}(uv)\Big|_B + \iint_D v(x,y)F(x,y)ds$$

ҳосил бўлади.

Бу $u(x_0,y_0)$ учун якуний формуладир. Контурдаги хусусий ҳосилалар $u(x,y)$ бизга ноаниқ эканлиги кўриниши мумкин. Уларни (2),(3) чегаравий шартлардан топиш мумкинлигини кўрсатамиз:

$$\begin{cases} u(x, f(x)) = \phi(x, f(x)); \\ \dfrac{\partial u}{\partial n}(x, f(x)) = \varphi(x, f(x)); \end{cases}$$

L_f га уринманинг бирлик вектори $\vec{\tau}$ қуйидаги кўринишга эга:

$$\vec{\tau}=\left\{\frac{1}{\sqrt{1+(f'(x))^2}};\frac{f'(x)}{\sqrt{1+(f'(x))^2}}\right\}.$$

Бундан қуйидагини ҳосил қиламиз:

$$\frac{\partial u}{\partial n}(x,y)=\frac{\partial u}{\partial n}\frac{1}{\sqrt{1+(f'(x))^2}}+\frac{\partial u}{\partial y}\frac{f'(x)}{\sqrt{1+(f'(x))^2}}$$

$\frac{\partial u}{\partial \tau}$ қуйидаги ўзгартиришлардан топилади.

$$\frac{\partial}{\partial n}u(x,f(x))=u_x(x,f(x))+u_y(x,f(x))f'(x)=\sqrt{1+(f'(x))}^2\frac{\partial u}{\partial \tau}(x,y).$$

Маълумки,

$$\frac{\partial y}{\partial n}=(\vec{n},gradu).$$

L_j га нормалнинг, $\vec{\tau}$ векторга ортогонал бўлган бирлик вектори қуйидагича ҳисобланади:

$$\vec{n}=\left\{\frac{f'(x)}{\sqrt{1+(f'(x))^2}};-\frac{1}{\sqrt{1+(f'(x))^2}}\right\}.$$

Бундан:

$$\frac{\partial u}{\partial n}(x,y)=\frac{\partial u}{\partial n}\frac{f'(x)}{\sqrt{1+(f'(x))^2}}-\frac{\partial u}{\partial y}\frac{1}{\sqrt{1+(f'(x))^2}}$$

Юқоридагиларга асосланиб, чегаравий шартлардан контурда $u(x,y)$ ни топиш учун системани ҳосил қиламиз.

$$\begin{cases}\frac{\partial}{\partial x}\phi(x,f(x))=\frac{\partial u}{\partial x}+\frac{\partial u}{\partial y}f'(x)\\ \varphi(x,f(x))=\frac{\partial u}{\partial x}\frac{f'(x)}{\sqrt{1+(f'(x))^2}}-\frac{\partial u}{\partial y}\frac{1}{\sqrt{1+(f'(x))^2}}\end{cases}$$

Унинг детерминанти ҳеч қаерда 0 га тенг эмас.

Бундан келиб чиқадики, $u_x(x,y)$ $u_y(x,y)$ лар мавжуд ва улар бир қийматли аниқланиши мумкин. Шундай қилиб, биз (1.19) формула тўғрилигини асосладик. Уни ҳосил қилиш учун қўлланиладиган усул **Риман усули** дейилади.

Эслатма: Даламбер формуласи (1.19) формуланинг хусусий ҳолидан иборат узлуксиз умумлаштирилган ечим.Шундай ҳоллар бўладики, амалий масалаларнинг ечимлари бўлади. Бундай ечимлар Ушбу курсдаги стандарт формулалар ёрдамида ҳосил қилиб бўлмайди. Аммо, уларни масалан, оддий ечимларнинг чегарасидек тасвирлаш мумкин.

4. Лимитга ўтиш шаклидаги умумлашган ечимлар

Умумий ёндошув: $L[u]=0$ тенгламадан топиш лозим бўлган u функция берилган ва бунда шу функция баъзи бир F ва Ф функциялар кўринишида шартлар қўйилган бўлсин. Агар бу масала ечимга эга бўлмаса, масалан, $F\notin C^2, \Phi\notin C^2$ бўлганлиги туфайли бу ҳолда биз текис яқинлашувчи кетма-кетликлар $F_n\rightrightarrows F, \Phi_n\rightrightarrows \Phi$ ни тузамиз. Бу ерда $F\notin C^2, \Phi\notin C^2$. Шунда агар F_n ва Φ_n функцияларга мос келувчи ечим (u_n) мавжуд бўлса u сифатида u_n функцияларнинг лимитини оламиз:

$$u=\lim_{n\to\infty} u_n$$

Бунда u_n кетма-кетлик u га текис яқинлашиш шарти бажарилган.

Мисол. Бизларга берилган гиперболик тенглама учун Коши масаласини кўриб чиқамиз:

$$\begin{cases} u_{tt}=a^2u_{xx}, -\infty<x<+\infty, 0<t\le T; \\ u(x,0)=\phi(x), \quad -\infty<x<+\infty; \\ u_t(x,0)=\psi(x), \quad -\infty<x<+\infty \end{cases}$$

Маълумки агар $\phi\in C^2(E), \psi\in C^1(E)$ бўлса ечим Даламбер формуласи билан берилган бўлади?

$$u(x,t)=\frac{\phi(x-at)+\phi(x+at)}{2}+\frac{1}{2a}\int_{x-at}^{x+at}\psi(\xi)d\xi$$

Фараз қилайлик бизларга худи шундай масалада $\bar\phi, \bar\psi$ функция фақатгина узлуксиз бўлса, яъни биз Даламбер формуласидан фойдалана ололмаймиз. $0<t\le T$ полосада фикр юритамиз $[-d;d]$ кесмадан ташқарида $\bar\phi=\bar\psi=0$ бўлишиниталаб қиламиз. Бу ерда d маълум бир ўзгармас. Бундай хосса supp $\bar\phi, \bar\psi=[-d;d]$ каби белгиланади. Фараз қилайликки шундай $\phi_n(x), \psi_n(x)$ функциялар мавжуд бўлиб, $\phi_n\in C^2(E), \psi_n\in C^1(E)$ шунингдек $|x|\ge 2d$ учун $\overline{\phi_n}(x)=\overline{\psi_n}(x)=0$, ҳамда $[-2(d+aT);2(d+aT)]$ кесмада

$$\begin{cases} \phi_n(x)\rightrightarrows \bar\phi(x); \\ \psi_n(x)\rightrightarrows \bar\psi(x). \end{cases}$$

Φ_n Ψ_n функцияларга мос келувчи Коши масаласинин ечими учун Даламбер формуласи ўринлидир.

$$u_n(x,t)=\frac{\phi_n(x-at)+\phi_n(x+at)}{2}+\frac{1}{2a}\int_{x-at}^{x+at}\psi(\xi)d\xi \quad \Rightarrow u_n(x,t)\in C^2\{E\times[0;T]\}$$

Бундай функцияларнинг лимитини бизлар ечим деб номлаймиз.

$$\bar u(x,t)=\lim_{n\to\infty} u_n(x,t)$$

Аниқлашни тўғри деб ҳисоблаш мумкин агар биз

$$\prod = \{(x,t) : -2d - aT \le x \le 2d + aT, 0 \le t \le T\}$$

Тўғри бурчакда $u_n(x,t)$ кетма-кетликнинг текис яқинлашишини кўрсата олсак (равшанки тўғри тўрт бурчакдан ташқарида кетма-кетликнинг барча ҳадлари 0 га айнан тенг). Бунинг учун u_n фундаментал кетма-кетлик эканлигини,яъни

$$\forall \varepsilon > 0 \quad \exists M : \forall m > M, \forall p > 0 \quad |u_{m+p}(x,t) - u_m(x,t)| < \varepsilon \quad \forall (x,t) \in \prod$$

Бу айирмани Даламбер формуласи орқали

баҳолаймиз.

$$|u_{m+p}(x,t) - u_m(x,t)| \le \frac{|\phi_{m+p}(x+at) - \phi_m(x+at)|}{2} + \frac{|\phi_{m+p}(x-at) - \phi_m(x-at)|}{2} +$$

$$+ \frac{1}{2} \int_{x-at}^{x+at} |\psi_{m+p}(\xi) - \phi_m(\xi)| d\xi$$

Ҳосил қилинган йиғиндини ҳар қандай илгаридан берилган ε дан кичик қилиш мумкин –бу текис яқинлашиш шартидан,демак Φ_n ψ_n кетма-кетликларнинг фундаменталлигидан келиб чиқади. Шундан ҳосил қиламизки

$$u_n(x,t) \Rightarrow \bar{u}(x,t), (x,t) \in \prod$$

бу ерда

$$\bar{u}(x,t) \in C[\prod]$$

Бундан ташқари $u_n(\pm(2d + aT), t) = 0$, бўлгани учун $u(\pm(2d + aT), t) = 0$, ва $\prod$ тўғри бурчакдан ташқарида $\bar{u}(x,t) = 0$ бўлади.

Шундай тарзда тузилган функция лимитик ўтиш шаклидаги умумлаштирилган ечим дейилади.Бу ечи ягонами деган савол туғилади (чунки биз Φ_n, ψ_n кетма-кетликларни ихтиёрий равишда танлаган эдик)? Бу саволга жавоб бериш учун бизлар ихтиёрий икки ϕ_n^1, ϕ_n^2 *ва* ψ_n^1, ψ_n^2 жуфт кетма-кетлик оламиз ва улар

$$\begin{cases} \phi_n^1 \Rightarrow \bar{\phi}, & \phi_n^2 \Rightarrow \bar{\phi}; \\ \psi_n^1 \Rightarrow \bar{\psi}, & \psi_n^2 \Rightarrow \bar{\psi}; \end{cases}$$ бўлади.

Фараз қилайликки бу кетма-кетликларга мос равишда Даламбер формуласи бўйича ҳосил қилинган u_n^1 *ва* u_n^2 кетма-кетликлар ҳадларининг лимитларидан иборат бўлган $\bar{u}^1(x,t), \bar{u}^2(x,t)$ икки ечимлар тўғри келсин $\bar{u}^1(x,t) = \bar{u}^2(x,t)$ исботлаймиз.Бунинг учун уларнинг айирмасини бахолашимиз керак

$$\bar{u}^1(x,t) - \bar{u}^2(x,t) |\bar{u}^1(x,t) - \bar{u}^3(x,t)| \le |\bar{u}^1(x,t) - u_n^1(x,t)| + |u_n^1(x,t) - u_n^2(x,t)| + |\bar{u}^2(x,t) - u_n^2(x,t)|$$

u_n^1 *ва* u_n^2 функцияларнинг мос равишда $\bar{u}^1$ *ва* $\bar{u}^2$ функцияларга текис яқинлашиши сабабли ушбу айирманинг биринчи ва учинчи қўшилувчилари нолга интилади чунки ϕ_n^1, ϕ_n^2 *ва* ψ_n^1, ψ_n^2 кетма-кетликларга мос равишда яна ўша функциялар Φ ва ψ яқинлашади. Бу ердан $\bar{u}^1(x,t)$ *ва* $\bar{u}^2(x,t)$ функцияларнинг айнан тенглиги келиб чиқади.

6. Интеграллик айният маъносидаги умумлаш ечимлар.

Умумлашган ечимлар қўлланилишининг бошқа мисоли сифатида Пуассон тенгламасидаги $\Delta u = -f(x,y,z)$ f функция икки марта Дифференцияланмайдиган ҳолат, яъни нормал ечим мавжуд бўлмаган ҳолат бўлиши мумкин (чунки ҳамма вақт $\Delta u \in C^2$)

Умумий ёндашув. Σ чегарага эга бўлган $\Omega \in E^3$ соҳада $u(x,y,z)$ функциялар $L[u] = F$ тенглама билан аниқланадиган бўлсин, бу ерда

$$L[u] = \sum_{i=1}^{3}\sum_{j=1}^{3} a_{i,j}(x) u_{x_i x_j} + \sum_{i=1}^{3} b_i(x) u_{x_i} + c(x) u$$

шунда бурчакга боғланган оператор қуйидагича берилади

$$M[v] = \sum_{i=1}^{3}\sum_{j=1}^{3} \left(a_{i,j}(x) v\right)_{x_i x_j} - \sum_{i=1}^{3} \left(b_i(x) v\right)_{x_i} + c(x) v$$

Бизлар фақат шунақа v функцияларни қараймизки, улар учун лимитда тўлиқ қуйидаги шарт бажарилиши керак. Маълумки агар $u, v \in C^2(\Omega) \cap C^1(\Omega)$ бўлса (1.16) формула ўринли бўлади

$$\iiint_{\Omega} (vL[u] - uM[v])\,d\tau = \iiint_{\Omega} div\,\vec{\rho}\,d\tau = \iint_{\Sigma} (\vec{p}, \vec{n})\,d\sigma$$

v га қўйилган шартлардан v, v_x, v_y, v_z функциялар демак $\vec{\rho}$ вектор функция ҳам Σ да 0 га

айланишини ҳосил қиламиз. Бундан келиб чиқадики

$$\iiint_{\Omega} (vL[u] - uM[v])\,d\tau = 0$$

$L[u] = F$ эканлигидан фойдаланамиз

$$\iiint_{\Omega} vF\,d\tau = \iiint_{\Omega} uM[v]\,d\tau \qquad (1.20)$$

u функция учун ҳосил қилинган ифода интеграл ўхшашлик маъносидаги умумлаштирилган ечим дейилади. Шундай қилиб биз узлуксиз дифференциалланиш талабини v функцияга ўтказиб, шунингдек бу функция қатъий Ω ичида ётувчи соҳадагина 0 га тенг бўлмаслиги шартини талаб этиб u функция учун тенгламани ўзгартирдик.

Саволлар.

1. Дифференциал оператор.

2. Қўшма дифференциал оператор .

3. Чизиқли алгебрадаги қўшма оператор билан боғланиш.

4. Қўшма дифференциал оператор мисол келтиринг.

5. $L[u]$ дифференциалланувчи операторни ёзинг.

6. $L[u]$ дифференциалланувчи оператор қўшма оператор қандай кўринишга эга

7. $L[u]$ дифференциалланувчи оператор учун чегаравий масалани келтиринг.

8. Эгри чизиқли интеграллар учун Грин формуласини ёзинг.

9. Лимитга ўтиш шаклидаги умумлашган ечимлар. Умумий ёндошув.

10. Гиперболик тенглама учун Коши масаласини келтиринг

11. Даламбер формуласини ёзинг.

12. Интеграллик айният маъносидаги умумлаш ечимлар. Умумий ёндашув.

13. Пуассон тенгламасини келтиринг.





1. Фазода иссиқлик ўтказувчанлик тенгламасини чиқарилиши

Уч ўлчовли фазода бирор иссиқлик ўтказувчи ва координаталари (x, y, z) бўлган ихтиёрий M нуктанинг температураси t вакт моментида $u(x, y, z, t)$ функция куринишида берилувчи жисмни караймиз. Маълумки, иссиклик потоки вектори учун $\vec{W}$ куйидаги **Фурье конуни** деб аталувчи формула уринлидир.

$$\vec{W} = -k \quad grad\, u$$

Бу ерда $k(x, y, z)$ - иссиқлик ўтказувчанлик коэффициенти.

Агар жисм E^3

Ω соханинг чегараси Σ бўлади.

Шунда жисмнингнинг иссиқлик миқдори t вақт моментида қуйидаги формула билан ҳисобланади:

$$[t_1; t_2] \quad (Q(t_1) = Q_1, Q(t_2) = Q_2)$$

вақт оралигини қараймиз. Шунда

$$Q_2 - Q_1 = \iiint_{\Omega} c(M)\rho(M)u(M, t_2)d\tau_M - \iiint_{\Omega} c(m)\rho(M)u(m, t_1)d\tau_M$$

бўлади.

Иссиқлик миқдорининг ўзгариши ташқаридан иссиқлик оқиб келиш натижасида ва баъзи ички манбанинг (стокларнинг) ҳаракати туфайли рўй беради:

$$Q_2 - Q_1 = \int_{t_1}^{t_2} \left[-\iint_{\Sigma} (\vec{W}, \vec{n})dv \right] dt + \int_{t_1}^{t_2} \left[\iiint_{\Omega} F(M, t)d\tau \right] dt$$

5

Биринчи интеграл учун Остоградский-Гаусс формуласини қўллаймиз ва ўрта қиймат ҳақидаги формулани эса иккинчи интеграл учун қўллаймиз:

$$Q_2 - Q_1 = -\int_{t_1}^{t_2} \left[\iiint_{\Omega} (div\vec{W})d\tau \right] dt + (t_1 - t_2)\iiint_{\Omega} F(M, t_4)d\tau$$

Бу ерда $t_4 \in [t_1; t_2]$ га қаралли.

Лагранж формуласидан қуйидаги силлиқ (буни фараз қиламиз) u функция учун фойдаланамиз:

$$u(M, t_2) - u(M, t_1) = u_t(M, t_3)(t_2 - t_1), \quad t_3 \in [t_1; t_2]$$

6

Бундан қуйидагини ҳосил қиламиз:

$$Q_2 - Q_1 = \iiint_{\Omega} c(M)\rho(M)u(M, t_2)d\tau_M - \iiint_{\Omega} c(M)\rho(M)u(M, t_1)d\tau_M =$$

$$= (t_2 - t_1)\iiint_{\Omega} c(M)\rho(M)u_t(M, t_3)d\tau_M$$

Демак,

$$(t_2 - t_1)\iiint_{\Omega} c(M)\rho(M)u_t(M, t_3)d\tau_M =$$

$$= -\int_{t_1}^{t_2} \left[\iiint_{\Omega} (div\vec{W})d\tau_M \right] dt + (t_1 - t_2)\iiint_{\Omega} F(M, t_4)d\tau$$

7

Энди хамма интеграл учун умумлаштирилган ўрит қиймат формулани қўллаймиз:

$$c(M_1)\rho(M_1)u_t(M_1,t_3)V_\Omega(t_2-t_1)=-div\vec{W}\Big|_{\substack{t=t_5\\M=M_2}}V_\Omega(t_2-t_1)+F(M_3,t_4)V_\Omega(t_2-t_1),$$

Бунда $t_3\in[t_1;t_2], M_1,M_2\in\Omega,$

$V_\Omega-\Omega$ нинг хажми бўлади.

$V_\Omega(t_2t_1)$ га искартириб, Ω дан олинган бирор бир M_1,M_2 нуқталар учун қуйидагини хосил қиламиз:

$$c(M_1)\rho(M_1)u_t(M_1,t_3)V_\Omega(t_2-t_1)=-div\vec{W}\Big|_{\substack{t=t_5\\M=M_2}}+F(M_3,t_4)$$

8

Энди бирор M_0 нуқтагача Ω ни қиссак,

$[t_1,t_2]$ кесма ҳам t_0 нуқтагача қисилади. Бундан кўринадики M_1,M_2 нуқталар M_0 га ўтади, t_3,t_4,t_5 лар эса t_0 га. Бундан лимитга ўтганда қуйидаги ҳосил бўлади:

$$c(M_0)\rho(M_0)u_t(M_0,t_0)=-div\vec{W}\Big|_{\substack{t=t_0\\M=M_0}}+F(M_0,t_0)$$

$\vec{W}$ учун Фурье қонунини қўллаб қуйидагини ҳосил қиламиз:

$$div\vec{W}=div(-kgradu)=-\frac{\partial}{\partial x}k\frac{\partial u}{\partial x}-\frac{\partial}{\partial y}k\frac{\partial u}{\partial y}-\frac{\partial}{\partial z}k\frac{\partial u}{\partial z}\Rightarrow$$

$$\Rightarrow c(M_0)\rho(M_0)u_t(M_0,t_0)=\frac{\partial}{\partial x}k\frac{\partial u}{\partial x}+\frac{\partial}{\partial y}k\frac{\partial u}{\partial y}+\frac{\partial}{\partial z}k\frac{\partial u}{\partial z}+F(M_0,t_0)$$

9

M_0,t_0 нуқталарни ихтиёрий олганимиз сабабли, хосил қилинган формулани бутун $[t_1,t_2]$ ва Ω соха учун ёйиш мумкин:

$$c(x,y,z)\rho(x,y,z)u_t(x,y,z,t)=\frac{\partial}{\partial x}(k(x,y,z)u_x(x,y,z,t))+$$

$$+\frac{\partial}{\partial y}(k(x,y,z)u_y(x,y,z,t))+$$

$$+\frac{\partial}{\partial z}(k(x,y,z)u_z(x,y,z,t))+F(x,y,z,t)$$

Бу ифода **фазода иссиқлик утказувчанлик тенгламаси** деб номланади.

c,ρ,k ларни константа да деб олиб, қуйидаги тенглик ҳосил қиламиз:

$$u_t=a^2(u_{xx}+u_{yy}+u_{zz})+f(x,y,z,t),\quad a^2=\frac{k}{c\rho},\quad f=\frac{F}{c\rho}\qquad \textbf{(2.1)}$$

10

Агар u,f фақат x ва t ўзгарувчилари билан боғлиқ бўлса, у ҳолда бу тенглик қуйидагича ёзилади:

$$u_t=a^2u_{xx}+f(x,t)\qquad \textbf{(2.2)}$$

Физик интерпритацияда бир жинсли юпқа стержинда иссиқлик ўтказувчанлик (ёйилиш) тенгламасидир. (2.2) тенгламани биз кейинчалик **иссиқлик утказувчи тенгламаси** деб юритамиз. Аналогик фикрлашни бошқа бир физик процеслар учун ҳам ўтказишимиз мумкин, масалан диффузия учун. Агар $u(x,y,z,t)$ фазода газнинг концентрацияси бўлса, у ҳолда **диффузия тенгламаси** қуйидагича бўлади:

$$cu_t=div(Dgradu)+F(x,y,z,t)$$

$$D-diffuziya\ \ koeffitsiyenti$$

$$F-biror\ bir\ \ funktsiya$$

11

2. Бир фазовий ўзгарувчи билан берилган иссиқлик ўтказувчанлик тенгламаси. Асосий масалаларнинг қўйилиши

Қуйидаги тенгламани қараб чиқамиз:

$$u_t = a^2 u_{xx} + f(x,t), \quad 0 < x < l, \quad 0 < t \le T$$

Агар бизга стерженнинг бошлангич вақт моментидаги температураси маълум бўлса, у ҳолда биз [illegible] эга бўламиз:

$$u(x,o) = \phi(x), \;\; 0 \le x \le l$$

Агар четларида температурани ўзгаришини билсак, у ҳолда айрим [illegible] **хосил қиламиз:**

12

Агар четларида температурани ўзгаришини билсак, у ҳолда айрим **чегаравий шартлар хосил қиламиз:**

$$x = l, 0 \le t \le T \quad \begin{cases} (1)\; u(l,t) = \mu_2(t) - birinchi\ chegaraviy\, shart \\ (2)\; u_x(l,t) = \nu_2(t) - ikkinchi\ chegaraviy\, shart \\ (3)\; u_x(l,t) = -\lambda_2[u(l,t) - \theta_2(t)] - uchinchi\ chegaraviy\, shart \end{cases}$$

$$x = 0, 0 \le t \le T \quad \begin{cases} (4)\; u(0,t) = \mu_1(t) - birinchi\ chegaraviy\, shart \\ (5)\; u_x(0,t) = \nu_1(t) - ikkinchi\ chegaraviy\, shart \\ (6)\; u_x(0,t) = -\lambda_1[u(0,t) - \theta_1(t)] - uchinchi\ chegaraviy\, shart \end{cases}$$

13

Бу шартлардан бир нечтасини танлаб ҳар хил типли масалаларни ҳосил қиламиз:

Биринчи чегаравий масала

$$\begin{cases} u_t = a^2 u_{xx} + f(x,t), 0 < x < l, 0 < t \le T \\ u(0,t) = \mu_1(t), \qquad 0 \le t \le T \\ u(l,t) = \mu_2(t), \qquad 0 \le t \le T \\ u(x,o) = \phi(x), \qquad 0 \le x \le l \end{cases}$$

14

[illegible]

$$\begin{cases} u_t = a^2 u_{xx} + f(x,t), \; 0 < x < l, 0 < t \le T \\ u_x(0,t) = \nu_1(t), \qquad 0 \le t \le T \\ u_x(l,t) = \nu_2(t), \qquad 0 \le t \le T \\ u(x,0) = \phi(x), \qquad 0 \le x \le l \end{cases}$$

15

Ярим тўғри чизиқдаги масала

$$\begin{cases} u_t = a^2 u_{xx} + f(x,t), x > 0, 0 < t \le T \\ u(0,t) = \mu(t), \qquad 0 \le t \le T \\ u(x,0) = \phi(x), \qquad x \ge 0 \end{cases}$$

Коши масаласи

$$\begin{cases} u_t = a^2 u_{xx} + f(x,t), -\infty < x < +\infty, 0 < t \le T \\ u(x,0) = \phi(x), \qquad -\infty < x < +\infty \end{cases}$$

16

Биринчи чегаравий масала ечимининг мавжудлиги

Ўзгарувчиларни ажратиш усули.

Биринчи чегаравий масалага кенгроқ тўхталиб ўтамиз:

$$[2.1] \quad \begin{cases} u_t = a^2 u_{xx} + f(x,t), 0 < x < l, 0 < t \le T \\ u(0,t) = \mu_1(t), \qquad 0 \le t \le T \\ u(l,t) = \mu_2(t), \qquad 0 \le t \le T \\ u(x,0) = \phi(x), \qquad 0 \le x \le l \end{cases}$$

17

Ечимнинг мавжуд ва ягоналигини қараб ўтамиз, шу билан бирга турғунлигини ва **Грин функциясини** қўллашини қараймиз. Биринчи чегаравий масаланинг ечима нима. Аниқки, биржинсли иссиқлик ўтказувчанлик тенгламаси ҳолатида $\tilde{u}(x,t)$

:узилишга эга бўлган функциялар туплами қаноатлантиради

$$\tilde{u}(x,t) = const, (x,t) \in Q_T = \{(x,t) : (0;1) \times (0;T)\};$$
$$\tilde{u}(0,t) = \mu_1(t);\ 0 \le t \le T;$$
$$\tilde{u}(l,t) = \mu_2(t);\ 0 \le t \le T;$$
$$\tilde{u}(x,0) = \phi(x);\ 0 \le x \le l.$$

18

Таъриф. $u(x,t)$ функция **[2.1] иссиқлик ўтказувчанлик тенгламаси учун 1-чегаравий масаласининг ечими** дейилади, агар у қуйидаги 3 шартни қаноатлантирса:

$1.\, u \in C[\overline{Q_T}]$

$2\, u_t, u_{xx} \in C[Q_T]$

$3\, u(x,t)$ [2.2] шартларни каноатлантиради

19

Бир жинсли иссиқлик ўтазувчаснлик тенгламаси нолинчи чегаравий шартлар билан берилган биринчи чегаравий масала учун ечимни топамиз:

$$[2.2]\quad \begin{cases} (1)\, u_t = a^2 u_{xx}, 0 < x < l, 0 < t \le T; \\ (2)\, u(0,t) = 0,\ \ 0 \le t \le T; \\ (3)\, u(l,t) = 0,\ \ 0 \le t \le T; \\ (4)\, u(x,0) = \phi(x),\ 0 \le x \le l. \end{cases}$$

Ечимни қуйидаги йўл билан аниқлаймиз, аввало берилган тенгламани алмаштириш ёрдамида бирор $u(x,t)$ функцияни тузитамиз, кейин эса, бошлангич шартларга қўйилган маълум бир чекланишларда биз тузган функция 1-чи чегаравий масаланинг ечими бўлишини исботлаймиз.

20

Янги функцияни аниқлаймиз: $v(x,t) = X(x)T(t.)$

Функциямизни иссиқлик ўтказувчанлик тенгламасига қўйиб қуйидагини ҳосил қиламиз: $X(x)T'(t) = a^2 X''(x)T(t).$

Тенгликнинг икки томонини ҳам $a^2 X(x)T(t)$ га бўламиз:

$$\frac{T'(t)}{a^2 T(t)} = \frac{X''(x)}{X(x)}$$

Ўнг ва чап томондаги функциялар ҳар хил ўзгарувчиларга боғлик бўлганлиги туфайли, аниқки уларнинг ҳар иккаласи ҳам бирор константага тенг бўлади, биз уни $-\lambda$ билан белгилаймиз:

$$\frac{T'(t)}{a^2 T(t)} = \frac{X''(x)}{X(x)} = -\lambda$$

21

Бундан 2 та тенгламага эга бўламз:

$$X''(x) + \lambda X(x) = 0; \qquad (2.3)$$

$$T'(t) + a^2 \lambda T(t) = 0. \qquad (2.4)$$

$v(x,t)$ функциямиз учун чегаравий шартларни ёзиб оламиз:

$$\begin{cases} v(0,t) = 0; \\ v(l,t) = 0. \end{cases} \qquad t \in [0;T].$$

22

Қуйидагини ҳосил қиламиз: $\begin{cases} X(0) = 0 \\ X(l) = 0. \end{cases}$

(2.3)ни хосил бўлган система билан бирлаштирсак, **Штурм-Лиувилл масаласини** ҳосил қиламиз:

$$\begin{cases} X''(x) + \lambda X(x) = 0; \\ X(0) = 0; \\ X(l) = 0. \end{cases}$$

Барча λ ларни топиш талаб қилинади.

23

Дифференциал тенглама курсидан маълумки,

$$\begin{cases} \lambda_n = \left(\frac{\pi n}{l}\right)^2, n \in N \\ X_n(x) = c_n^1 \sin\left(\frac{\pi n}{l} x\right), n \in N \end{cases}$$

λ_n ни (2.4) га қўйиб, қуйидаги кўринишдаги тенгликни ҳосил қиламиз:

$$T_n'(t) + a^2 \lambda_n T_n(t) = 0.$$

Ечим

$$T_n = c_n^2 \exp\left\{-a^2\left(\frac{\pi n}{l}\right)^2 t\right\}$$

бўлади.

24

$X_n(x)$ *va* $T_n(t)$ ни бирлаштириб қуйидагини ҳосил қиламиз:

$$v_n(x,t) = X_n(x)T_n(t) = c_n \sin\left(\frac{\pi n}{l} x\right)\exp\left\{-a^2\left(\frac{\pi n}{l}\right)^2 t\right\}$$

Қайд этиб ўтамизки, хамма шундай функциялар (1) иссиқлик ўтказувчанлик тенгламасининг ечими ва (2), (3) чегаравий шартларни қаноатлантиради; *u(x,t)* функцияни қаторнинг йиғиндиси сифатида аниқлаймиз:

$$u(x,t) = \sum_{n=1}^{\infty} v_n(x,t)$$

25

Таъкидлаб ўтамизки бу чегаравий шартларни қаноатлантиради. Консталарни шундай танлаймизки, бошлангич шартлар бажарилсин:

$$\phi(x) = u(x,0) = \sum_{n=1}^{\infty} v_n(x,0) = \sum_{n=1}^{\infty} c_n \sin\left(\frac{\pi n}{l} x\right)$$

Тенгликни $\sin\left(\frac{\pi m}{l} x\right)$ га кўпайтирамиз (m-бутун).

$x \to s$ алмаштириш оламиз ва *s* бўйича интеграллаймиз:

26

$$\int_0^l \phi(s)\sin\left(\frac{\pi m}{l}s\right)ds=\sum_{n=1}^{\infty}c_n\int_0^l \sin\left(\frac{\pi m}{l}s\right)\sin\left(\frac{\pi n}{l}s\right)ds.$$

$$\int_0^l \sin\left(\frac{\pi n}{l}x\right)\sin\left(\frac{\pi m}{l}x\right)=\begin{cases}0, n\neq m;\\ \frac{l}{2}, n=m.\end{cases}\Rightarrow\int_0^l \phi(s)\sin\left(\frac{\pi m}{l}s\right)ds=\frac{l}{2}c_m\Rightarrow$$

$$c_m=\frac{2}{l}\int_0^l \phi(s)\sin\left(\frac{\pi m}{l}s\right)ds$$

27

Натижада $u(x,t)$ учун қуйидаги формулани ҳосил қиламиз:

$$u(x,t)=\sum_{n=1}^{\infty}\frac{2}{l}\left(\int_0^l \phi(s)\sin\left(\frac{\pi n}{l}s\right)ds\right)\sin\left(\frac{\pi n}{l}x\right)\exp\left\{-a^2\left(\frac{\pi n}{l}\right)^2 t\right\}. \quad (2.5)$$

28

Саволлар.

1. Фурье қонуни
2. Остраградский-Гаусс формуласи
3. Фазода иссиқлик утказувчанлик тенгламаси
4. Чегаравий шартлар
5. Бошлангич шартлар
6. Биринчи чегаравий масала
7. Иккинчи чегаравий масала
8. Ярим тўғри чизиқдаги масала
9. Коши масаласи
10. Биринчи чегаравий масалани ечимининг таърифи.

29


Математик физика тенгламалари
маърузалар
Маъруза № 7.
Мавзу:
Максимум принципи
1


Маъруза № 7
Максимум принципи
Режа:
1. Бир фазовий ўзгарувчи билан берилган иссиқлик ўтказувчанлик тенгламаси. Мавжудлик теоремаси
2. Иссиқлик ўтказувчанлик тенгламаси учун максимум принципи
3. Биринчи чегаравий масалани ечимининг ягоналиги.
4. Биринчи чегаравий масалани ечимининг турғунлиги.


Таянч иборалар
иссиқлик ўтказувчанлик тенгламаси,
фазовий ўзгарувчи,
максимум принципи,
чегаравий масала,
ягоналик,
турғунлик
3


1. Бир фазовий ўзгарувчи билан берилган иссиқлик ўтказувчанлик тенгламаси. Мавжудлик теоремаси
$$\frac{\partial}{\partial n}\left(\frac{1}{R_{MM_0}}\right) = \left(\vec{n}, grad\frac{1}{R_{MM_0}}\right) =$$

$$= \frac{(x-x_0)^2}{R^4_{MM_0}} + \frac{(y-y_0)^2}{R^4_{MM_0}} + \frac{(z-z_0)^2}{R^4_{MM_0}} = \frac{1}{R^2_{MM_0}} = \frac{1}{\varepsilon^2}.$$

Унда бу интеграл қуйидаги кўринишга эга бўлади:

$$\iint_{\Sigma_\varepsilon}\left(u\frac{\partial}{\partial n}\left(\frac{1}{R_{MM_0}}\right)-\frac{1}{R_{MM_0}}\frac{\partial u}{\partial n}\right)d\sigma=\frac{1}{\varepsilon^2}\iint_{\Sigma_\varepsilon}u\,d\sigma-\frac{1}{\varepsilon}\iint_{\Sigma_\varepsilon}\frac{\partial u}{\partial n}d\sigma=$$

$$=u\left(M_\varepsilon^{\cdot}\right)\frac{4\pi\varepsilon^2}{\varepsilon^2}-\frac{\partial u}{\partial n}\left(M_\varepsilon^{\cdot}\right)\frac{4\pi\varepsilon^2}{\varepsilon}=4\pi u\left(M'_\varepsilon\right)-4\pi\varepsilon\frac{\partial u}{\partial n}\left(M_\varepsilon^{\cdot}\right),$$

Бу ерда $M^{*}_{\varepsilon}, M'_{\varepsilon}$ - нуқталар $\sum_\varepsilon$ сферада олинган.

$\frac{\partial u}{\partial n}$ чегаравийлигини ҳисобга олган ҳолда ε нолга интилтирамиз:

$$4\pi u\left(M'_\varepsilon\right)-4\pi\varepsilon\frac{\partial u}{\partial n}\left(M^{*}_\varepsilon\right)\xrightarrow{\varepsilon\to 0}4\pi u\left(M_0\right)$$

17

Қўшилувчиларни маълум бир қисмини ўнг томонга ўтказиб,

$u(M_0)$ учун қуйидаги формулани ҳосил қиламиз:

$$4\pi u(M_0)=-\iiint_{\Omega}\frac{1}{R_{MM_0}}\Delta u(M)d\tau_M-\iint_{\Sigma}\left[u(M)\frac{\partial}{\partial n}\left(\frac{1}{R_{MM_0}}\right)-\frac{1}{R_{MM_0}}\frac{\partial u}{\partial n}(M)\right]d\sigma_M \qquad (3.4)$$

Бу Гриннинг учинчи формуласи деб аталади.

18

E^2 фазода аналогик таҳлиллар олиб бориб, иккинчи ва учинчи Грин формулалари учун икки ўлчовли аналоглар ҳосил қилиш осон:

$$\iint_D(u\Delta v-v\Delta u)ds=\int_L\left(u\frac{\partial u}{\partial n}-v\frac{\partial u}{\partial n}\right)dl.$$

$$2\pi u(M_0)=-\iint_D\ln\left(\frac{1}{\rho MM_0}\right)\Delta u\,ds-\int_L\left[u\frac{\partial}{\partial n}\left(\ln\frac{1}{\rho MM_0}\right)-\ln\frac{1}{\rho MM_0}\frac{\partial u}{\partial n}\right]dl$$

19

Саволлар:

1. *Лаплас тенгламаси.*
2. *Пуассон тенгламаси.*
3. *Чегаравий масалаларнинг қўйилиши.*
4. *Лаплас тенгламасининг фундаментал ечими.*
5. *Биринчи Грин формуласи.*
6. *Гриннинг иккинчи формуласи.*
7. *Гриннинг учинчи формуласи.*

20


Математик физика тенгламалари
маърузалар
Маъруза № 11.
Мавзу:
Гармоник функцияларнинг хоссалари. Максимум принципи. Дирихле масаласи
1


Маъруза № 3
Гармоник функцияларнинг хоссалари.
Максимум принципи.
Дирихле масаласи
Режа:
1. Гармоник функция хоссалари
2. Гармоник функциялар учун максимум принципи.
3. Дирихле ички масаласининг ечими ягоналиги ва турғунлиги
4. Дирихле ташки масаласи ечими ягоналиги. Фазода Дирихле ташки масаласи
2


Таянч иборалар
Гармоник функция,
Дирихли ички, ташки масаласи,
Фазода Дирихли ташки масаласи
3

1. Гармоник функция хоссалари

Таъриф. Агар u функция $u\in C^2(\Omega)$ ва $\forall x\in\Omega$ учун $\Delta u=0$ бўлса, Ω соҳада гармоник дейилади.

1-хосса. Агар v функция Ω да гармоник бўлса, у ҳолда $\iint\limits_{\tilde{\Sigma}}\frac{\partial v}{\partial n}d\sigma=0$ бўлади, бу ерда $\tilde{\Sigma}$: Ω да ётувчи ихтиёрий ёпиқ сирт.

Исботи.

$\tilde{\Sigma}$ билан чегараланган соҳа учун Гриннинг (3.2) 1-формуласида $\upsilon\equiv 1$ ни оламиз. (равшанки, υ -гармоник функция). Демак

$$\iint\limits_{\tilde{\Sigma}}\frac{dv}{dn}d\sigma=0$$

4

2-хосса. (Ўрта қиймат ҳақидаги теорема) u функция Ω да гармоник бўлсин ва Ω да ётувчи маркази M_0 нўқтада радиуси a га тенг ихтиёрий Σ_a сфера учун

$$u(M_0)=\frac{1}{4\pi a^2}\iint\limits_{\Sigma_a}u(p)d\sigma_p \qquad (3.5)$$

формула ўринли.



Исбот.

Σ_a сферанинг ички соҳаси учун Гриннинг учинчи формуласи (3.4) ни ёзамиз:

$$4\pi u(M_0)=-\iint\limits_{\Sigma_a}[u\frac{\partial}{\partial n}(\frac{1}{R_{MM_0}})-\frac{1}{R_{MM_0}}\frac{\partial u}{\partial n}]d\sigma=\{\frac{\partial}{\partial n}(\frac{1}{R_{MM_0}})=-\frac{1}{a^2}\}=$$

$$=\frac{1}{a^2}\iint\limits_{\Sigma_a}ud\sigma+\iint\limits_{\Sigma_a}\frac{1}{a^2}\frac{\partial u}{\partial n}d\sigma$$

Гармоник функциянинг 1-хоссасига кўра иккинчи интеграл нолга айланади ва шу билан (3.5) формула исботланди.

6

3-хосса: Агар u функция- Ω да гармоник бўлса, бу ҳолда у Ω да чексиз дифференциалланувчи бўлади.

Исботи.

$u(M_0)=u(x,y,z)$ $\quad (P(P_x,P_y,P_z)\in\Sigma_a)$ учун Гриннинг 3-формуласини ёза

$$4\pi u(x,y,z)=-\iint\limits_{\Sigma}[u(P)\frac{\partial}{\partial n}(\frac{1}{\sqrt{(x-P_x)^2+(y-P_y)^2+(z-P_z)^2}})-$$

$$-\frac{1}{\sqrt{(x-P_x)^2+(y-P_y)^2+(z-P_z)^2}}\frac{\partial u(P)}{\partial n}]d\sigma_P \qquad (3.4)$$

Кўриниб турибдики: агар M нўкта $\sum$ нинг чегарасида ётмаса, у ҳолда интеграл тагидаги функция x (худи шудай y ва z) аргументлари бўйича чексиз дифферинциалланувчи.

Маълумки, бу ҳолда бутун интеграл, демак, $u(M)$ функция ҳам чексиз дифферинциаллаувчи функция.

7

2 Гармоник функциялар учун максимум принципи.

Теорема 3.1 (Максимум принципи)

Агар функция $u \in C(\overline{\Omega})$ ва Ω да гармоник бўлса, бу ҳолда у ўзининг максимум(минимум) ига соҳанинг чегарасида эришади.

$$\max_{M \in \overline{\Omega}} u(M) = \max_{M \in \Sigma} u(M);$$

$$\min_{M \in \overline{\Omega}} u(M) = \min_{M \in \Sigma} u(M);$$

Исботи: фараз қилайлик $u(M)$ функция масалан, бирор M_0 ички нўқтада максимумга эришсин: $u(M_0) = \max_{M \in \overline{\Omega}} u(M)$

у ҳолда (3.5) ўрта қиймат формуласига кўра (a-етарлича кичик сон)

$$u(M_0) = \frac{1}{4\pi a^2} \iint_{\Sigma_a} u(P) d\sigma_p \le \frac{1}{4\pi a^2} \iint_{\Sigma_a} u(M_0) d\sigma = u(M_0)$$

u функция узлуксиз бўлгани учун, у ҳолда $u(P) = u(M_0)$ (яъни максимум бутун сферада эришилади).

Бу алмаштиришларни етарлича марта давом эттириб, максимум чегарада ҳам эришишини хосил қиламиз.

3. Дирихле ички масаласининг ечими ягоналиги ва турғунлиги

Бу ерда ва кейин ҳам μ, v лар қандайдир берилган функциялар.

Таъриф: $u(x,y,z)$ функция Дирихле ички масаласининг ечими дейилади, агар у қуйидаги шартларни қаноатлантирса:

$$(3.1)\begin{cases} (1) u(x,y,z) \in C(\overline{\Omega}), u \in C^2(\Omega) \\ (2) \Delta u(x,y,z) = 0, (x,y,z) \in \Omega \\ (3) u(x,y,z) = \mu(x,y,z), (x,y,z) \in \Sigma \end{cases}$$

Ω да узлуксиз ва гармоник ечимнинг ягоналик ҳақидаги теоремани исботлаймиз.

Теорема. 3.2 (ягоналиги теоремаси) $u_1(x,y,z), u_2(x,y,z)$ функция [3.1] Дирихле ички масаласининг ечимлари бўлсин. У ҳолда

$$u_1(x,y,z) = u_2(x,y,z); \forall (x,y,z) \in \overline{\Omega}$$

Исботи: $\upsilon = u_1 - u_2$ янги функцияларни аниқлаймиз. Осон кўринадики, у $\overline{\Omega}$ да узлуксиз, Ω да гармоник ва $\upsilon(x,y,z) = 0, (x,y,z) \in \Sigma$.

У ҳолда υ функция учун максимум принципининг ҳамма шартларини қаноатлантирган ва бундан қуйидаги келиб чиқади:

$$\left.\begin{array}{l} \max\limits_{\Omega} v = \max\limits_{\Sigma} v = 0 \\ \min\limits_{\Omega} v = \min\limits_{\Sigma} v = 0 \end{array}\right\} \Rightarrow v(x,y,z) \equiv 0, (x,y,z) \in \Omega$$

теорема исботланди.

Энди Дирихле ички масаласини ечими турғунлигини кўрсатамиз. Лекин ундан аввал қуйидаги леммани исбот қиламиз:

Лемма 1. $u_1(x,y,z), u_2(x,y,z)$

функциялар қуйидаги учта шартларни қаноатлантирсин:

1. $u_1, u_2 \in C(\overline{\Omega})$;
2. $u_1, u_2 - \Omega$ да гармоник
3. $u_1(x,y,z) \geq u_2(x,y,z), (x,y,z) \in \Sigma$

У холда $u_1 \geq u_2, \forall (x,y,z) \in \Omega$

12

Исботи:

$\upsilon = u_1 - u_2$ функцияни қараймиз. У холда

$\forall (x,y,z) \in \Sigma.$ $v(x,y,z) \geq 0$

Минимум принципидан фойдаланиб (равшанки барча шартлар бажарилган)

$\overline{\Omega}$ да $\min\limits_{\overline{\Omega}} v = \min\limits_{\Sigma} v \geq 0 \Rightarrow u_1 \geq u_2$ ни хосил киламиз.

Лемма исботланди.

13

Теорема 3.3 (турғунлик теоремаси).

$u_1(x,y,z), u_2(x,y,z)$ функциялар қуйидаги шартларни қаноатлантирсин:

$$\begin{cases} (1) u_1, u_2 \in C(\overline{\Omega}) \cap C^2(\Omega); \\ (2) \Delta u_1(x,y,z) = \Delta u_2(x,y,z) = 0, (x,y,z) \in \Omega; \\ (3) u_i(x,y,z) = \mu_i(x,y,z), (x,y,z) \in \Sigma, i = 1,2. \end{cases}$$

У холда $\max\limits_{\Omega} |u_1 - u_2| \leq \max\limits_{\Sigma} |\mu_1 - \mu_2|$ бўлади.

14

Исботи. $\varepsilon = \max\limits_{\Sigma} |\mu_1 - \mu_2|, v = u_1 - u_2$

белгилаш оламиз. У ҳолда v функция Ω да гармоник,

$$-\varepsilon \leq v \leq \varepsilon; (x,y,z) \in \Sigma,$$

У ҳолда *(-ε, v)* ва *(ε, v)* функциялар жуфти учун леммани қўллаб (равшанки унинг шартлари бажарилади) $\overline{\Omega}$ да

$-\varepsilon \leq v \leq \varepsilon; (x,y,z) \in \overline{\Omega} \Rightarrow |u_1 - u_2| \leq \varepsilon$ ни оламиз.

теорема исботланди.

15

Натижа.

$u_n(x,y,z)$ функциялар кетма-кетлиги, хар бир функция хамда $u\,(x,y,z)$ мос $\sum$ $u_n=\mu_n$, Ω да $u=\mu$ Дирихле масаласи ечими бўлсин. У ҳолда да μ_n нинг текис яқинлашишидан $\sum$ да $\mu_n(\mu_n \Rightarrow \mu)$, Ω да $u_n \Rightarrow u$

келиб чиқади.

Эслатма. Исботланган теорема икки улчамли ҳол учун тўлик ўринли. Бунга ишонч ҳосил қилиш учун шунга ухшаш мулохазалар юритиш керак. Энди Дирихли масаласининг бошқа варианти- Дирихле ташқи масаласини қараймиз.

16

4. Дирихле ташки масаласи ечими ягоналиги

Фазода Дирихли ташки масаласи

Таъриф. $u(x,y,z)$ функция фазодаги Дирихле ташки масаласининг ечими дейилади, агар у қўйидаги шартларни каноатлантирса:

$$\begin{cases} (1)u(x,y,z)\in C(\mathrm{E}^3\setminus\Omega); \\ (2)\Delta u(x,y,z)=0,(x,y,z)\in \mathrm{E}^3\setminus\overline{\Omega}; \\ (3)u(x,y,z)=\mu(x,y,z),(x,y,z)\in\Sigma. \\ (4)u(x,y,z)\Rightarrow 0,(x,y,z)\to\infty \end{cases}$$

Узлуксиз ечимнинг ягоналигини исботлаймиз.

17

Теорема 3.4 (ягоналик теоремаси).

$u_1,u_2(x,y,z)$ функциялар қўйидаги шартларни қаноатлантирсин:

$$\begin{cases} (1)u_1,u_2(x,y,z)\in C(\mathrm{E}^3\setminus\Omega); \\ (2)\Delta u_1(x,y,z)=\Delta u_2(x,y,z),(x,y,z)\in \mathrm{E}^3\setminus\overline{\Omega}; \\ (3)u_1,u_2(x,y,z)=\mu(x,y,z),(x,y,z)\in\Sigma. \\ (4)u_1,u_2(x,y,z)\Rightarrow 0,(x,y,z)\to\infty \end{cases}$$

У холда $u_1(x,y,z)=u_2(x,y,z),(x,y,z)\in\Sigma^3\setminus\overline{\Omega}$ бўлади.

18

Исботи.

$v(x,y,z)=u_{1(}(x,y,z)-u_2(x,y,z)$ бўлсин. У ҳолда v функция теореманинг $\mu(x,y,z)=0$ шартини каноатлантиради.

$v\equiv 0$ эканлигини исботлаймиз;

Тескарисини фараз қилайлик, яъни,

$\exists M_0(x_0,y_0,z_0)\in \mathrm{E}^3\setminus\overline{\Omega}: v(x_0,y_0,z_0)=A>0$ бўлсин.

19

У ҳолда текис яқинлашиш таърифига кўра M_0 нўқтани тўла уз ичига олувчи R радиусли шундай Σ_R сфера мавжудки $|v(x,y,z)| \le \frac{A}{2}, (x,y,z) \in \Sigma_R$

Бу ҳолда

$$\max_{\Sigma_R} v(x,y,z) \le \frac{A}{2};$$

$$\min_{\Sigma_R} v(x,y,z) \ge -\frac{A}{2}.$$

бўлади.

20

v функция га Ω_R очик соҳада максимал қиймат принципини қўллаб (бу соҳа ташқарисидан Σ_R билан, ичкарисидан- Σ билан чегараланган):

$$\begin{cases} \max\limits_{\Omega_R} v = \max\limits_{\Sigma \cup \Sigma_R} v \le \frac{A}{2}; \\ \min\limits_{\Omega_R} v = \min\limits_{\Sigma \cup \Sigma_R} v \le -\frac{A}{2}; \end{cases} \Rightarrow |v(x_0, y_0, z_0)| \le \frac{A}{2}.$$

ни оламиз.

$v(x_0, y_0, z_0) = A$ билан қарама-қаршиликга келамиз. У ҳолда

$v(x,y,z) = 0$ эканлиги келиб чикади. Теорема исботланди. Туртинчи шарт мухим роль уйнаяттанини куйидаги мисолда курсатамиз.

21

Мисол. $\Omega : x^2 + y^2 + z^2 < a^2;$

$\Sigma : x^2 + y^2 + z^2 = a^2.$ бўлсин.

Энди қуйидаги Дирихли ташки масаласини қараймиз.

$1. u \in C(E^3 \setminus \overline{\Omega});$

$2. u - E^3 \setminus \overline{\Omega}$

$3. u(x,y,z) = C = const, (x,y,z) \in \Sigma$ да гармоник функция

Осон кўриш мумкинки $u_1(x,y,z) = C$ ва $u_2(x,y,z) = \frac{Ca}{\sqrt{x^2+y^2+z^2}}$

функциялар берилган масаланинг ечимлари бўлади, лекин $u_1 \neq u_2$

,шунинг учун бу қўйилган шартлар масала ечими ягоналигига зид.

22

Саволлар

1. Гармоник функция таърифи.
2. Гармоник функция хоссалари.
3. Максимум принципи теоремаси.
4. Дирихле ички масаласининг ечими ягоналиги теоремаси.
5. Дирихле ички масаласининг ечими тургунлиги теоремаси.
6. Дирихли ташки масаласининг ечими таърифи.
7. Дирихле ташки масаласи ечими ягоналиги теоремаси.

23

Математик физика тенгламалари
маърузалар

Маъруза № 12.

Мавзу:

Текисликда Дирихленинг ташқи масаласи

1

Маъруза № 12

Текисликда Дирихленинг ташқи масаласи

Режа:

1. Ягоналик теоремаси.
2. Нейманнинг ички масаласи
3. Нейманнинг ички масаласи ечилиши учун зарурий шартлар.
4. Ечимнинг ягоналиги.
5. Лаплас тенгламаси учун Грин функцияси ва унинг хоссалари

2

Таянч иборалар

Ягоналик теоремаси,
Нейманнинг ташки масаласи,
Лаплас тенгламаси,
Грин функцияси,
Грин функцияси хоссалари

3

Текисликда Дирихленинг ташқи масаласи

Таъриф: Агар $u(x,y)$ функция қуйидаги шартларни қаноатлантирса, шунда текисликда Дирихле ташқи масаласининг ечими дейилади:

$$[3.3]\quad \begin{cases} (1) & u(x,y)\in C(E^2\setminus D), \quad u\in C^2(E^2\setminus \overline{D}) \\ (2) & \Delta u(x,y)=0, \qquad (x,y)\in E^2\setminus \overline{D} \\ (3) & u(x,y)=\mu(x,y), \qquad (x,y)\in L \\ (4) & |u(x,y)|\le C=const, \quad (x,y)\in E^2\setminus \overline{D} \end{cases}$$

4

3.5. теорема (ягоналик). Фараз қиламиз, $u_1, u_2(x,y)$ шундай функциялар бўлсинки, улар учун

$$\begin{cases} (1) \quad u_1, u_2(x,y) \in C\left(E^2 \setminus D\right), \quad u \in C^2\left(E^2 \setminus \overline{D}\right) \\ (2) \quad \Delta u_1(x,y) = \Delta u_2(x,y), \qquad (x,y) \in E^2 \setminus \overline{D} \\ (3) \quad u_1, u_2(x,y) = \mu(x,y), \qquad (x,y) \in L \\ (4) \quad \left|u_i(x,y)\right| \le C_i = const, \qquad i = 1,2; \quad (x,y) \in E^2 \setminus \overline{D} \end{cases}$$

У ҳолда $E^2 \setminus \overline{D}$ фазода $u_1(x,y) = u_2(x,y)$ бўлади

5

Исбот:

Фараз қиламиз, $u = u_1 + u_2$ Унда v учун:

$v(x,y) = 0, \quad (x,y) \in L, \quad \left|v(x,y)\right| \le C = c_1 + c_2$ Исбот қиламизки,

$$v(x,y) \equiv 0, \quad (x,y) \in E^2 \setminus \overline{D}$$

Тескарисини фараз қиламиз: шундай $M^*\left(x^*, y^*\right), \ \left(x^*, y^*\right) \in E^2$ мавжудки, $v\left(x^*, y^*\right) = A > 0$. У ҳолда шундай a-ни оламизки, маркази $M_0\left(x_0, y_0, z_0\right)$ нуқтада бўлган L_a айлана тўлигича D да ётсин ва шундай R танлаймизки L_R айлана D соҳани ҳам M^* нуқтани ҳам ўзида сақласин.

Ушбу

$$w_R(x,y) = C \frac{\ln \frac{\sqrt{(x - x_0)^2 + (y - y_0)^2}}{a}}{\ln \frac{R}{a}}$$

функцияни аниқлаймиз

6

Кўриниб турибдики,

1) $w_R(x,y) \in C\left(E^2 \setminus D\right)$

2) $w_R(x,y)$ функция $E^2 \setminus \overline{D}$ соҳада гармоник функция.

3) L чегарада $w_R(x,y) \ge 0$ бўлади.

4) L_R чегарада $w_R(x,y) = C$ бўлади.

Бу ердан

$$\begin{cases} \left|v(x,y)\right| \le w_R(x,y), \quad (x,y) \in L \\ \left|v(x,y)\right| \le C = w_R(x,y), \quad (x,y) \in L_R \end{cases}$$

келиб чиқади.

7

Максимумлар принципини қўллаб, ичкаридан L билан ва ташқаридан L_R билан чегараланган D_{LL_R} соҳада

$\left|v(x,y)\right| \le w_R(x,y), \quad (x,y) \in D_{LL_R}$ ни ҳосил қиламиз. Бу ердан

$$\left|v\left(x^*, y^*\right)\right| \le w_R\left(x^*, y^*\right) = w_R(x,y) = C \frac{\ln \frac{\sqrt{\left(x^* - x_0\right)^2 + \left(y^* - y_0\right)^2}}{a}}{\ln \frac{R}{a}}$$

R ни чексизликка интилтириб,

$$\left|v\left(x^*, y^*\right)\right| \le w_\infty\left(x^*, y^*\right) = 0$$ ни ҳосил қиламиз.

Бу эса, $v\left(x^*, y^*\right) = A$ деб фаразимиз қилганимиз нотўғрилигини исботлайди. Демак, $v(x,y) \equiv 0$ эканлиги келиб чиқади. Теорема исботланди.

8

(4) шарт муҳим эканини кўрсатувчи мисол келтирамиз:
Мисол:
Фараз қилайлик: $D: x^2+y^2<b^2$

$Д: x^2+y^2=b^2$

Дирихленинг ташқи масаласини қуйидагича қўямиз:

$$\begin{cases} \Delta u = 0, & E^2 \setminus \overline{D} \\ u(x,y) = C = const, & (x,y) \in L \end{cases}$$

Осонгина текшириб кўриш мумкинки, $u_1(x,y)=C$ ва

$$u_2(x,y) = C + \ln\frac{\sqrt{x^2+y^2}}{b}$$

функциялар берилган масаланинг ечимлари бўлади. Аммо u_2 функция ҳеч қандай ўзгармас билан чегараланмаган, шунинг учун ҳам масаланинг бундай қўйилишида ягоналик бузилмаган.

9

Нейманнинг ички масаласи

Таъриф: Агар E^4 фазода аниқланган $u(x,y,z)$ функция қуйидаги 3 та [3.4] масаланинг шартларини қаноатлантирса, шунда у Нейман ички масаласининг ечими дейилади:

$$[3.4] \quad \begin{cases} (1) \quad u(x,y,z) \in C^1(\overline{\Omega}), & u \in C^2(\Omega) \\ (2) \quad \Delta u(x,y,z) = 0, & (x,y,z) \in \Omega \\ (3) \quad \dfrac{\partial u}{\partial n}(x,y,z) = v(x,y,z), & (x,y,z) \in \Sigma \end{cases}$$

Шунга диққатингизни қаратингки, u функция $\overline{\Omega}$ соҳада ва унинг 1-чи тартибли ҳосилаларари билан биргаликда узлуксиз бўлиши кераклиги талаб қилинмоқда, ва бу билан Дирихле масаласидан фарқ қилади. Чунки, Дирихле масаласида фақат u функциянинг узлуксизлиги талаб этилган эди.

10

Нейманнинг ички масаласи ечилиши учун бўлган зарурий шарт

Фараз қиламиз, u функция [3.4] масаланинг ечими ва v – ихтиёрий икки марта дифференциалланувчи функция бўлсин. Бу функциялар учун Гриннинг 2-чи формуласини қўллаймиз:

$$\iiint\limits_{\Omega} (u\Delta v - v\Delta u)\,d\tau = \iint\limits_{\Sigma} \left(u\frac{\partial v}{\partial n} - v\frac{\partial u}{\partial n} \right) d\sigma$$

$v=1$ бўлганда қуйидаги ҳосил бўлади:

$$\iint\limits_{\Sigma} \frac{\partial u}{\partial n}\,d\sigma = \iint\limits_{\Sigma} v(x,y,z)\,d\sigma = 0 \qquad (3.6)$$

(3.6) тенглик Нейман ички масаласининг ечилиши учун зарурий шарт дейилади. Нейман масаласи ечимининг ягоналигини исботлаймиз. Осонгина кўриш мумкинки, агар u функция ([3.4]) масаланинг ечими бўлса, унда *(u+const)* ҳам ечимдир. Буни тривиал бир қийматли эмаслик деб атаймиз. Фақат шундай бир қийматли эмаслик бўлиши мумкинлигини исботлаймиз

11

Ечимнинг ягоналиги

3.6. теорема (ягоналик теоремаси)

Фараз қиламиз, $u_i(x,y,z)$, $i=1,2$ учун:

1) $u_i \in C^1(\Omega)$

2) Ω соҳада u_i гармоник функция

3) $\dfrac{\partial u}{\partial n}(x,y,z) = v(x,y,z)$, $(x,y,z)\in\Sigma$ ўринли.

У ҳолда $u_1 - u_2 \equiv const$

(бу шуни билдирадики,

$v\equiv 0$ да фақатгина тривиал ечим мавжуд).

12

Исбот: Грининг 1-формуласини ихтиёрий икки марта дифференциалланувчи u ва v функциялар учун ёзамиз:

$$\iiint_{\Omega}\left(u\Delta v - grad^2 u\right)d\tau = \iint_{\Sigma} u\frac{\partial v}{\partial n}d\sigma$$

$u_1 - u_2$ функция [3.4] масаланинг $v = 0$ бўлган ҳолдаги ечимидир. Грин формуласида $u = v = u_1 - u_2$ дейлик. Унда

$$\iiint_{\Omega}\left(u\Delta v - grad^2 u\right)d\tau = \iint_{\Sigma} u\frac{\partial v}{\partial n}d\sigma$$

$$\Rightarrow \iiint_{\Omega}\left(u_x^2 + u_y^2 + u_z^2\right)d\tau = 0 \quad \Rightarrow \quad u_x = u_y = u_z = 0 \quad \Rightarrow \quad u = const$$

Теорема исботланди.

13

Лаплас тенгламаси учун Грин функцияси ва унинг хоссалари

E^3 фазода аниқланган гармоник u функция учун Грининг 3-формуласини ёзиб оламиз:

$$u(M) = \frac{1}{4\pi}\iint_{\Sigma}\left[\frac{1}{R_{MP}}\frac{\partial u}{\partial n} - u(P)\frac{\partial}{\partial n}\left(\frac{1}{R_{MP}}\right)\right]d\sigma_P \qquad (3.7)$$

Бу ерда - $P \in \Sigma, \quad M \in \Omega$

Демак биз *u(M)* функция учун ифода олдик. Уни Дирихле ва Нейман масалалари учун қўллашга ҳаракат қиламиз. Грининг 2-чи формуласини ёзиб оламиз.

14

Бунда v фукнция Ω соҳада гармоник бўлган функция:

$$\iiint_{\Omega}\left(u\Delta v - grad^2 u\right)d\tau = \iint_{\Sigma} u\frac{\partial v}{\partial n}d\sigma$$

u ва v функциялар гармоник, демак,

$$\iint_{\Sigma}\left[u(P)\frac{\partial v}{\partial n} - v(P)\frac{\partial u}{\partial n}\left(\frac{1}{R_{MP}}\right)\right]d\sigma_P = 0 \qquad (3.8)$$

(3.7) формуладан (3.8) формулани айириб,

$$u(M) = \iint_{\Sigma}\left[\left(\frac{1}{4\pi} + u(P)\right)\frac{\partial v}{\partial n}(P) - u(P)\frac{\partial}{\partial n}\left(\frac{1}{4\pi R_{MP}} + v(P)\right)\right]d\sigma_P$$

15

ни ҳосил қиламиз.

$$G(M,P) = \frac{1}{4\pi R_{MP}} + v(P)$$

дейлик.

Унда

$$u(M) = \iint_{\Sigma}\left[G(M,P)\frac{\partial v}{\partial n}(P) - u(P)\frac{\partial G}{\partial n}(M,P)\right]d\sigma_P$$

Демак, *u(M)* функция учун ихтиёрий гармоник функция иштирок этган янги формула ҳосил қилдик. Уни ўзгартириб, турли ечимларни ҳосил қилиш мумкин.

16


Мисол:
1) Агар $G|_{P\in\Sigma}=0$ бўлса, у ҳолда
$$u(M)=-\iint_{\Sigma}u(P)\frac{\partial G}{\partial n}(M,P)d\sigma_P$$
Биз [3.1] Дирихле масаласининг ечими учун формула ҳосил қилдик
2) Агар
$\tilde{G}:\frac{\partial\tilde{G}}{\partial n}\Big|_{P\in\Sigma}=0,$ бўлса, у ҳолда
$$u(M)=\iint_{\Sigma}\tilde{G}(M,P)\frac{\partial v}{\partial n}(P)d\sigma_P$$
Демак, биз Дирихле ва Нейман масалаларини ечимларини топиш йўлларини соддалаштирдик, чунки бу масалаларни уларга мос Грин функцияларига олиб келдик. Энди аниқ таъриф берамиз.
17

Таъриф: Агар
1) $\frac{\partial^2 G}{\partial\xi^2}+\frac{\partial^2 G}{\partial\eta^2}+\frac{\partial^2 G}{\partial\zeta^2}=0,\quad \forall P\in\Omega,\quad P\neq M$
2) $G(M,P)$ қуйидаги кўринишда: $G(M,P)=\frac{1}{4\pi R_{MP}}+v$ (3.9)
бу ерда v- Ω соҳадаги гармоник функция.
3) $G(M,P)_{P\in\Sigma}=0$ шунда
$G(M,P):M(x,y,z),\quad P(\xi,\eta,\zeta)\in\overline{\Omega}$
функция Дирихле ички масаласи учун Грин функцияси дейилади.
Яъни, v функцияга қуйидаги талаблар қўйилади:
v- Ω соҳада гармоник функция ва
$$v|_{\Sigma}=-\frac{1}{4\pi R_{MP}}$$
18

Саволлар
1. Дирихле ташқи масаласининг ечимининг таърифи.
2. Ягоналик теоремаси
3. Нейманнинг ички масаласининг таърифи
4. Ечимнинг ягоналик теоремаси
5. Дирихле ички масаласи учун Грин функциясининг таърифи
19

Математик физика тенгламалари
маърузалар

Маъруза № 13.

Мавзу: Грин функциянинг хоссалари. Иккиланган қатлам потенциали

1

Маъруза № 13

Грин функциянинг хоссалари. Иккиланган қатлам потенциали

Режа

1. ***Грин функциянинг 1-чи хоссаси***
2. ***Грин функциянинг 2-чи хоссаси***
3. ***Оддий ва иккиланган қатлам потенциали. Бирлик зичлик билан берилган иккиланган қатлам потенциали***

2

Таянч иборалар

Грин функцияси,
1-чи хосса,
2-чи хосса,
оддий ва иккиланган қатлам потенциали

3

1. Грин функциянинг 1-чи хоссаси

$$G(M,P) > 0, \quad M,P \in \Omega, \ P \neq M.$$

Исбот: Ω ичида бирор $M_0(\cdot)$ нуқтани оламиз. Етарлича кичик a радиуси ва маркази M_0 да бўлган сферани ҳамда Σ ва Σ_a ўртасидаги Ω_a соҳани қараймиз.



Ωa соҳада M0, P ўзгарувчиларга боғлиқ бўлган Грин функциясини қуриб чиқайлик. У ҳолда Ω а гармоникдир. Демак, max қиймат принципининг барча шартлари бажарилади. G_a(M0, P) учун ушбу ифода ўринли: (3.9)

4

1. Грин функциянинг 1-чи хоссаси

$$G(M_0,P)=\frac{1}{4\pi R_{M_0P}}+v(P),\quad \text{бу ерда}\quad \frac{1}{4\pi R_{M_0P}}\xrightarrow{R\to 0}\infty$$

v эса Ω да гармоник (демак чегараланган) функция булгани учун, шундай a ни олиш мумкинки,

$$G\mid P\in\Sigma_a<0 \quad \text{уринли булади.}$$

$$G(M,P)\mid P\in\Sigma=0 \ \text{булгани учун} \qquad G(M_0,P)\geq 0$$

ифода Ω_a даги $\forall P$ учун ўринли.

G функция константа бўлмагани учун, у Ω а ичида минимумга (яъни 0 қийматга) эришмайди. У холда (a ни ∞ кичрайтириш мумкин булгани учун)

Ω даги ихтиёрий нукталар учун $P\neq M$ $G(M,P)>0$ уринли. Тасдиқ уринли.

5

2. Грин функциянинг 2-чи хоссаси

$$G(M,P)=G(P,M)\qquad \forall M,P\in\Omega,\ \ M\neq P \qquad (3.10)$$

Исбот: M_1, M_2 нукталарни фиксирлаймиз – улар Ω даги 2 та хар хил ихтиёрий нукталар. $G(M_1,M_2)=G(M_2,M_1)$ ни исботлаш етарли.
Белгилаш киритамиз:

$$u(\xi,\eta,\zeta)=G(M_1,P);$$
$$v(\xi,\eta,\zeta)=G(M_2,P).$$

$\sum^1_\varepsilon$ етарлича кичик ε радиусли сфера (Ω^1_ε – унга мос шар) булиб, M_1 (·)ни ураб турсин, $\sum^2_\varepsilon$, Ω^2_ε эса мос холда M_2 (·) учун сфера ва шар булсин. Ω_ε - Ω сохаинг ички қисми булсин ва Ω^2_ε, Ω^1_ε шарлар бу сохага тегишли бўлмасин. u ва v функциялар учун Гриннинг 2 – формуласини ёзиб оламиз (Грин аниқланишига кўра Ω_ε да улар гармоник функциялар) ва куйидагига эга буламиз.

6

2. Грин функциянинг 2-чи хоссаси

$$\iiint\limits_{\Omega_\varepsilon}(u\Delta v-v\Delta u)dr=\iint\limits_{\Sigma}\left(u\frac{dv}{dn}-v\frac{dv}{dn}\right)d\sigma+\iint\limits_{\Sigma^1_\varepsilon}\left(u\frac{dv}{dn}-v\frac{du}{dn}\right)+$$

$$+\iint\limits_{\Sigma^2_\varepsilon}\left(u\frac{dv}{dn}-v\frac{du}{dn}\right)d\sigma\Rightarrow\left\{G\middle|p\in\Sigma\Rightarrow u\middle|\Sigma=v\middle|\Sigma=0\right\}\Rightarrow$$

$$\iint\limits_{\Sigma^1_\varepsilon}\left[G(M_1,P)\frac{\partial G(M_2,P)}{\partial n}-G(M_2P)\frac{\partial G(M_1,P)}{\partial n}\right]d\sigma_p+$$

$$+\iint\limits_{\Sigma^2_\varepsilon}\left[G(M1,P)\frac{\partial G(M_2,P)}{\partial n}-G(M_2,P)\frac{\partial G(M_1,P)}{\partial n}\right]d\sigma_p=0 \qquad (3.11)$$

7

2. Грин функциянинг 2-чи хоссаси

1 – интегралнинг 1- кўпайтувчини кўриб чиқамиз. Е -> 0 да (3.9) даги $G(M_2P)$ функция ифодасида катнашувчи u ва v функциялар $\sum^1_\varepsilon$ да гармоник ва чегараланган функциялар (Масалан: $\frac{\partial G(M_2,P)}{\partial n}$ C_1 ва C_2 константалар билан чегараланган). У холда ушбуга эга буламиз;

$$\iint\limits_{\Sigma^1_\varepsilon}G(M_1,P)\frac{\partial G(M_2,P)}{\partial n}d\sigma_p\leq\iint\limits_{\Sigma^1_\varepsilon}\left|\frac{1}{4\pi R_{M_1P}}\right|\left|\frac{\partial G(M_1,P)}{\partial n}\right|d\sigma_p\leq$$

$$\leq\left|\frac{C_1}{4\pi R_{M_1P}}-c_1c_2\right|d\sigma=\iint\limits_{\Sigma^1_\varepsilon}\left|\frac{c_1}{4\pi\varepsilon}+c_1c_2\right|d\sigma_p=c_1\varepsilon+4\pi c_1c_2\varepsilon^2\xrightarrow{\varepsilon\to 0}0$$

8

2. Грин функциянинг 2-чи хоссаси

2-кўпайтувчи эса мураккаброк. $G(M_1,P)$ функция учун (3,9) ифодадан фойдаланиб, уни 2 та интегралга ажратамиз:

$$\iint_{\Sigma_\varepsilon^1} G(M_2,P)\frac{\partial}{\partial n}\left(\frac{1}{4\pi R_{M_1P}}\right)d\sigma+\iint_{\Sigma_\varepsilon^1} G(M_2,P)\frac{\partial v}{dn}d\sigma_p$$

ε кичрайиши билан 2 – интеграл ҳам 0 га интилади. (юқорида келтирилган тушунтиришларга кўра)

$\frac{\partial}{\partial n}\left(\frac{1}{4\pi R_{M_1P}}\right)$ кўпайтувчини текширамиз. Таърифга кура: $\frac{\partial f}{\partial n}=(\vec{n}, grad\ f)$

Бизнинг холда

$$n=\left\{-\frac{(\xi-x)}{R_{M_1P}},-\frac{(\eta-y)}{R_{M_1P}},-\frac{(\zeta-z)}{R_{M_1P}}\right\}, grad\frac{1}{R_{M_1P}}=\left\{-\frac{(\xi-x)}{R^3_{M_1P}},-\frac{(\eta-y)}{R^3_{M_1P}},-\frac{(\zeta-z)}{R^3_{M_1P}}\right\}$$

9

2. Грин функциянинг 2-чи хоссаси

Бундан келиб чиқадики,

$$\frac{\partial}{\partial n}\left(\frac{1}{R_{M_1P}}\right)=\frac{1}{4\pi R^2_{M_1P}}\Rightarrow\iint_{\Sigma_\varepsilon^1} G(M_2P)\frac{\partial}{\partial n}\left(\frac{1}{4\pi R_{M_1P}}\right)\partial\sigma_p=$$

$$=\frac{1}{4\pi\varepsilon^2}\iint_{\Sigma_\varepsilon^1} G(M_2P)\partial\sigma_p=$$

= {уртача қиймат ҳақидаги (5.2) формула}=

$$=\frac{G(M_2P')}{4\pi\varepsilon^2}\iint_{\Sigma_\varepsilon^1}\partial\sigma\xrightarrow{\varepsilon\to 0}G(M_2,M_1)$$

10

2. Грин функциянинг 2-чи хоссаси

(3.11) формуладаги 2 – интеграл биринчисидан ўзгарувчини алмаштириш ва ишорасини алмаштириш оркали хосил қилинади. Шунга ухшаш фикр юритиб, у $G(M_1,M_2)$ га интилишини топамиз. Бу ердан қуйидаги формулага эга буламиз:

$$G(M_2,M_1)-G(M_1,M_2)=0$$

Бу формула Ω даги барча хар хил M_1,M_2 (·) учун тўғридир. Тасдиқ исботлади.

11

3. Оддий ва иккиланган қатлам потенциали. Бирлик зичлик билан берилган иккиланган қатлам потенциал

Шундай қилиб, текислик ва фазодаги Лаплас тенгламасининг ечимлари қуйидагича:

$$E^3:\frac{1}{R_{MP}};\quad E^2:\ln\frac{1}{\rho_{MP}},$$

Бу ерда $M(x,y,z)$- фиксирланган нуқта, $P(\xi,\eta,\zeta)$ - ўзгарувчи.
Фараз қилайлик $\sum$ бу M нуқтани ўз ичига оладиган Ω соҳани чегаралаб турувчи қандайдир ёпиқ сирт бўлсин. E^3 да қуйидаги функцияни қараб чиқайлик:

$$v(M)=\iint_{\Sigma} g(P)\frac{1}{R_{MP}}\partial\sigma p$$

ва унга ***оддий қатлам потенциал*** деб ном қўямиз.

12

3. Оддий ва иккиланган қатлам потенциали

Ва шу билан бир қаторда қўйидаги функцияни қараймиз

$$u(M) = -\iint_{\Sigma} f(P)\frac{\partial}{\partial n}\left(\frac{1}{R_{MP}}\right)\partial\sigma p$$

ва бу функцияга ***иккиланган қатламнинг потенциали*** деган ном қўямиз. Қўйидаги нарсани кўрсатамиз

$$\forall M \notin \Sigma \quad \partial a \quad \Delta v \equiv \Delta u \equiv 0$$

13

3. Оддий ва иккиланган қатлам потенциали

$$\Delta_M v = \Delta_M \iint_{\Sigma} g(P)\frac{1}{R_{MP}}d\sigma_P =$$

$$= \iint_{\Sigma} g(P)\Delta\left(\frac{1}{R_{MP}}\right)d\sigma_P = 0 \quad \textit{чунки} \quad \Delta\left(\frac{1}{R_{MP}}\right) \equiv 0$$

Иккиланган қатлам потенциали учун натижа худди шундай:

$$\Delta_M u = \Delta_M \iint_{\Sigma} f(P)\frac{\partial}{\partial n}\frac{1}{R_{MP}}d\sigma_P =$$

$$= \iint_{\Sigma} f(P)\frac{\partial}{\partial n}\Delta\left(\frac{1}{R_{MP}}\right)d\sigma_P = 0$$

14

3. Оддий ва иккиланган қатлам потенциали

Текисликда потенциал тушунчасини аниклайлик. L – M (x,y)(·) ни ўраб турувчи ёпик эгри чизик булсин:

$$v(M) = \int_{L} g(P)\ln\frac{1}{\rho MP}dl_p$$

оддий катлам потенциали.

$$u(M) = -\int_{L} f(P)\frac{\partial}{\partial n}(\ln\frac{1}{\rho MP})dl_P$$

иккиланган катлам потенциали.

15

3. Оддий ва иккиланган қатлам потенциали

Шундай килиб, потенциаллар гармоник функциялардир. Бундан келиб чикадики, уларни, баъзи масалаларни ечишда, масалан Нейман масаласини ечишда қўллаш мумкин, бунинг учун мос g ва f функцияларни танлаймиз ва бу функцияларни мос потенциалларнинг **зичликлари** деб атаймиз.

16


Саволлар
1. Грин функциянинг 1-чи хоссаси
2. Грин функциянинг 2-чи хоссаси
3. Оддий ва иккиланган қатлам потенциали.


Математик физика тенгламалари
маърузалар
Маъруза № 14.
Мавзу:
Потенциал хоссалари


Маъруза № 14
Потенциал хоссалари
Режа:
1. Иккиланган қатлам потенциали
2. Потенциаллар хоссалари.


Таянч иборалар
Иккиланган қатлам потенциали,
потенциаллар хоссалари,
Дирихленинг ички масаласи

1. Иккиланган қатлам потенциали

Текисликда иккиланган қатлам потенциалини бирмунча батафсил кўриб чиқамиз.

$$u(M)=-\int_L f(P)\frac{\partial}{\partial n}\left(\ln\frac{1}{\rho_{MP}}\right)dl_P \quad (3.12)$$

Фараз қиламиз L эгри чизиқ ва унга ўтказилган уринмалар (маълум маънода) узлуксиздир. Шундан келиб чиқан ҳолда

4

1. Иккиланган қатлам потенциали

$$-\frac{\partial}{\partial n}(\ln\frac{1}{\rho_{MP}}):$$

$$\frac{\partial}{\partial \xi}\left(\ln\frac{1}{\rho_{MP}}\right)=\left\{\rho_{MP}=\sqrt{(x-\xi)^2+(y-\eta)^2}\right\}=$$

$$=-\frac{1}{\rho_{MP}}\frac{1}{2}\frac{2(\xi-x)}{\rho_{MP}}=-\frac{\xi-x}{\rho^2{}_{MP}};$$

$$\frac{\partial}{\partial \eta}\left(\ln\frac{1}{\rho_{MP}}\right)=-\frac{\eta-y}{\rho^2{}_{MP}};$$

5

1. Иккиланган қатлам потенциали

$$\overline{MP}=\{\xi-x,\eta-y\} \;\Rightarrow\; -\frac{\partial}{\partial n}\left(\ln\frac{1}{\rho_{MP}}\right)=-\left(\vec{n}, grad\ln\left(\frac{1}{\rho_{MP}}\right)\right)=$$

$$=\left(\vec{n},\frac{\overline{MP}}{\rho^2{}_{MP}}\right)=\rho_{MP} \;\Rightarrow\; u(M)=\int_L f(P)\frac{\cos\angle(\overline{MP},\vec{n})}{\rho_{MP}}dl_P \quad (3.13)$$

Зичлиги 1 га тенг бўлган потенциал бўлсин.

$$u_e(M)=\int_L\frac{\cos\angle(\overline{MP},\vec{n})}{\rho_{MP}}dl_P$$

6

1. Иккиланган қатлам потенциали

Қутб координатаси системасидан фойдаланиб ҳисоблаймиз. M нўқта орқали маълум битта ўқ ўтказамиз ва ундан φбурчакларни ҳисоблаймиз. L эгри чизиқнинг P нуқтасидан унга ўтказилган уринма билан шу ўқ ўртасидаги бурчакни $[0, \pi/2]$ оралиқда α бурчаги деб белгилаймиз. Шунда қуйидаги муносабатлар тўғри бўлади.

$$\angle(\overline{MP},\vec{n})=\frac{\pi}{2}-\phi-\alpha \;\Rightarrow\; \cos\angle(\overline{MP},\vec{n})=\sin(\phi+\alpha) \;\Rightarrow$$

$$\Rightarrow u_e(M)=\int_L\frac{\sin(\phi+\alpha)}{\rho_{MP}}dl_P \quad (3.14)$$

7

1. Иккиланган қатлам потенциали



1. Иккиланган қатлам потенциали

$P(\varepsilon,\eta)$ нуқта координаталарида, тўғри бурчакли координаталар системасида қутб координаталар системасига ўтамиз.

$$\xi = r(\phi)\cos\phi;$$

$$\eta = r(\phi)\sin\phi;$$

$$\begin{aligned} d\xi &= [(r'(\phi)\cos(\phi) - r(\phi)\sin(\phi))]d\phi \\ dn &= [(r'(\phi)\sin(\phi) - r(\phi)\cos(\phi))]d\phi \end{aligned} \qquad (*)$$

Расмдан кўриниб турибдики

$$\begin{cases} d\xi = -dl\cos\alpha; \\ d\eta = dl\sin\alpha; \end{cases}$$

1. Иккиланган қатлам потенциали

(3.14) даги интеграл остидаги функцияни ўзгартирамиз.

$$\sin(\phi+\alpha)dl = \sin\phi\cos\alpha dl + \cos\phi\sin\alpha dl =$$

$$= \begin{Bmatrix} d\xi = -dl\cos\alpha \\ d\eta = dl\sin\alpha \end{Bmatrix} = \cos\phi d\eta - \sin\phi d\xi = (*) =$$

$$= (\cos\phi\sin\phi r' + r'\cos^2\phi - r'\sin\phi\cos\phi + r\sin^2\phi)d\phi =$$

$$= rd\phi \Rightarrow \cos\angle(\overrightarrow{MP},\vec{n})dl = r(\phi)d\phi \Rightarrow$$

$$\Rightarrow u_e(M) = \int_L \frac{r(\phi)}{r(\phi)}d\phi = 2\pi$$

1. Иккиланган қатлам потенциали

Худди шундай ўзгартиришлар асосида нуқта соҳадан ташқарида ёки унинг чегарасида ётган бўлса қуйидаги муносабатлар ўринли бўлишини ҳосил қиламиз:

$$u_e(M) = \begin{cases} \pi, & M \in L \\ 0, & M \notin D \end{cases}$$

Шундай қилиб

$$u_e = (M) = \begin{cases} 2\pi, & M \in D \\ \pi, & M \in L \\ 0, & M \notin \overline{D} \end{cases} \qquad (3.15)$$

2. Потенциаллар хоссалари

Энди зичлиги 1 га тенг бўлган потенциал ифодасини билган ҳолда бизнинг бошланғич потенциалимизнинг баъзи хоссаларини чиқарамиз.
Бунинг учун қуйидаги таъриф керак бўлади.

Таъриф $\int_l F(P,M)dl_P$ *интеграл* $M_0 \in L$ *нуқтада текис яқинлашувчи дейилади, агар* $\forall \varepsilon > 0 \exists V(M_0)$ *— M_0 нуқтанинг атрофи ва* $l \in L$ *ёй шундаким,* $\int_l F(P,A)dl_P$ *интеграл* $\forall A \in V(M_0)$ *яқинлашувчи бўлса ва* $\left|\int_l F(P,A)dl_P\right| \le \varepsilon$

2. Потенциаллар хоссалари

Қуйидаги теоремадан исботсиз фойдаланамиз.
Теорема: 3.7

$F(P,M)$ *функция* $P \ne M$ *ҳамма нуқталарда узлуксиз бўлсин. Шунда* $\int_l F(P,M)dl_P$ *интеграл текис яқинлашадиган нуқталарда узлуксиз функциядан иборат бўлади.*
L чегарада M_0 нуқтани олиб

$u(M) - f(M_0)u_e(M)$ функцияни кўриб чиқамиз.

2. Потенциаллар хоссалари

Теорема: 3.8
(3.12) даги $f(P)$ **функция M_0 нуқтада узлуксиз бўлса**
$u(M) - f(M_0)u_e(M)$
функция M_0 нуқтада узлуксиз бўлади.

2. Потенциаллар хоссалари

Исбот:

$$u(M) - f(M_0)u_e(M) = (3.13) =$$

$$= \int_L f(P)\frac{\cos\angle\left(\overrightarrow{MP},\vec{n}\right)}{\rho_{MP}}dl_P -$$

$$- \int_L f(M_0)\frac{\cos\angle\left(\overrightarrow{MP},\vec{n}\right)}{\rho_{MP}}dl_P =$$

$$= \int_L \left(f(P) - f(M_0)\right)\frac{\cos\angle\left(\overrightarrow{MP},\vec{n}\right)}{\rho_{MP}}dl_P$$

2. Потенциаллар хоссалари

Бизнинг функциямиз узлуксизлигидан $\forall \varepsilon > 0$

M_0 нуқтанинг шундай атрофи мавжуд эканлиги келиб чиқади. У ерда

$$\left| f(P) - f(m_0) \right| \le \varepsilon$$

Демак маркази M_0 нуқтада бўлган қутб координаталарига ўтиб биз томонимиздан эгри чизиқга қўйилган шартларда

$$\left| \int_L (f(P) - f(M_0)) \frac{\cos \angle(\overrightarrow{MP}, \vec{n})}{\rho_{MP}} dl_P \right| = \left| \int_L (f(P) - f(M_0)) d\phi \right| \le \varepsilon \left| \int_L d\phi \right| = 2\pi\varepsilon$$

ҳосил қиламиз.
Теорема исботланди.

16

2. Потенциаллар хоссалари

Энди $u_p(M)$ функция учун (3.15) формуладан фойдаланиб теорема даъвосини ҳисобга олиб $u(M)$ функция M_0 нуқтадаги куриниши $u_e(M) f(M_0)$ фукциянинг кўринишига тенг эканлигини ҳосил қиламиз. Биз биринчи натижани ҳосил қилдик.

17

2. Потенциаллар хоссалари

1.Натижа

$$u_{ичкі}(M_0) = \lim_{\substack{M \to M_0 \\ M \in D}} u(M)$$

$$u_{ташқ}(M_0) = \lim_{\substack{M \to M_0 \\ M \notin D}} u(M)$$

Шунда

$$u_{ичкі}(M_0) = \lim_{\substack{M \to M_0 \\ M \in D}} u(M) + \pi f(M_0);$$

$$u_{ташқ}(M_0) = \lim_{\substack{M \to M_0 \\ M \notin D}} u(M) - \pi f(M_0)$$

18

2. Потенциаллар хоссалари

Шундай қилиб, потенциални контурда шундай тасвирлаш мумкин.

$$u(M_0) = \frac{u_{ичкі}(M_0) + u_{ташқ}(M_0)}{2}$$

Натижа 2.
агар $f(P)$ функция L узлуксиз бўлса, u(M) функция $M \in L$ узлуксиз бўлади.
Исб
Биз контурда

$$f(M) u_e(M) = \pi f(M); \quad u(M) - f(M_0) u_e(M) = \psi(M)$$

Узлуксиз функцияга эга бўламиз. Шунда u(M) функция қуйидаги кўринишга келади

$$u(M) = \pi f(M) + \psi(M)$$

19

Фойдаланиладиган асосий дарсликлар ва ўқув қўлланмалар рўйхати

Асосий дарсликлар ва ўқув қўлланмалар

1.Тихонов А.Н.,Самарский А.А. Уравнения математической физики. М. “Наука”.1972.
2.Владимиров В.С. Уравнения математической физики. М. “Наука”.1988.
3.Петровский И.Г. Лекции об уравнениях с частными производными. М. “Наука”.1961.
4.Бицадзе А.В. Уравнения математической физики. М. “Наука”.1982.
5.Салоҳиддинов М. Математик физика тенгламалари.Т. “Ўзбекистон”.2002.

Қўшимча адабиётлар

6.Бицадзе А.В., Калиниченко Д.Ф. Сборник задач по уравнениям математической физики. М. “Наука”.1977.
7.Владимиров В.С., Михайлов В.П., Вашарин А.А., Каримова Х.Х., Сидоров Ю.В., Шабунин М.И. Сборник задач по уравнениям математической физики. М. “Наука”.1982.
8.Бицадзе А.В. Некоторые классы уравнений в частных производных. М. “Наука”.1981.
9.Владимиров В.С. Обобщенные функции в математической физике. М. “Наука”.1979.
10.Смирнов М.М. Уравнения смешанного типа. М.1985.
11.Смирнов М.М. Задачи по уравнениям математической физики. М. “Наука”.1975.
12.Будак Б.М., Самарский А.А., Тихонов А.Н. Сборник задач по математической физике. М. “Наука”.1980.
13.Петровский И.Г. Лекции по теории интегральных уравнений. М. Из-во МГУ.1984.
14.Тешабоева Н.Х. Математик физика усуллари.Т.1966.
15.Годунов С.К. Уравнения математической физики. М. “Наука”.1971.
16. Рид М., Саймон Б. Методы современной математической физики, Т. 1-4. 1977- 1982, http://www.mcmee.ru, http://lib.mexmat.ru
17. Михлин С.Г. Вариационные методы в математической физике. М. 1970. http://www.mcmee.ru, http://lib.mexmat.ru

Xususiy hosilali tenglamalarfanidan glossariy.

Xususiy xosilali differensial tenglama deb bir nechta o‘zgaruvchili noma’lum funksiyaga , uning argumentlari va turli tartibli xususiy xosilalariga nisbatan tenglamalarga aytiladi. Xususiy xosilali differensial tenglamaning **tartibi** deb bu tenglamaga kiruvchi xosilalarning eng yuqori tartibiga aytiladi .
Kvazichizikli tenglamalar

$$a_1(x_1,...,x_n,u)\frac{\partial u}{\partial x_1}+...+a_n(x_1,...,x_n,u)_1\frac{\partial u}{\partial x_n}=f(x_1,...,x_n,u).$$

Ko‘rinishga ega.
Agar $f(x_1,...,x_n,u)\neq 0$ bo‘lsa u xolda tenglama **bir jinsli tenglama** bo‘lmaydi, aks xolda $f(x_1,...,x_n,u)$=0 bulsa, tenglama **bir jinsli tenglama** bo‘ladi.

Ikkinchi tartibli xususiy xosilali tenglama yuqori tartibli xosilalarga nisbatan chiziqli deyiladi, agar bu tenglama faqat birinchi tartibli xosilalarni o‘z ichida saqlasa.
Xarakteristik tenglama $a(d\ y)^2-2bdxdy+c(dx)^2+0$.
Xususiy hosilali umumiy tenglama deb
$F(x,y,u,u_x,u_y,u_{xx},u_{yy})=0$ tenglamaga aytiladi.
Tenglama chiziqli deyiladi, agar u nafaqat yuqori tartibli hosilalari u_{xx},u_{xy},u_{yy} ga nisbatan balki u funksiya va uning birinchi tartibli hosilalariga nisbatan chiziqli bo‘lsa.
Agar $f\equiv 0$ bo‘lsa shunda

$$a_{11}u_{xx}+2a_{12}u_{xy}+a_{22}u_{yy}+b_1u_x+b_2u_y+cu+f=0$$

tenglama **bir jinsli tenglama** aks holda **bir jinsli bo‘lmagan tenglama** deb aytiladi.
Xususiy hosilali umumiy tenglama deb
$F(x,y,u,u_x,u_y,u_{xx},u_{yy})=0$ tenglamaga aytiladi.
Tenglama chiziqli deyiladi, agar u nafaqat yuqori tartibli hosilalari u_{xx},u_{xy},u_{yy} ga nisbatan balki u funksiya va uning birinchi tartibli hosilalariga nisbatan chiziqli bo‘lsa.

$E(t)=\int_0^l\left[(v_t(x,t))^2+a^2(v_x(x,t))^2\right]dx$ funksiyaga **energiya integrali** deyiladi

Biror $u(x)\in C^2(E^n)$ funksiyadan $L[u]$ **differensial operator** qo‘yidagicha aniqlanadi :

$$L[u]=\sum_{i=1}^n\sum_{j=1}^n a_{ij}(x)u_{x_ix_j}+\sum_{i=1}^n b_i(x)u_{x_i}+c(x)u$$

Agar $L[u]=M[v]$ bo‘lsa operator **o‘z-o‘ziga qo‘shma operator** deyiladi.
Chiziqli algebrada **A operatorga qo‘shma** A^* **operator** deb quyidagi $(Au,v)=(u,A^*v)$ munosabat aytiladi.

Grin formulasi deb $\int_L Pdx+Qdy=\iint_D(Q_x-P_yds)$ ga aytiladi.

Koshi masalasining yechimi uchun **Dalamber formulasi**

$$u_n(x,t)=\frac{\hat{o}_n(x-at)+\hat{o}_n(x+at)}{2}+\frac{1}{2a}\int_{x-at}^{x+at}\psi(\xi)d\xi\qquad\Rightarrow u_n(x,t)\in C^2\{E\times[0;T]\}$$

Fur’ye qonuni $\vec{W}=-k\,grad\,u$ ga aytiladi.

$k(x,y,z)$ - **issiqlik o‘tkazuvchanlik koeffisienti**.

Fazoda issiqlik utkazuvchanlik tenglamasi deb,

$$c(x,y,z)\rho(x,y,z)u_t(x,y,z,t)=\frac{\partial}{\partial x}(k(x,y,z)u_x(x,y,z,t))+\frac{\partial}{\partial y}(k(x,y,z)u_y(x,y,z,t))+$$

$$+\frac{\partial}{\partial z}(k(x,y,z)u_z(x,y,z,t))+F(x,y,z,t)$$

tenglamaga aytiladi.

$u_t=a^2u_{xx}+f(x,t)$ bir jinsli yupqa sterjinda **issiqlik o‘tkazuvchanlik** (yoyilish) tenglamasi.

Diffuziya tenglamasi quyidagicha:

$cu_t=div(Dgradu)+F(x,y,z,t),\ D-$ diffuziya koeffitsiyenti, $F-$ biror bir funktsiya .

Shturm-Liuvill masalasi: $\begin{cases} X''(x)+\lambda X(x)=0; \\ X(0)=0; X(l)=0. \end{cases}$

$\frac{\partial^2 u}{\partial x^2}+\frac{\partial^2 u}{\partial y^2}+\frac{\partial^2 u}{\partial z^2}=-f(x,y,z),\ E^3$ **fazoda Puasson tenglamasi.**

$\frac{\partial^2 u}{\partial x^2}+\frac{\partial^2 u}{\partial y^2}=-f(x,y),\ E^2$ **fazoda Puasson tenglamasi.**

$\frac{\partial^2 u}{\partial x^2}+\frac{\partial^2 u}{\partial y^2}+\frac{\partial^2 u}{\partial z^2}=0,\ E^3$ **fazoda Laplas tenglamasi.**

$\frac{\partial^2 u}{\partial x^2}+\frac{\partial^2 u}{\partial y^2}=0,\ E^2$ **fazoda Laplas tenglamasi.**

$u(x,y,z)$funksiya Ω, soxada **garmonik funksiya** deyiladi, agar

$u\in c^2(\Omega)$ $\hat{a}\grave{a}$ Ω $\ddot{a}\grave{a}$ $\Delta u\equiv 0$ shartlar bajarilsa.

Dirixle ichki masalasi $\begin{cases} \Delta u(x,y,z)=0, & (x,y,z)\in\Omega \\ u(x,y,z)=\mu(x,y,z), & (x,y,z)\in\sum \end{cases}$

Neyman ichki masalasi $\begin{cases} \Delta u(x,y,z)=0, & (x,y,z)\in\Omega \\ \frac{\partial u}{\partial n}(x,y,z)=v(x,y,z), & (x,y,z)\in\sum \end{cases}$

Dirixle tashqi masalasi $\begin{cases} \Delta u(x,y,z)=0, & (x,y,z)\in E^3\setminus\bar{\Omega} \\ u(x,y,z)=\mu(x,y,z), & (x,y,z)\in\sum \end{cases}$

Neyman tashqi masalasi $\begin{cases} \Delta u(x,y,z)=0, & (x,y,z)\in E^3\setminus\bar{\Omega} \\ \frac{\partial u}{\partial n}(x,y,z)=v(x,y,z), & (x,y,z)\in\sum \end{cases}$

Grinning ikkinchi formulasi:

$$\iiint_{\Omega}(u\Delta v - v\Delta u)d\tau = \iint_{\Sigma}\left(u\frac{\partial v}{\partial n} - v\frac{\partial}{\partial nu}\right)d\sigma$$

Grinning uchinchi formulasi:

$$4\pi u(M_0) = -\iiint_{\Omega}\frac{1}{R_{MM0}}\Delta u(M)\,d\tau_M -$$

$$-\iint_{\Sigma}\left[u(M)\frac{\partial}{\partial n}(\frac{1}{R_{MM0}}) - \frac{1}{R_{MM0}}\frac{\partial u}{\partial n}(M)\right]d\sigma_M$$

Oddiy qatlam potensiali:

$$v(M) = \iint_{\Sigma} g(P)\frac{1}{R_{MP}}\partial\sigma p$$

Ikkilangan qatlamning potensiali:

$$u(M) = -\iint_{\Sigma} f(P)\frac{\partial}{\partial n}\left(\frac{1}{R_{MP}}\right)\partial\sigma p$$